O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 95 yilligiga bag‘ishlanadi

S.B.BOBOQULOV

UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

(Samarqand viloyati misolida)

MONOGRAFIYA

SAMARQAND 2025

UO‘K: 338.465(575.141)
B 76
KBK: 67.404.2(5O’zb)

S.B.Boboqulov.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni samaradorligini oshirish (Samarqand viloyatim misolida) [Matn]: **Monografiya /** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025 - 218 bet.

Taqrizchilar:
N.U.Arabov – SamDU professori, i.f.d.
E.Shavqiyev – SamISI professori, i.f.n.

Monografiyada Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholi farovonligini yuksaltirish, turmush darajasini oshirish imkoniyatlari, ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlarni sifati va miqdorini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini samarali faoliyati avvalo davlat miqyosida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini institutsional, tashkiliy, iqtisodiy, innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdeng, xizmat ko‘rsatishni samarali faoliyatini ta’minlash maqsadida tavsiyalar, takliflar xulosalar keltirilgan.

Monografiya oliy o‘quv yurtlari talaba va o‘qituvchilariga hamda doktorantlarga mo‘ljallangan. Undan uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida mavjud muammolari bilan qiziquvchi mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Monografiya institut Kengashining 2025-yil 29-apreldagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (9-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-648-53-3

© S.B.Boboqulov SamISI., 2025 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2025 y.

KIRISH

Dunyo mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoiti hamda aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi aholi turmush darajasini yuksalishining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. “Bugungi kunda jahonda aholi sonini tobora ortib borishiga mutanosib ravishda uy-joy fondi kengayib borishi, jumladan, uy-joy 2024-yilda rivojlangan mamlakatlardan Amerika Qo‘shma Shtatlarida 138,7 mln., Buyuk Britaniyada 245,3 mln., Germaniyada 44,1 mln., Fransiyada 38,8 mln., va Kanadada 136,9 mln. tani tashkil etadi”[1]. Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holati jamiyat a’zolarining eng muhim ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish asosida ularning mehnat qilish qobiliyatini tiklash bilan birga mamlakat iqtisodiyotida energiya resurslarining sezilarli qismini iste’mol qilayotganligi tufayli jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida ushbu sohani rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon aholisining jadal sur’atlar bilan ortib borishi bilan bog‘liq holda uy-joy fondining kengayishi, bir tomondan, iste’molchilarning uy-joy kommunal xizmatlarga bo‘lgan real ehtiyoji darajasining ortishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, iste’mol qilinayotgan xizmatlar sifatiga bo‘lgan talab darajasining ko‘tarilishiga olib kelmoqda va shu sababdan, aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari tomonidan yaratilayotgan kommunal xizmatlar hajmi va uning sifatiga yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqishi lozimligini talab qiladi. Bu esa aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirish va raqamlashtirish jarayonlarini mavjud o‘zgarishlarga mos holda takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan isloh qilish qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan islohotlar natijasida milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, “...xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini

[1] https://www.statista.com/statistics/240267/number-of-housing-units

oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish”[2] ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalardan kelib chiqib uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini isloh qilish, xodimlar malakasini oshirish hamda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida erkin raqobat muhitini shakllantirishni talab qiladi.

Aholiga uy-joy kommunal xizmatlarni ko‘rsatish tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirish dunyoning barcha mamlakatlarida, shu jumladan bizning respublikamizda ham eng dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimizning 2017-yil 18-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2900-son qarori, 2017-yil 18-apreldagi “Uy-joy joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5017-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “2017-2021-yillarda ichimlik suvi ta’minotini va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-2910-son qarori, 2017-yil 25-apreldagi “2017-2021-yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2911-son qarori bevosita ushbu dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan.

Uy-joy kommunal xizmatlarsiz odamlar hayoti va faoliyatini tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu xizmatlar sohasi orqali aholiga yetkazib beriladigan suv, elektr energiyasi, gaz, issiqlik manbalari va boshqalar qiymat hamda iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan o‘ziga xos tovarlar bo‘lib hisoblanadi. Odamlar sonining oshib borishi bilan mazkur tovarlarning iste’mol miqdori ham borgan sari oshib boradi. Aholiga yuqori sifatdagi uy-joy kommunal xizmatlarning ko‘rsatilishi odamlar hayot sifati darajasini belgilovchi eng muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. Odamlar turmush darajasini yuksaltirish ulug‘vor hisoblangan kishilik jamiyatida uy-joy kommunal xizmatlar sohasini idealligiga erishish,

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev tamonidan qabul qilingan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». – www.lex.uz

ya’ni uni eng zamonaviy fan va texnika, texnologiya va innovatsiyalar asosida tashkil qilish – bu makon va zamonda hechqachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydigan masaladir. Prezidentimiz tomonidan “Xalqni rozi qilish”, “Odamlar tashvishlarini hal qilish”, “Odamlar davlat organlariga emas, davlat organlari odamlarga xizmat qilishi kerak” va boshqa shu kabi qo‘yilayotgan talablar bevosita aholiga ko‘rsatiladigan uy-joy kommunal xizmatlarga ham dahldordir. Respublikamiz aholiga ko‘rsatilayotgan uy-joy kommunal xizmatlar borasida boshqa mamlakatlardan ancha orqada. Uy-joy kommunal xizmatlar asosan yirik shaharlarimizda mavjud, ularning holati viloyatlar markazlaridan uzoqda joylashgan xududlarda juda ham qoniqorsiz ahvoldaligi sir emas. Shuningdek, minglab-millionlab mijozlar bilan moliyaviy munosabatlar qilinadigan uy-joy kommunal xizmatlar sohasida milliy boyligimiz hisoblangan suv, gaz, elektr energiyasi, issiqlik ta’minoti uchun o‘zaro o‘zaro hisob-kitoblarda to‘lov intizomini pastligi, ushbu ishlarni raqamlashtirishning yetarlicha emasligi katta miqdordagi umidsiz debitorlik qarzlarni paydo bo‘lishiga, mos ravishda, ushbu xizmatlar xaki evaziga pul tushumlarini kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

Raqamli texnologiyalar va ishlanmalar asosida “aqlli-shahar”, “aqlli-kvartal”, “aqlli-uy”, “aqlli-ko‘cha”, “aqlli- uy-joy kommunal xizmatlar” kabi eng zamonaviy infratuzilmalarni yaratish, kommunal sohani modernizatsiyalash, unga investitsiyalarni kiritish, resurslardan samarali foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan ilg‘or tajribalar hamda ularni respublikamizda keng tadbiq etish yo‘llari yetarlicha tadqiq etilmasdan qolmoqda. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, diversifikatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish korxonalar faoliyatini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi yaxshilash, xodimlar malakasini oshirish orqali aholini turmush farovonligi va darajasini yuksalishi, uy-joylar bilan ta’minlanishiga erishishimiz mumkin.Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu monografiya uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi

muammolar va ularni yechimlariga bag‘ishlangan bo‘lib, tizim faoliyatini rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

I BOB. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLIGA UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi aholi farovonligi, turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Mamalakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyov “Isloxotlarning asosiy maqsadi-aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta’minlashdir”[3]. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida asosiy va muhim vazifalardan biri aholining turmush darajasini yaxshilash masalasi bo‘lib kelgan.

Hozirgi kunda Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan uslubga muvofiq dunyodagi mamlakatlarining taraqqiyot darajasi reytingi ularning iqtisodiy salohiyati yoki harbiy qudratiga qarab emas, balki, aholi turmush madaniyati va inson resurslarining rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Aholining turmush darajasi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va ijtimoiy sohaning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘z navbatida ijtimoiy soha aholiga moddiy va ma’naviy ko‘mak beruvchi infratuzilmalardan tashkil topadi. Ta’lim, madaniyat, san’at, sport va sog‘liqni saqlash kabi sohalar aholini komil inson qilib tarbiyalash uchun xizmat qilsa, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining rivojlanishi aholining farovon hayot kechirishi va munosib turmush tarzining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Fikrimizcha aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining nazariy asoslari puxta ishlab chiqilmas ekan hamda asoslab berilmas

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 14 yanvardagi Vazirlar maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi markzasi. Zarafshon gazetasi, 18 yanvar 2017 yil

ekan hamda uni jadal sur’atlar bilan rivojlantirish samarasiz, bugungi kunda amaliyot kun tartibiga qo‘yilayotgan boshqa muhim muammolarni hal etib bo‘lmaydi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugungi innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasining nazariy masalalari chuqur va atroflicha o‘rganilmagan. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi aholining farovon yashashida, iqtisodiyotning yuksalishida muhim ahamiyatga ega ekanligiga qaramasdan, mazkur masalaga yetarlicha e’tibor berilmadi. Shu sababli bo‘lsa kerak, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida kommunal xizmatlarning kelib chiqishi va evolyusiyasi to‘g‘risida ilmiy qarashlar shakllanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini evolyusiyasini bilmasdan turib, uning ishtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini asoslab bo‘lmaydi.

Bu borada o‘zimizning ayrim fikr va mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz. Xizmat ko‘rsatish sohasi uzoq vaqtlar mobaynida inson hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan inson taraqqiyotining barcha bosqichlarida iqtisodiy tizimning bir turidan ikkinchi turiga o‘tishda aynan xizmatlar sohasining rivojlanishi asosiy rol o‘ynadi. Tovar ishlab chiqarish natural xo‘jalikning rivojlanishi, maxsulot turlari va miqdorining o‘sishi natijasida paydo bo‘ldi[4]. Natural xo‘jalikning siqib chiqarish va tovar ayirboshlashning rivojlanish jarayoni mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab qicharishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida sodir bo‘lgan[5]. Mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab qicharishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning rivojlanishi hamda xo‘jalik a’zolari o‘rtasida o‘zaro ayirboshlash, ya’ni savdo xizmatlari orqali amalga oshadi. Shuningdek, natural xo‘jalik davrida ham uning a’zolari ma’lum bir xizmat turlaridan, jumladan o‘zaro axborot almashish, maishiy xizmat, kommunal xizmatlar,

[4]Шодмонов Ш.Ш., Алимов Р.Н., Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Тошкент, “Молия” нашриёти 2002 йил. 85 бет.
[5]Шодмонов Ш.Ш., Алимов Р.Н., Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Тошкент, “Молия” нашриёти 2002 йил. 89 бет.

o‘zlarini tashqi muhitdan himoya qilish kabi xizmatlardan foydalanishgan. Tabiiyki, ular ushbu xizmatlarning mohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushunib yetmagan. Lekin, bu turdagi xizmatlar natural xo‘jalik a’zolarining kundalik ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynadi. Kishilik taraqqiyotining o‘sha davridayoq xizmatlar sohasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiyotida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Uzoq tarixiy davr mobaynida xizmat ko‘rsatish sohasi tobora rivojlandi va hozirgi kunda bozor iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi.

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi tarixiga nazar solganimizda bu sohada mamlakatimizda uzoq tarixga va cheksiz maanbaga ega bo‘lgan maktab mavjudligining ko‘rishimiz mumkin. Hattoki ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan, O‘rta Osiyoda eng qadimiy hisoblanuvchi (X-asr) tarixiy obida “Samoniylar maqbarasi”ga nazar tashlar ekanmiz, uning noyob san’at asari darajasida yaratilgan arxitektura yodgorligi ekanligi bilan birga unda yog‘ingarchiliklardan himoyalovchi tarnov yo‘li, oqovasuv tizimi va havo aylanishini ta’minlovchi kommunikatsiyalarning mavjudligini ko‘ramiz. Bu esa o‘sha davrda O‘rta Osiyoda muxandislik tarmoqlari qurilishi sohasida ma’lum tajriba mavjud ekanligini hamda ushbu tizim orqali kommunal xizmat ko‘rsatish ma’lum ma’noda yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin ko‘ramiz.

Mustaqillikning dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida tub o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu borada olib borilgan ishlar kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini rivojiga katta hissa qo‘shdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikam birinchi Prezidentining 1993-yil. 15-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida kommunal xizmat ko‘rsatishni boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi Farmoniga muvofiq, viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy kommunal xizmat ko‘rsatish xo‘jaligi va undan foydalanish birlashmalari barpo etildi. 1996-yilning boshida Respublika Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tizimida 345 ta korxona va inshoot xususiylashtirildi, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari negizida 20 ta aksiyadorlik jamiyati barpo etildi.

Respublikamizda davlatning uy-joy siyosati O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksida aks ettirilgan bo‘lib, u 1998-yil 24 dekabrdagi 713-I sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan qabul qilingan va Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-dekabrdagi 714-II son Qaroriga muvofiq 1999-yil 1-apreldan amalga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 11 ta bo‘lim va 141 ta moddadan iborat. Shuningdek, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun ko‘plab qarorlar, farmonlar hamda tizimni modernizatsiya qilish maqsadida moliyalashtirish siyosati olib borildi. Ammo, ushbu islohotlar o‘z samarasini bermadi. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari markazlashtirilgan bo‘lib asosan davlat mulkiga asoslanganligi hamda monopol sohaga aylanganligi sababli tizimda qarzdorlik holatlari, xizmatlar sifatini yomonlashishi kabi muammolar paydo bo‘ldi. Muammoni yechimi sifatida 2017-yil 18-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida 2019-yil 6-avgustda “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”[6]gi qonun qabul qilingan. Bundan tashqari mamlakatimizda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida ko‘plab dasturlar qabul qilinib islohotlar olib borilmoqda.

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini nazariy asoslarini tahlil qilar ekanmiz sanoat iqtisodiyoti nazariyasi, mintaqaviy iqtisodiyot va institutsional iqtisodiy nazariyalarga asoslanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ma’lum hududda yashovchi aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishni kengaytirish tizimida[7] ular o‘rtasida sifat jihatidan yangi munosabatlar va o‘zaro bog‘liqliklar mavjud bo‘lib, korxona va tashkilotlarning boshqaruv organlari va iste’molchilar munosabatlarida

[6] Ўзбекистон Республикасининг “Кўп квартирали уйларни бошқариш тўғ‘рисида”ги Қонуни. 2019 йил 6 август. www.lex.uz

[7] “Институционал иқтисодий назария” атамаси Намилтон томонидан 1918 йилда илмий айланиш жараёнига киритилди.

aks etadi. Ushbu munosabatlarning mohiyati aholini sifatli xizmatlar bilan qamrab olish maqsadida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini yangi texnologiya bilan muntazam qamrab olish, uy-joylar va kommunal xo‘jalikni rivojlantirish, uy-joy kommunal xizmatlarning energiya samaradorligini oshirish, mavjud uy-joy qurilishi va uy-joy kommunal infratuzilmani kompleks yangilash, innovatsion va tejamkor energiya texnologiyalarni joriy qilish hamda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini joriy va uzoq muddatli barqaror rivojlantirishning talablarini inobatga olgan holda, aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasining mohiyatini va ularni ishlab chiqarish hamda iste’mol qilish jarayonlarini o‘rganish uchun ob’ektiv ehtiyoj paydo bo‘ladi. Iqtisodiyotni islohot qilish uchun nazariy jihatdan rasmiy (qoidalar va qoidalarga rasmiy ravishda tayinlangan) va norasmiy (odatiy an’anaviy xatti-harakatlar normalari) institutlari o‘rtasida alohida ajratilgan bo‘lib, ular alohida ahamiyatga ega. Ba’zi qoida va qoidalarning qonuniy bekor qilinishi va radikal ravishda yangilarini joriy etish odamlarning odatiy harakatlarini tezda o‘zgartira olmaydi. Rasmiy va norasmiy qoidalar bilan kelishmovchilik aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish bozorining samarasizligi va islohotlarning to‘lovga layoqatsizligining asosiy sababidir. Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bozorini isloh qilishning samarasizligi, shuningdek, kommunal xizmatlarning ta’rifi yo‘qligi bilan bog‘liq.

Barcha ta’riflar tovarlarga xizmat ko‘rsatishning muxolifligiga asoslanadi. Masalan, K.Hakserveraning yondashuvi bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish turlari quyidagilardan farq qiladi. Yani, nomoddiy belgilar, kommunal xizmatlarni tejashga qodir emasligi, muayyan iste’molchiga e’tibor qaratilishi, talabning ommaviyligi. Ko‘plab korxona – xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar shular jumlasiga kiradi.

Shu nuqaiy nazardan “Xizmat” atamasini ta’riflashga boshqa yondashuv T. Fill tomonidan quyidagicha taqdim qilinadi. “Xizmat inson yoki mahsulot shartlarida o‘zgarish sifatida aniqlanishi mumkin, har qanday xo‘jalik birligiga tegishli bo‘lgan har qanday iqtisodiy

birlikning birinchi shaxs yoki xo‘jalik birligining oldindan roziligi bilan amalga oshirilishi natijasida amalga oshiriladi”. Ushbu ta’rif, shuningdek, “o‘zgarish” mezonlariga ham e’tibor qaratadi xizmat ko‘rsatish jarayonida va uning iste’mol qilingan natijalaridagi delimitatsiya imkoniyati to‘g‘risida keltiradi. Biroq, bu ta’rifni kamchiliklari bor, chunki ularning maqsadi o‘zgarishlarning oldini olishdir. Xalqaro amaliyotda xizmat konsepsiyasi ta’rifining murakkabligi tufayli klassifikatorlar foydalanadi. Jahon savdo tashkilotining tasniflagichi eng keng tarqalgan (4-ilova), aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi savdo-sotiq xizmatlari bilan bog‘liq. Ammo, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida kommunal xizmatlar to‘g‘risida qonun mavjud emas. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish jarayoni huquqiy tomondan “uy-joy” kodeksi, qarorlar va farmonlar asosida tartibga solinadi. Shuningdek, uy-joy kommunal xizmat turlari O‘zbekiston Respublikasi MT 2015 klassifikatorida ham mavjud emas. Fikrimizcha, tizimda huquqiy izlanishlar olib borish, mavjud qonunlarni tahrirlash va soha uchun alohida qonunlar majmuini ishlab chiqish, kommunal xizmatlar tarkibiga suv ta’minoti, kanalizatsiya ta’minoti, elektr ta’minoti, gaz ta’minoti, uy-joy fondini tamirlash, yashash qulayliklarini yaxshilash, chiqindilarni tashish va yo‘qotish hamda obodonlashtirish kabi xizmatlarni bir tizimga joylash maqsadga muvofiqdir.

Xususan, o‘zbek olimlaridan uy-joy kommunal xizmat kategoriyasiga yetarlicha ta’rif berishmagan. Asosan, “kommunal xo‘jalik” kommunal xizmat ko‘rsatishni infratuzilmasi yoki kommunal xizmatlarni turlari bo‘yicha ta’riflar ishlab chiqishgan. Masalan, iqtisodchi olim X.M.Mamatqulovning maxsus izohli lug‘atida “Kommunal xo‘jalik - mahalliy hokimliklarning shahar hayoti bilan bog‘liq xo‘jalik tarmoqlari uy-joy, transport, elektr, vodoprovod, hammom hamda obodonlashtirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi bo‘lim”[8]-degan ta’rifni bergan. Mazkur ta’rifda kommunal xo‘jalik

[8] Х.М.Маматқулов “Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар луғати”-Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010.-Б.126-127.

faoliyati yoritilgan bo‘lib uy-joy kommunal xizmatlarni o‘zida ifoda etmaydi, chunki bu ta’rif ko‘proq kommunal xo‘jalikni izohini o‘z ichiga olgan. Bu borada aniq izoh bergan olimlar Q.J.Mirzaev, M.Q.Pardaevlar qarashlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ular “Kommunal xizmatlar deyilganda, mahalliy hudud hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan uy-joy, transport, elektr ta’minoti, gaz, suv kabi aholining yashashini yaxshilash bilan bog‘liq xizmatlar bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar tushiniladi”[9]-degan fikrni bergan. Kommunal xo‘jalik kategoriyasiga o‘zbek olimlaridan V.U.Yodgorov, D.Ya.Butunovlar “Uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimi – bu murakkab iqtisodiy tizim bo‘lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo‘lgan korxona va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo‘lgan resurslar yetkazib berish bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o‘rinlari bilan ta’minlaydi”[10]-degan fikrlarni o‘rtaga tashlaydi. Bu yerda ko‘proq kommunal xo‘jaligiga oid ta’rif berilgan bo‘lib, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishgacha bo‘ladigan ya’ni ishlab chiqarish jarayonini o‘zida aks ettirgan “kommunal xizmat” kategoriyasini yoritmaydi.

Fikrimizcha, “uy-joy kommunal xizmat” kategoriyasiga ta’rif berishda bir qator omillarni inobatga olish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Masalan, kommunal xizmat ko‘rsatishda ishlab chiqarish omili bilan xizmat ko‘rsatish omilini inobatga olish shart. Xizmat ko‘rsatish aholini nomoddiy ehtiyojlarini qondirsa, ishlab chiqarish asosan moddiy ehtiyojlarini qondiradi. Shunday ekan, **uy-joy kommunal xizmat** – bu jamiyat a’zolarining turmush kechirishi uchun zarur moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi hamda ular farovonligining oshirish imkoniyatini yaratuvchi xizmat ko‘rsatish faoliyatidir.

---

[9] Q.J.Mirzaev, M.Q.Pardaev “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”. O‘quv qo‘llanma.T.:“IQTISOD-MOLIYA”, 2010.-B.126-127.

[10] V.U.Yodgorov, D.Ya.Butunov Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi. Darslik.-Toshkent, 2012-B.38.

Shu bilan birga, uy-joy kommunal xizmat ishtirokchilarining innovatsion va texnologik rivojlantirish sharoitida o‘zaro ta’sir mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar sharoitida, iste’molchilar uchun energiya xizmatlari va innovatsion axborot xizmatlari bilan bog‘liq bo‘lgan aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining raqobatbardoshligini va samaradorligini oshiradigan qo‘shimcha xizmatlarning potensiali hisoblanadi[11].

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi, ularning ijtimoiy xarakterlari va funksiyalari bilan bog‘liq holda bozor va nodavlat tashkilotlarni tartibga solish mexanizmlarining birlashuviga ehtiyoj seziladi (1.1.1-jadval).

1.1.1-jadval

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi bozori mexanizmi[12]

Mexanizmlar	Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi	Rasmiy qoidalar	Norasmiy cheklashlar	Majburlash mexanizmlari
Bozor mexanizmlari				
Imtiyozlar	Resurslarni yetkazib berish xizmati	Bozor uchun tanlov	Iqtisodiy xarakatlarga ko‘ra qiziqish	Ma’muriy va jinoiy sud
Boshqarish kompaniyasi	Uy-joy fond tomonidan boshqarish	Raqobat tanlovi	Rasmiy kampaniyalar	Ma’muriy va jinoiy sud[13]
Bozor mexanizmlari bo‘lmagan				
Ta’riflarni tartibga solish	Resurslarni yetkazib berish xizmati	Qoidalar shakllanishi, ta’riflari	Nazorat qilish	Ma’muriy va jinoiy sud
Davlatning qo‘llab-quvvatlashi	Resurslarni yetkazib berish	Qoidalar va subsidiyalar	Taqdim etish xizmatlar bilan ularni	Ma’muriy va jinoiy sud

[11] Скрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. ISBN 978-5-279-03540-3 Москва: Финансы и статистика, 2013 г., 288 с.
[12] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.
[13] Скрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. ISBN 978-5-279-03540-3 Москва: Финансы и статистика, 2013 г., 288 с.

aholiga kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar	xizmati		buzish sifatlari	

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi institutsional tuzilmasini faqat raqobatbardosh bozor institutlari negizida shakllantirishning tanqidiy baholari bir qator holatlardan iborat:

– daromadlar tengsizligi bozorga aholini va tashkilotlarning ehtiyojlariga muvofiq xizmatlar taqsimotini amalga oshirishga imkon bermaydi. Iste’mol asosida iste’mol qilinadigan kommunal xizmatlarning umumiy hajmi optimal ko‘rsatkichga nisbatan kamroq baholanadi;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bozorida assimetrik ma’lumotlar sifati sohasida davlat kafolatlarini ta’minlash zarurligini belgilaydi;

– uy-joy kommunal xizmatlarning bir qismi faqat “paket”da taqdim etiladi, shuning uchun ushbu majburiy paket davlat standartlariga muvofiq bo‘lishi kerak;

– “erkin otliq” muammosi tufayli kommunal xizmatlarning bir qismi uchun talab yo‘q, iste’molchilar bu xizmatlarning boshqalar tomonidan to‘lanadiganiga umid qiladilar.

Shu bilan birga, aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi bozorida bozor institutlaridan imkon qadar ko‘proq foydalanishni talab qiluvchi bir qator omillar mavjud:

– shaxsiy manfaatdorlikni rag‘batlantirish zarurati aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi sifatini va moslashuvchan differensiasini yaxshilashni talab qiladi;

– iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan aholiga uy-joy kommunal xizmatlarni ishlab chiqarishining o‘rtacha xarajatlarida tejashni rag‘batlantirish zaruriyati;

– bozor institutlaridan foydalanish uy-joy kommunal xizmatlar bozorining barcha ishtirokchilari o‘rtasida institutsional tarmoqlarni

shakllantirishga, masalan, aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida xususiy kapitallarni jalb qilish shaklida.

Ta’rif siyosatining aholi yashaydigan aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi uchun to‘lov qobiliyatiga va istaklariga bo‘lgan chegara qiymatiga mos kelishining natijasi bo‘lgan to‘lov tartibi (1.2-jadval). Uy-joy kommunal xizmatlarning moliyaviy barqarorligini va xususiy pudratchilar uchun uning jozibadorligini barcha turdagi hayotiy tizimlarini ishonchliligini belgilaydi.

To‘lov intizomining darajasi – uy-joy islohoti muvaffaqiyatining tan olinmagan ajralmas qismi hisoblanadi. Agar bu ko‘rsatkich 95% dan past bo‘lsa va to‘lovlar yetishmasligidan kelib chiqadigan zarar budjetdan qoplanmasa, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari zarar ko‘rmaydi va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari ob’ektlari ta’mirdan chiqariladi.

Tadqiqotlarimizda to‘lov intizoming eng past darajalari Samarqand viloyat Qo‘shrobod tumani (90,2%), Nurobod tumani (85%), Payariq tumani (89,1%), Urgut tumani (62,8%), Samarqand shahrida (49,2%) ko‘rsatkichda to‘lovlarni amalga oshirmagani kuzatildi (1.1.1-rasm).

Binobarin, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bozorning to‘liq infratuzilmasini yaratishning dastlabki shartlari va omillarining tashkiliy va iqtisodiy xarakteri tabiatini tartibga solish, inventarizatsiya, mol-mulkni ro‘yxatga olish va aholi kam daromadli qatlamlariga majburiyatlarni bajarish, uzoq muddatli moliyalashtirishning yo‘qligi bilan asoslanadi.

Mamlakat iqtisodiyotida kommunal xizmatining ahamiyatini baholab bo‘lmaydi. Bu yoki boshqa mamlakatning har bir fuqarosi har kuni kommunal xizmat sohasi bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining rivojlanish darajasi va samaradorligi aholining turmush darajasi va sifatiga, uning hayotining sanitariya-gigiena sharoitlariga, mehnat unumdorligiga va haqiqiy erkinlik darajasiga ta’sir qiladi. Xizmat ko‘rsatish sohasi, xususan, aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi

samaradorligini aniqlash muammosiga turli uslubiy yondashuvlar mavjud.



1.1.1-rasm. Aholidan uy-joy kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarni yig‘ish dinamikasi[14]. *(Samarqand viloyatining o‘rtacha ko‘rsatkichlari % ko‘rsatgichida)*

Ba’zilar xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini oshirishning mohiyati aholi ehtiyojlarini yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish va xizmat ko‘rsatish madaniyati bilan maksimal darajada qondirish, davlat mablag‘lari va ishchi kuchiga nisbatan ancha past xarajatlar bilan va xizmatlardan oqilona foydalanish bilan ta’minlashdir, deb hisoblashadi.

Xususan, V.Z.Chernnyak. uy-joy kommunal xizmatlarning samaradorligini nafaqat moliyalashtirishni oshirish va moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga qo‘shimcha mablag‘larni kiritishda, balki uy-joy kommunal xizmatlari ishlab chiqarish sifati darajasini saqlab qolish yoki oshirishda xarajatlarni tejashda ham ko‘radi[15].

Yu.F.Simionov uy-joy kommunal xo‘jaligini iqtisodiy tahlil qilish vazifalaridan biri mehnat, moddiy-texnika va moliyaviy resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, so‘ngra faoliyat

[14] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.
[15] Черняк В.З. Жилищно-коммуналное хозяйство: развитие, управление, экономика. –М.: КНОРУС, 2007. – 183 с.

samaradorligini oshirish va undan foydalanish uchun ichki resurslarni aniqlash ekanligini ko‘rsatdi[16].

Shunday qilib, aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasining samaradorligi, erishilgan natijalar va jamiyat ixtiyoridagi turli xil resurslar xarajatlari o‘rtasidagi nisbat bilan tavsiflanadi, degan umumiy qabul qilingan fikr juda o‘rinli hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, **uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligi** – bu jamiyat manfaatlari uchun ishlab chiqarish vositalari va mehnatning minimal hajmi bilan maksimal natijalarga erishishdir.

Ammo, shu bilan birga, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini faqat taqdim etilayotgan xizmatlarning o‘sishi va xarajatlarning pasayishi bilan bog‘lash mumkin emas. Samaradorlikni aniqlashda ijtimoiy oqibatlar muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, resurslardan foydalanishning katta samarasi, agar u ishchilarning mehnat sharoitlarining yomonlashuvi bilan birga bo‘lsa, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni anglatmaydi. Ikkinchidan, ko‘rsatilayotgan aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sonining ko‘payishi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga bajarilgan ishlar mavjud ehtiyojlarga mos kelishi kerak. Agar u mavjud ehtiyojlarni qondirmasa, u holda jamiyat uchun aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligining oshishi deyarli yuz bermaydi va faqat foydasiz xarajatlar kelib chiqadi[17].

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda amalda bo‘lgan MST 2015 klasifikatori bo‘yicha aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish xizmatlari mavjud emas. MST 2015 klasifikatorini o‘rganib chiqganimizda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish xizmatlari hamda boshqa xizmatlar va ishlab chiqarib yo‘nalishlari tarkibidagiligini ko‘rishimimz mumkin. Fikrimizcha, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish xizmatlarini klasifikatorda keltirish maqsadga muvofiqdir.

---

[16] Экономика жилищно-коммуналного хозяйства/ под ред. Ю.Ф.Симионова. –М.:ИКЦ «МарТ», 2004.–211с.
[17] http://m-economy.ru/



1.1.2-rasm. Aholiga ko‘rsatiladigan asosiy uy-joy komunal xizmatlar turlari[18]

1.2. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi infratuzulmasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uslubiy asoslari

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini (AUJKXKT) isloh qilishning o‘ziga xos xususiyatlari uning funksiyasi bilan belgilanadi. Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida kapital faoliyatining takomillashtirilishi va innovatsion texnologiyalar asosida kommunal xizmatlarni taqdim etilishi hamda boshqaruv tizimlari sohani oqilona muvozanatini va bozorni tartibga soluvchi tizimlarni yaratishga yo‘naltirilganligidir. Ma’lumki, uy-joy kommunal

[18] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

xizmatlar jamiyatda ishlab chiqarish korxonalari va iqtisodiy faoliyat turlarini tashkiliy va texnologik jihatdan bir-biriga bog‘laydigan vazifalarni bajarish, ularga xizmat ko‘rsatish, obodonlashtirish, aholini turmush farovonligini yuksaltirish uchun ham zarurdir.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi aholi turar joylari, ma’muriy va ishlab chiqarish binolari, noishlab chiqarish va ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolar, inshootlar, hududlar va uzatuvchi magistrallarga xizmat ko‘rsatuvchi, foydalanishni tashkil etuvchi, qurilish-ta’mirlash, transport, energiya ishlab chiqaruvchi va boshqa turli tovar va xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalardan tashkil topgan, keng qamrovli faoliyatining pirovard natijasi inson hayot faoliyatini tashkil etuvchi, shahar infratuzilmasini rivojlantiruvchi va ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qiluvchi soha hisoblanadi.

Yashash joylarida aholi sonining ko‘payib borishi o‘z navbatida uy-joy kommunal xizmatlarga ehtiyojning ortib borishiga olib keladi. Masalan, hozirgi kunda chekka hududlarda joylashgan kichik qishloqda faqat elektr-energiyasi ta’minoti kommunal xizmati tashkil etilgan, qishloq joylari va aholi yashash markazlarida (posyolkalar) elektr-energiyasi, gaz va ichimlik suvi ta’minoti kommunal xizmati tizimi faoliyat ko‘rsatsa, shaharlarda esa kommunal xizmatlarning turli-tuman shakllari mavjud. Aholi sonining ko‘payib borishi ma’lum hudud chegaralarining kengayib borishiga, kommunal xizmatlar tizimining takomillashib borishiga va vaqt o‘tishi bilan qishloq joylarining aholi yashash markazlariga, aholi yashash markazlarini esa shaharlarga aylanishiga olib keladi.

Shahar bu yirik aholi yashovchi ma’muriy hudud bo‘lib, u ishlab chiqarish, savdo va madaniyat markazi hisoblanadi. Shahar kommunal xo‘jalik tizimi nafaqat aholining farovon yashashi uchun shart-sharoit yaratuvchi, balki barcha turdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari, ijtimoiy soha va ma’muriy boshqaruv tizimi korxona va tashkilotlariga turli kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar majmuasidan tashkil topadi. Yuridik mavq’ega ega bo‘lgan har qanday

korxona o‘z faoliyatida kommunal xizmatlarning u yoki bu turlaridan foydalanadi[19].

(AUJKXKT) ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tizimiga davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlarining manfaatlari hamda o‘zaro hamkorligi, kommunal xizmatlar iste’molchisi sifatida esa korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlar hamda aholi kiradi[20]. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishda keng ko‘lamli tadbirlarni o‘z ichiga oladi va ular uchta sektorga bo‘linadi. Birinchidan, turar-joy majmuasi, ko‘chmas mulklarni (maishiy xizmat, savdo va ofis binosi, dam olish, ta’lim muassasalari, madaniy-ma’rifiy va sog‘liqni saqlash muassasalari va h.k.) normal ishlashini ta’minlaydigan xizmatlar. Ikkinchisi, qulay yashash sharoitlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan resurslarni (suv, issiqlik, elektr-energiyasi, gaz) ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan shug‘ullanadigan kommunal xizmatlar. Uchinchisi, shahar atrof-muhitini yaxshilashning zarur darajasini ta’minlash uchun barcha ishlarni amalga oshiruvchi kompleks majmui (shahar yo‘llari va ko‘priklarni qurish hamda ta’mirlash, obodonlashtirish, landshaftni saqlash, sanitariya-gigiena holatini tozalash, dam olish va h.k.) va maxsus xizmatlar (aholi uchun marosim xizmatlari) bilan ta’minlashdir.

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishning asosiy vazifasi aholi turmush farovonligi darajasini oshirish, tizim infratuzilmasini samarali, barqaror va ishonchli ishlashini ta’minlash orqali shakllantirilishi mumkin. Buning uchun, kommunal xizmatlarning sifatini yuksaltirish va aholini ijtimoiy himoya qilish bilan birgalikda erishish mumkin.

Vaqt jamiyatining rivojlanishining turli davrlarida infratuzilmaning turli roli bilan belgilanadi. Shunday qilib, A.Smitning fikriga ko‘ra, infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Ammo, uning tadqiqotida “XIX asr davomida va XX asrning aksariyat qismi infratuzilmani kamdan-kam qiymat

[19] В.У.Ёдгоров, Д.Я.Бутунов Уй-жой коммунал хўжалиги иқтисодиёти ва бошқаруви. Дарслик. Тошкент. 2012 йил. 17 бет.

[20] Скрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. ISBN 978-5-279-03540-3 Москва: Финансы и статистика, 2013 г., 288 с.

yaratishning elementi sifatida ko‘rilgan. Misol uchun, K. Marks, L.Valras, A. Marshall, J.M. Keynes, E. Domar mahsulotni yaratishda faqat mehnat va kapitalni o‘z ichiga oladi, ikkinchisi asosan xususiy kompaniyalarning poytaxti hisoblanardi”[21]-deb takidlagan.

Faqatgina XX asrning 70-yillarida kommunal xizmatlarning ahamiyati haqida gapirila boshlandi. P.Rosenstein-Rodan kommunal xizmat infratuzilmasi yanada yaxshi ishlashi uchun sohaga e’tibor qaratish va sharoit yaratish lozimligini isbotladi[22].

Jahon banki mutaxassislari uy-joy kommunal xizmat infratuzilmasi omillarining ta’sir qilishini kengaytirdi. Bular quyidagilardan iborat:

– uy-joy kommunal xizmatlar tizimi iqtisodiy o‘sishning asosiy omili hisoblanadi;

– uy-joy kommunal xizmatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi va mamlakatda aholi turmush farovonligini oshiradi;

– uy-joy kommunal xizmatlar mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida globallashuv imkoniyatlarini amalga oshirishga imkon beradi;

– uy-joy kommunal xizmatlar mamlakat rivojlanish natijalarini oshirishga va daromadlar bo‘yicha tengsizlikni kamaytirishga imkon beradi[23];

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi va yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari funksiyalari mavjud shuningdek, boshqa infratuzilmalarni amalga oshirmayotgan vazifalarini ham bajaradi. Kommunal xizmatlar har xil iqlim sharoitida insonning ishchi kuchi qobiliyatini tiklash va saqlab turishini ta’minlaydi. Uy-joy kommunal xizmatlar – mehnatning mahsuli va hayotni qo‘llab-quvvatlashning shartidir, bu odamning pozitsiyasini kengaytirib, yashashning ijtimoiy va ijtimoiy jihatdan zarur bo‘lgan ehtiyojlarini qondirib, farovonlik darajasini ta’minlashga imkon beradi.

---

[21] Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Издателсво: Гелиос, 2002. – С.422.

[22] Rosenstein - Rodan P N, "Pioblems of Industnalization of Eastern and Souththern Europe", Economic Journal (June - September 1983)

[23] Россияда инфратузилма бўшлиқларини бартараф этиш. http //web woi ldbank org

Shunday qilib, funksional yondashuvga koʻra uy-joy kommunal xizmatlar infratuzilmaning asosiy funksiyalarini aniqlashga imkon beradi: muvofiqlashtirish va ragʻbatlantirish funksiyalari, reproduktiv, axborot, ijtimoiy, nazorat va innovatsion funksiyalar shular jumlasidandir. Infratuzilmaning ikkinchi xususiyati kapitalni tiklash xususiyatlari bilan bogʻliq[24]. Zamonaviy adabiyotda infratuzilmaning mohiyatini aniqlash uchun koʻplab yondashuvlar mavjud, ammo iqtisodiyotning oʻziga xos institutsional muhiti va boshqaruvning muayyan usullari bilan infratuzilmani sektorlar sohasini tizimli tushunish hali ham mavjud emas. Zamonaviy nazariy pozitsiyalardan, infratuzilmani “maxsus” investitsiya turi deb atash mumkin[25]. Hozirgi kunda ushbu yondashuv mintaqaviy iqtisodiyotda faol qoʻllanilmoqda. Jahon bankining kommunal xizmatlar sohasini rivojlanish uchun hisobotida “Infratuzilma koʻplab tadbirlar uchun umumiy tushunchadir “sosial overhead sapital” (ijtimoiy ustama kapitali). Xuddi shu maqolada, mualliflar aniq belgilangan tushunchaning yoʻqligi haqida yozadi “sosial overhead sapital” (ijtimoiy ustama kapitali) u barcha tegishli faoliyat uchun oʻziga xos texnologik (oʻlchov iqtisodiyoti) va iqtisodiy xususiyatlarini (ijobiy tashqi ta’sirlarni) aniqlashga toʻsqinlik qilmaydi.

Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish tizimi murakkab uch darajasini oʻz ichiga oladi. Birinchisi, mahsulotlar yetkazib berishni ta’minlovchi haqiqiy moddiy tarmoqlardir. Ikkinchisi – infratuzilma tarmogʻining faoliyati. Uchinchisi – kommunal xizmatlarga boʻlgan talab va taklif muvofiqlashtirilgan infratuzilma bozori. Bozor ta’minoti yetkazib berish zanjirlarining hajmiga bogʻliq[26]. Ba’zan, toʻrtinchi element – tabiiy monopoliya tarkibiga kiradigan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishdir[27] degan

---

[24] Скрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. ISBN 978-5-279-03540-3 Москва: Финансы и статистика, 2013 г., 288 с.

[25]Рус тилига таржима қилинган атамалар инглизча-рус луғатида "капитал, ижтимоий инфратузилмага сармоя ётқизиш "ёки умуман ижтимоий нафаqа тўлаш сармояси.

[26] Кокорев В. Институционалная реформа в сфере инфраструктуры в условиях естественной монополии. Вопросы экономики 1998 N4

[27] Городецкий А. Павленко Ю. Табиий монополияларни ислоҳ қилиш// Вопросы экономики 2000 N 1 С. 137- 138

fikrlar ham mavjud. Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha kommunal xizmat ko‘rsatish to‘rtta kichik tarmoqdan iborat: uy-joy kommunal xizmati, resurs ta’minoti kommunal xizmati – issiqlik ta’minoti kommunal xizmati, elektr ta’minoti kommunal xizmati, suv ta’minoti kommunal xizmati, kanalizatsiya ta’minoti kommunal xizmati, obodonlashtirish kommunal xizmati (yo‘l va ko‘prik zavodlari, bog‘dorchilik, sanitariya, chiqindilarni yo‘q qilish), maishiy xizmatlar (hammom va kir yuvish vositalari, mehmonxona binolari, marosim xizmatlari).

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmalarining asosiy sub-sektori sifatida aholi yashovchi uy-joylari quyidagi xususiyatlarga ega:

Murakkablik va noaniqlik. Hozirgi paytda har bir mulk majmuasining tarkibiy qismlari (masalan, yer uchastkasi va u yerda joylashgan ob’ekt) tovar sifatida ajratilgan vaziyat yaratilgan.

Uzoq muddatli. Joylashuvi, tabiiy-moddiy tavsifi, arxitektura-rejalashtirish va konstruktiv-texnologik yechimlar bilan bog‘liq bo‘lgan eksklyuzivlik, shuningdek, vaqtinchalik va insoniy omillardir. Ob’ektning o‘ziga xosligi yoki eksklyuzivligi ma’lum bir ism, muhim (tarixiy) hodisalar bilan bog‘liq bo‘lsa va aksincha, ob’ekt vaqt faktorining (odatda rejalashtirilgan loyiha) afzalliklari bo‘lmasa, kommunal xizmatlar kamayadi[28].

Yuqori sarmoya intensivligi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini yaratish bilan bog‘liq shuningdek, yuqori xarajatlar, tovarni sotuvchidan xaridorga topshirishning tayyorlash bosqichi va bozor munosabatlari natijasida uy-joylarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning uzoq muddatli davri bilan bog‘liq.

Jarayonning istalgan bosqichida mahsulotning xususiyatlarini olish loyihaning boshidan tortib to oxirigacha bo‘lgan turar-joylarni yaratish va ishlatish foydalanish kunlari quyidagi:

---

[28] Захаров А.О. Совершенствование управления фирмой, предоставляющей услуги на рынке недвижимости, на основе сбалансированной системы показателей автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук / Российская академия государственной службы при Президенте Российской Федерации. Москва, 2006

1) Tovar sifatida kommunal xizmat va uy-joy sifatidagi sifat parametrlari o‘rtasidagi miqdoriy xilma-xillik;

2) Iste’mol turmush tarziga yo‘naltirishga bo‘linadi.

Shuningdek, boshqa mahsulotlarga qaraganda past likvidlik talab va taklifning kechikishi bilan bog‘liq. Uy-joy fondlari uning iste’molchi funksiyalarini xizmat ko‘rsatish uchun tegishli xizmatlarni taqdim qilmasdan amalga oshirmaydilar.

Shuning uchun aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi kompleksi bozorining infratuzilmasida ikki darajasi bor. Mahalliy darajada issiqlik ta’minoti uy-joy kommunal xizmati, suv ta’minoti va kanalizatsiya kommunal xizmati, jamoaviy korxonalari. Xizmatlarni taqdim etish, xususan, issiqlik ta’minoti kommunal xizmati, suv ta’minoti va kanalizatsiya kommunal xizmatlarini tashkil etish, ta’minlash, rivojlantirish, mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni hal qilinishi kerak.

Milliy (davlat) darajasida elektr va gaz ta’minoti korxonalari mavjud. Bugungi kunda infratuzilma tarmoqlari, ob’ektlar va korxonalar mulklari boshqacha tarzda hal qilinadi. Korxona va kommunal korxonalarning aksariyat qismi mulkni iqtisodiy maqsadlarga yo‘naltirilgan, sanoat korxonalari uchun mo‘ljallangan va budjet muassasalari uchun tezkor boshqariladigan unitar korxonalarning tashkiliy-huquqiy shaklida mavjud. O‘ziga tegishli sanoatning texnologik xususiyatlari va hududlar uchun zamonaviy hayotni qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish shartlari, uy-joy kommunal xo‘jaligi korxonalarining aksariyati va birinchi navbatda resurslarni tarmoqqa yetkazib berish bilan bog‘liq, ular o‘zlari xizmat qiladigan hududda monopolistik mavqega egadir[29].

Tarmoqli yondoshuv nuqtai nazaridan, turar-joy kommunal xo‘jaligi resurslarini yetkazib beruvchi tarmoqlar bir qator ob’ektiv talablar tufayli yuqori monopollashtirilgan:

[29] Скрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. ISBN 978-5-279-03540-3 Москва: Финансы и статистика, 2013 г., 288 с.

Kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilma – bu tizim mahsulotlarini yetkazib berish, xizmat ko‘rsatish bir-biridan uzoqda joylashganligi shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan foydalanadigan tarmoq hisoblanadi. Asosiy tabiiy ravishda kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi tarmoqlarining xususiyatlari monopolistik hisoblanadi, birinchidan texnologik noyoblik (tizim muhandislik kommunikatsiyalari va ob’ektlarining mavjudligi), yuqori ishlab chiqarish sarmoyalarining intensivligi; ikkinchidan, bo‘shliq almashtirishning mumkin emasligi bilan bog‘liq bu xizmatlarni iste’molchilarga o‘sishidan kelib chiqqan holda bir joyda saqlash ushbu xizmatlarni boshqa joyda sotish; uchinchidan, uzluksizligi yoki qat’iylik bilan ishlab chiqarish, uzatish va iste’mol qilish jarayonlari ketma-ketligi talab qilinadigan xizmatning moddiy tashuvchilari ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida iqtisodiy munosabatga kirishishidir.

Iste’molchini texnologik bog‘lash. Mavjud kommunal xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va iqtisodiy hamda texnologik xizmat ko‘rsatish imkoniyatini bog‘lashning iloji yo‘q. Bir uyni isitish uchun xizmat qilayotgan qozonxona bu uyning tabiiy monopolistidir, hatto uning dizayni quvvati iste’molchilarga optimal xizmat ko‘rsatishga imkon beradi shuningdek, uy-joy yashovchilari qo‘shni qozonxonaga ikki nusxadagi isitish quvvati qurish uchun juda qimmatga tushadi. Ya’ni, iste’molchini ishlab chiqaruvchiga texnologik bog‘lagan bo‘lsa, u holda iste’molchi uchun tanlov yo‘q.

Texnologik jihatdan tabiiy monopoliya turli xil korxonalar o‘rtasidagi munosabatlar va yaqin aloqalar sharoitida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar (birinchi navbatda energiya ta’minoti kommunal xizmati, gaz ta’minoti kommunal xizmati, suv ta’minoti kommunal xizmati) majmuidir. Bu esa, ulardan birining ishida har qanday jiddiy buzilishning sababini keltirib chiqarish ehtimoli yuqori koifsentda turadi. Bunday hollarda zanjirning notekisligining salbiy oqibatlariga olib keladi hamda barcha iste’molchilar uchun noqulay jarayonlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Aholining kommunal xizmatlariga kundalik talabi va davlat kommunal xizmatlarini ishlab chiqarish hamda iste'mol qilishning mahalliy jarayoni, kommunal xizmatlarni tashqaridan yetkazib bera olmaslik yoki turar joydan tashqariga yo'naltirishga asoslanganligi muhimdir. Bu kommunal xizmatlar kompleksini tashkil etish zaruriyatini joyida yuzaga keltiradi, uning hajmi va ahamiyatidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Kommunal xizmat ko'rsatuvchi korxonalarga iste'molchining teskari iqtisodiy ta'sirining yo'qligi iste'molchilar tomonidan xizmatlar ko'pincha iste'mol xususiyatlariga bog'liq emasligi va xizmat ko'rsatuvchi moddiy tashuvchining (suv, elektr-energiyasi, gaz ta'minoti kommunal xizmati va boshqalar) sotish hajmining yalpi ko'rsatkichi bilan belgilanadi.

Tashqi ta'sir. Masalan, suv ta'minoti korxonalari ikki turdagi xizmatlar – suv ta'minoti kommunal xizmati va kanalizatsiya kommunal xizmatlarini taqdim etadilar, bu esa suvning alohida foydasi bo'lib, suvni utilizatsiya qilish ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu sog'liqni saqlash, ta'lim va atrof-muhitga ta'siri orqali tashqi ta'sirga olib keladi.

Oportivist tavakkalchilik xavfi. Korxonalar ko'plab o'ziga xos tavakkalga, shu jumladan, investitsion nizolarga olib keladigan opportunistik xulq-atvorga duchor bo'ladi, ularning soni ko'payadi[30]. Bu shartlar ushbu tarmoqlarga xususiy kapitalni samarasiz jalb qilishga va davlatni tartibga solish zarurligiga olib keladi[31].

Ta'kidlangan xususiyatlar aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimi tuzilmasida aks ettirilgan. Kommunal xizmatlar kompleksining tarmoq tuzilmasi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning umumiy konfiguratsiyasini shakllantirib, aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimi bozorida ishtirokchilar tarkibini bir-biriga nisbatan joylashtirilgan holda belgilaydi.

Bu uchun quyidagilar shakllanishi kerak:

---

[30] www.unctad.org/iia.

[31] Carlos A. Chavez and Miguel A. Quiroga Regulatory schemes for water provision in theory and practice// Background Document Second Meeting on Tariff Reform in Urban Water Sector Reform of the N!S Moscow, Russian Federation, June 2-4, 2002

1. Uy-joy kommunal xizmati siyosatida bir xil ijtimoiy va moliyaviy siyosat, normativ va texnologik talablar, resurslarni taqsimlash tamoyillari, texnik xizmat ko‘rsatish uchun ish haqi miqdorini hisoblash va boshqalarni uy-joy fondining egalari tomonidan amalga oshirish lozim.

2. Boshqaruvchi tashkilotlar (tanlov asosida amalga oshiriladi):

Nazorat organi. A.Shastitko ta’kidlaganidek, bu yerda imkoniyati bor davlat tomonidan tartibga solish usullaridan foydalanish hamda o‘sishni ta’minlaydigan bozorda ishonchli majburiyatlarni shakllantirish uning faoliyati samaradorligini belgilaydi. Shu bilan birga, byurokratik boshqaruvni qo‘llamaslik va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ushbu darajadagi bozor ishtirokchilari manfaatlarini himoya qilish uchun nazorat qiluvchi tashkilotlar, kommunal xizmatlarni iste’mol qiluvchilari vakillarini o‘z ichiga olishi kerak, chunki birinchi va ikkinchi turdagi xatolar bo‘lish ehtimoli optimallashadi.

3. Iste’molchilar. Hozirgi vaqtda ushbu xizmat O‘zbekiston kommunal xizmatlari bozorida shakllanmagan. Kommunal xizmatlar iste’molchilarining shakllanishi kommunal xizmatlar bozorini isloh qilishning istiqbolli yo‘nalishi sanaladi. Tizimda XUMSh ishtirok etishning asosiy sabablari orasida ular ajralib turadi. Chunki, ular kommunal xizmatlarning faoliyatini nazorat qilish, sifati va hayotiy xavfsizligini ta’minlashdan iborat.

Uy-joy mulkdorlari shirkati, turar-joy boshqaruvchi tashkilotning huquq va majburiyatlari kommunal xizmatlarni iste’molchilar bilan bo‘lgan munosabatlariga kiradi va tomonlarning majburiyatlari sifatida shartnoma asosida aniqlanadi.

Uy-joy kommunal xizmatlari subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimi quyidagicha (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm. Uy-joy kommunal xizmatlari subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimida kommunal xizmatlar bozorining tarmoq tuzilishi[32]

Hokimiyat (vakolatli shaxslar tomonidan) – ko‘p qavatli uylarda joylashgan xonadon egasi shirkatning nafaqat mulk egasi, balki uy-joy mulkdorlari shirkatlari ham bo‘lishi bilan bog‘liq. Bir tomondan, boshqaruv tashkiloti bilan hokimiyat o‘rtasida turar-joy binosining boshqaruv shartnomasi (komissiya, agentlik) ushbu uy egalarning har biri bilan bitimga muvofiq tuziladi. (1.2.2-rasm).

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi islohotlarining natijalarini tahlil qilish biz qabul qilgan qarorlar va harakatlar yetarli darajada samarasiz va yakunlanmagan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bu munosabatlar tizimidagi o‘zgarishni talab qiladi.

Shunga o‘xshash mexanizmlarni amalga oshirish bozorga bir vaqtning o‘zida iste’molchi bo‘lib xizmat qiluvchi xaridorni shakllantirish va yetkazib berish imkoniyatini beradi. Bunday mexanizm kommunal xizmat ko‘rsatish tizimidagi munosabatlar tizimida shahar va xususiy

[32] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

mulk egalari xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarni energiya samaradorligini oshiradi. Natijada ko‘rib chiqilayotgan mexanizmda subsidiyalar yo‘qoladi hamda xarajatlar tejalishi kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilishda kapital qo‘yilmalar uchun kompensatsiya manbaai bo‘ladi.



1.2.2-rasm. Uy-joy mulkdorlari, boshqaruvchi tashkilotlar va shahar hokimi o‘rtasidagi munosabatlar[33]

Keyinchalik aholining kommunal xizmatlarga haq to‘lash qobiliyati va istaklari chegara qiymatlaridan ortib ketadigan ta’riflarni oshirish siyosatidan voz kechish mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari aksariyat hududlardagi mahalliy monopoliyaga egaligini ko‘rishimiz mumkin. Bular: resurslarni tarmoqqa yetkazib berish operatsion xarajatlar tarkibida katta hajmdagi ulush barqaror xarajatlar bilan qoplanadi, uy-joy kommunal xizmatlarining xususiyatlari va iste’molchini ishlab

[33] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

chiqaruvchilarga texnologik bog‘lanishi shuningdek, iste’molchining xizmat ko‘rsatuvchi provayderga iqtisodiy ta’sirining yo‘qligidir.

Tadqiqotimiz natijasi aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi xo‘jaligini mintaqaviy iqtisodiyot sohasi sifatida ko‘rib chiqishga imkonini yaratdi, bu alohida institutsional muhit va boshqaruvning o‘ziga xos usullari bo‘lib, u kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini isloh qilishning maqsadi va usulini aniqlaydi.

Bizga ma’lumki, har qanday jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarishni yuksaltirish iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi. Shu sababli ham iqtisodiyotni tubdan isloh qilish sharoitida uning samaradorligini oshirish jiddiy masalalardan biri hisoblanadi.

Buning uchun, samaradorlikning umumiy holati, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik – chegaralangan resurslardan oqilona foydalangan holda aholining ijtimoiy, iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy darajasini yuksaltirishdir. Ish – inson kamolotini yuksalish, moddiy va ijtimoiy farovonligini o‘sishida, madaniy va ma’naviy jihatdan rivojlanishida ko‘rinadi. Inson farovonligi hamda kamoloti naqadar yuksalsa, shu qadar yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishgan bo‘ladi[34].

Ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiyot tarmoqlaridagi samaradorligini o‘rganishda uning mezonlari va ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri tushunish va hisoblab chiqish katta ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, muhim masalalardan biri bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni har tomonlama chuqur o‘rganish va tushunish uchun alohida ijtimoiy, iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish kerak. Lekin bunda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liq emas, degan fikr kelib chiqmaydi. Aksincha, ular uzviy bog‘langan va bir-birini taqozo qiladi, to‘ldiradi.

[34] Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti (oliy o‘quv yurtlari uchun darslik) T.: Fan, 2005. – B.122-123.

Iqtisodiy samaradorlik sifat jihatidan hisoblab chiqilmasa va o‘lchanmasa, uni muntazam oshib borishi bo‘yicha belgilangan ishlarni bajarib bo‘lmaydi.

Iqtisodiy samaradorlikning o‘sishi – ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning har qanday shakli rivojlanishini ob’ektiv qonuniyatidir, chunki jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmi va sifati ortishini, ishlab chiqarish va muomala, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun jamg‘arishni ko‘paytirishni talab etadi. Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini kompleks tahlil qilish faqat samaradorlik mezonini o‘z ichiga olish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Chunki mezon asosan samaradorlikni oshirishning mohiyatini va asosiy vazifalarini ifodalaydi, lekin o‘lchov hamda baholash vositasi bo‘lib xizmat qila olmaydi. Bu vazifani iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari hal qiladi. Bu o‘z navbatida samaradorlikni oshirish iqtisodiy samaradorlik xo‘jalik yurituvchilar faoliyati natijasini aks ettiradi. Ijtimoiy samaradorlik esa iqtisodiy subyektlarning ijtimoiy samaradorligini, uni jamiyat hayotining turli tomonlariga ta’sirini aks ettiradi. Bunda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik muayyan darajada o‘zaro bog‘liqdir.

Ijtimoiy samaradorlikka erishish – insonlarning ijtimoiy yashash sharoitlarini yaxshilanib borishi bo‘lib, u iqtisodiy samaradorlikni oshirishga imkon yaratadi. Oqibatda u insonning mehnat qilish qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatib, uning mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun moddiy asos zarur. Bu moddiy asos korxonalar faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish orqali erishiladi. Demak, xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyatning yangicha mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: faoliyat samaradorligi samaradorlik tushunchasining mohiyati yoki mazmuni bilan o‘lchanmaydi, balki ijtimoiy samaradorlikni tashkil qiluvchi ko‘rsatkichlar orqali belgilanadi. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi ko‘rsatkichlarga nisbatan kengroq mazmunga ega. Samaradorlikni tashkil etuvchi sifatiy holatlarni

o‘zgarishi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samaradorligini baholash zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bilan umumiy qabul qilingan nuqtai nazarga ko‘ra, ijtimoiy samaradorlikni aniq miqdoriy o‘lchovga tushirib bo‘lmaydi. Shunday kilib, an’anaviy tarzda samaradorlikni faqat iqtisodiy tabiatini aks ettirish mumkin, uning ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini miqdoriy mezonlar bilan o‘lchash murakkabdir. Bunday nuqtai nazar hozirgi davrda iqtisodiy fanlarda keng tarqalgan. Shu bilan birgalikda, xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti sharoitida samaradorlikni baholash muammosi yechimiga bog‘langan ilmiy tadqiqotlar dolzarb bo‘lib bormoqda va bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarga talab, bizning fikrimizcha, ancha yuqoridir.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotining shakllanishi bilan faoliyat samaradorligini baholash masalalari tadqiqotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biz ham o‘z tadqiqotimizda ushbu masalaga o‘z e’tibormizni qaratmoqchimiz. Buning uchun birinchi navbatda samaradorlik tushunchasiga va uning ta’rifiga e’tibor berish maqsadga muvofiq. Samaradorlik tushunchasi murakkab tushuncha ekanligini e’tirof etib, ilmiy adabiyotlarda (efficieny – inglizcha) bir nechta tarjimaviy talqinga ega, bir muncha keng tarkalgan «efficieny» iborasini samaradorlik, harakatchanlik, mahsuldorlik, harakatchanlik qobiliyati, operativlik[35] kabi tushunchalar bilan izohlash mumkin. Hozirgi vaqtda samaradorlikni ko‘plab ta’riflari nafaqat iqtisodiyot fanlarida, balki boshqa fanlarda ham keltirilgan.

Iqtisodiyot fanlarida «samaradorlik» tushunchasi keng va tor ma’noda talqin qilinadi. Keng ma’noda «Samaradorlik» tushunchasi – atrof muhitga samarali va adekvat yondashuv qobiliyati[36], nisbiy samara, operatsiyalar va loyihalar[37] sifatida talqin qilinadi.

Samaradorlik mohiyatini aniqlashning yuqoridagi ta’rifini qaraydigan bo‘lsak, uning bir qancha resurslari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki bu tushuncha bir qancha mezonlar, xususiyatlar orqali ifodalanishi mumkin. Shuningdek, samaradorlik

[35] Мюллер Д.К. – Англо-русский словар М.: «Русский язык» 1992 . –С. 233-234.
[36] Кравченко С.А. Социально-экономический русско-английский словар –М.: Астрел, 2004. –С. 511.
[37] Борисов А.Б. Болшой экономический словар/А.Б. Борисов – М.: Книжный Мир, 1999. –С. 825.

kategoriyasi iste’molni qondirish sifatida ham, ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi sifatida ham, korxonalarning samarali shakllanishi sifatida va hokazo ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Samaradorlikni hisoblashni boshqa usuli minimal zaruriy resurslarni (mo‘ljallangan mahsulotni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan) foydalanish uchun zarur bo‘lgan resurslar miqdoriga nisbati sifatida amalga oshiriladi[38]. Yuqoridagi tarifga asosan samaradorlik ko‘rsatkichini hisoblashning umumiy formulasi quyidagicha:

$$E = \frac{E_t}{E_p} \qquad (1.1);$$

Bu yerda: *Yet* – erishilishi lozim bo‘lgan natija

Yer – maqsadli natija

Maqsadga muvofiq yondashuv doirasida samaradorlikni quyidagi ko‘rinishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– tashqi samaradorlik (tashkilot tashqi imkoniyatlaridan foydalanish nuktai nazaridan samaradorlik)-uni hisoblash oldindan rejalashtirilgan natijalarni biror bir jarayonni bajarilishi orqali olingan natijalarga nisbati sifatida aniqlanadi:

– ichki samaradorlik (tashkilotning ichki imkoniyatlaridan foydalanish nuqtai nazaridan samaradorlik)-uni hisoblash minimal zarur resurslarni foydalanishga mo‘ljallangan rejalarga nisbati sifatida amalga oshiriladi.

– umumiy samaradorlik, (tashqi va ichki samaradorlik asosida aniqlanadi).

Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning samarali amal qilishi bir qator omillarga bog‘liq. Bizning nazarimizda, kommunal xizmatlar sohalarida xizmat ko‘rsatishning boshqa sohalariga nisbatan past darajada rivojlanishiga bir qator omillar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, tizim subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar ularning huquqlari va majburiyatlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalardir.

[38] Управление и организация в сфере услуг: теория и практика»: Servise menedjment and Operation – 2-е межнарод изд. (пер.с англ нар.наук ряд. В.В. Кулибановой) / К.Хаксивер, Б.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик –спб и.др: Питер бух. 2002. –С. 496.

Tahlillar mintaqaning kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini o‘rganishning muhim metodologik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi, kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini boshqarish, kommunal xizmatlar ko‘rsatish sohasida boshqa xizmatlarning ajralmasligi, ijtimoiy ahamiyati va raqobatning rivojlanish darajasi kabi omillar shular jumlasidan. Shuningdek, tizimda faoliyat yurituvchi subyektlarning aniq tasnifi mavjud emas. Shu maqsadda, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi tasnifi ishlab chiqildi (1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi tasniflanishi[39]

№	Tasnifiy belgilari	Tasniflanishi
1.	Faoliyat turiga ko‘ra	- ishlab chiqarish - xizmat ko‘rsatish
2.	Mulk shakliga ko‘ra	- davlat mulkiga asoslangan - jamoa mulkiga asoslangan - xususiy mulkka asoslangan - aralash mulkka asoslangan
3.	Joylashuviga ko‘ra	- shaharlarda - qishloqlarda
4.	Tashkiliy tuzilishiga ko‘ra	- tizimli - mustaqil
5.	Faoliyat muddatiga ko‘ra	- doimiy - mavsumiy

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligining ajralmas ko‘rsatkichi korrelyatsion ta’sir quyidagi birlashtirilgan elementlar bilan tavsiflanadi (1.2.2-jadval).

Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligi ko‘rsatkichlarini takomillashtiri natijasida soha faoliyati samarali ishlash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Natural shakldagi kommunal xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichlari hozirgi vaqtda amalda bo‘lib, bizning tadqiqotlarimiz natijasida ushbu ko‘rsatkichlarni

[39] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

“Natural” guruhga keltirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Chunki, bo‘ ko‘rsatkichlar tizimi amalda bo‘lib statistik ma’lumotlar olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2.2-jadval

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligi ko‘rsatkichlari[40]

Shakli	Mazmuni	O‘lchov birligi
Natural	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan elektr-energiya	kVt/soat
	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan gaz ta’minoti	m/kub
	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sovuq suv	m/kub
	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan issiq suv	m/kub
	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan maishiy chiqindi	kishi boshi bo‘yicha
	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan uy-joy fondi	kv/m
Qiymat	Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi hisobiga olingan yalpi daromad	so‘m
	Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi hisobiga olingan sof foyda	so‘m
	Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga jalb qilingan investitsiyalar qiymati	so‘m
	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan kommunal xizmat ko‘rsatish qiymati	so‘m
	Kommunal xizmat ko‘rsatish xizmat birligi hisobiga yaratilgan qo‘shilgan qiymat	so‘m
Nisbiy	Kommunal xizmat ko‘rsatishning sifat darajasi	%
	Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi	%
	Kommunal xizmat ko‘rsatish rentabilligini beradigan (samaradorlik, foydalilik) daromadli kommunal xizmatlar	%
	Kommunal tizimda xizmat turlari xarajatlari ulushi	%
	Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida raqamli raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi	%

[40] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, boshqa turdagi ko‘rsatkichlar tizimi ham mavjud bo‘lib, soha faoliyatida kommunal xizmat birligiga yaratilgan qo‘shimcha qiymat, kommunal xizmat ko‘rsatish jarayonining texnologik darajasi hamda tarmoq rentabelligi ko‘rsatkichlar tasnifini bildiradi. Bu ko‘rsatkichlar tarkibini qiymat va nisbiy ko‘rsatkichlar shakliga bo‘lish kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi faoliyat ko‘rsatadigan, boshqaradigan, iste’mol qiladiga sb’ektlar faoliyatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.3. Kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzulmasini rivojlantirishni xorij tajribasi

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning o‘rni beqiyosdir. Butun jahonda globallashuv yuzaga kelishi oqibatida katta miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni vujudga keltirdi. Ta’kidlash joizki, hzorigi globallashuv munosabati bilan joriy etilgan karantin tadbirlari nafaqat mamlakatimizdagi iqtisodiy munosabat ishtirokchilarini balki xalqaro tijorat munosabatlari subyektlarining ham shartnomaviy majburiyatlariga tizimiga daxl soldi. Bu jarayonda iqtisodiy resurslardan, mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan taklif va tavsiyalar bo‘yicha qaror va farmonlarning qabul qilinishi hamda ushbu me’yoriy xujjatlarni amaliyotga joriy etilishi mavjud muammolarning yechimi deb hisoblasak bo‘ladi.

Shu maqsadda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev tomonidan 2020-yil 5-oktabrda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Farmoni qabul qilindi. Farmonga binoan “aholiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish”[41] kabi imtiyozlar yuridik va jismoniy shaxslarni xarajatlarini kamaytirish, ularning pandemiya

[41] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev tomonidan 2020-yil 5-oktabrda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” PF-6079-son Farmoni. T: www.lex.uz.

sharoitida inqirozsiz chiqib olishi, mamlakatimiz aholisini farovon turmush kechirishida muhim hissa qo‘shishi mumkin. Hamma sohada kechayotgan inqiroz kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini ham chetlab o‘tmagani kommunal to‘lovlar dinamikasi o‘tgan yilining shu davriga nisbatan -7 % pasayishi fikrimiz tasdig‘idir. Ushbu muammoni yechimi sifatida kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish, mavjud texnika va texnologiyalarni modernizatsiya qilish va xorij tajribalarini o‘zlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bizga ma’lumki 1990-yillarda ko‘plab xorijiy mamlakatlarda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida fundamental o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shu qatorda ushbu soha iqtisodiyotning tabiiy monopoliya qismini tashkil qilardi. 1990-yillarda Argentina 1990-yil Skandinaviya davlatlari, 1992-yil AQSh, 1995-yil Braziliya, 1995-yil Tailand, 1996-yil Ukraina, 1997-yil Qozog‘iston, 1998-yil Italiya, Vengriya va Moldova, 1999-yil Fransiya, Gresiya va 2000-yilda Janubiy Afrika davlatlari kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi islohotlarning tadbiq etishgan. Xususan, iqtisodiyotni rivojlanishi, sanoatlashtirish va iqtisodiy tizimning innovatsionligi darajasidagi farqlar kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini tizimli ravishda o‘zgartirishga bir necha ilmiy va metodologik yondashuvni belgilab berdi va bular Franko-Skandinaviya (golland) va Angliya-Amerika yondashuvlari[42].

Maqsadli boshqaruv tizimi (Franko-Skandinaviya va Gollandiya yondashuvlar) uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy usullarning kombinatsiyasiga asoslangan[43]. Gollandiyada kommunal xizmat ko‘rsatish tizimidagi muammoni hal qilish aholini manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish, shuningdek, davlat tomonidan tartibga solishni va xususiylashtirish tashabbusini qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash bilan keng ko‘lamli ijtimoiy shaharsozlik tajribasini yaratish va o‘z kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi manfaatlarini hurmat qilish kabi ishlarni amalga oshirgan (1.3.1-rasm).

---

[42] Реформирование регионалного жилижно-коммуналного комплекса: методология и практика. 09.12.2016 http://ibooks.ru/

[43] Институциолные преобразования ЖКХ и ЖКУ. 29.01.2016. http://elibrary.ru/

Markaziy hukumat, umuman, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish siyosatini belgilaydi va o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun barcha darajadagi ishlarni boshqarishi kerak bo‘lgan asosiy jarayonlarni tashkil etadi. Aksariyat shaharlarning munitsipalitetlari faqat yo‘llar, maydonlar va parklar ostidagi hududlarga egalik qiladi. Shu sababli, har qanday shaharsozlik loyihalari hokimiyat tomonidan yer uchastkasini xususiy mulkdordan sotib olish, uning muhandislik tayyorgarligi, qurilish uchun asbob-uskunalar sotib olish va keyinchalik uni ishlab chiqaruvchiga uzoq muddatli ijaraga berishdan boshlanadi. Shahar hokimiyati davlatdan beriladigan budjet subsidiyalardan erkin foydalanadi.



1.3.1-rasm. Gollandiya uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi[44]

[44] Сикрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. Дисс. на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва 2012 г.113 с.

Yirik shaharlarning hokimiyati (aholisi 30 ming kishidan oshgan) olingan mablag‘larni qaerga yo‘naltirishni hal qilish huquqiga egadir. Bunda aholini kam daromadli turar joy bilan ta’minlash yoki xususiy uy-joy qurishni rag‘batlantirish kabi ishlarni olib boradi. Kichik munitsipalitetlar xarajatlarning qat’iy qoidalariga bo‘ysunadi va ko‘pincha moliyaviy imkoniyatlarini oshirish uchun munitsipal guruhlar tuzadilar[45].

Yuqorida keltirilgan vikrlarga asoslanib yevropa davlatlari uchun kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida kommunal uyushmalarga bir qator imkoniyatlar berilgan bo‘lib uning shakllari o‘ziga xosdir:

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish subyektlari muvaffaqiyatli korporatsiyalarga qarz berish uchun daromaddan foydalanish imkoniyatlariga ega;

– xizmat sifatini yaxshilash maqsadida qimmatbaho uylarni qurish uchun pul sarflashlari;

– uy-joy mulkdorlari shirkati shahar siyosatiga mos keladigan yillik harakat rejasini ishlab chiqishi mumkin.

Shunday qilib, bunaqa imkoniyat va imtiyozlar mamlakatdagi kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida ishtirok etadigan institutlar bozor sektorini mustahkamlash va rivojiga hissa qo‘shadi. Bu holat tizimni iqtisodiy mustaqillikka ega bo‘lishda ustunlik beradi, bu esa iqtisodiy samaradorlikga erishish va kommunal xizmat ko‘rsatish bilan ta’minlanishining ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida qo‘l keladi.

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini tartibga solish tizimi Amerika Qo‘shma Shtatlarida ishlab chiqilgan va keyinchalik amalga oshirilgan. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish mulkdorlari shirkati global va ichki kapital bozorlarga yo‘naltirilgan imtiyozli loyihalarga moliyaviy pul oqimini jalb qilish uchun xususiy kompaniyalar qo‘lida uy-joy fondini qayta tiklash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishlari mumkin. Ushbu

[45] Сикрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. Дисс. на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва 2012 г.113 с.

loyihalarga davlat tomonidan kam daromadli oilalarga kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar nisbatan kamroq va oqilona bo‘lishini talab qilishlari shuningdek, nazorat qilib borishadi.

Buning samarasida davlat, nodavlat, xususiy tashkilotlar va muassasalarning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtiradigan natijani (sifat va miqdor) va xarajatlar (moliyaviy, vaqt va inson) muvofiqligi nuqtai nazaridan samarali ishlashini belgilaydigan kommunal xizmat ko‘rsatish bozorining turli institutsional tuzilmalarini shakllantirishda o‘zaro bir-biridan farqlanishini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Xorij mamlakatlarida aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini isloh qilish tajribasini tahlil qilish uning faoliyatini uchta turini aniqlash imkonini berdi:

– Angliya va Chili uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi ob’ektlarini to‘liq xususiylashtirish yo‘lidan o‘tdi;

– “Fransiya modeli” uzoq muddatli ijara shartnomalari va tegishli investitsiya shartnomalari asosida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga kommunal mulkni va ularni xususiy biznes tomonidan boshqarishni o‘z ichiga oladi;

– Germaniyada kommunal xizmat ko‘rsatish sohadagi korxonalar aksionerlik jamiyatlariga aylandi, ularning asosiy paketi munitsipalitetga tegishli bo‘ldi.

Yevropa mamlakatlaridagi aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish mexanizmlari boshqa mamlakatlar kommunal xizmat ko‘rsatish tizimidan farq qiladi.

XX asrning 80-yillarida ingliz modeli ishlab chiqilgan bo‘lib Britaniya hukumati kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarini xususiylashtirishning asosiy to‘lqinini tartibga soluvchi organlarni yaratish bilan birga, Amerika modeliga qaraganda kamroq byurokratik va shaffofroq bo‘lishi kerak edi. Ushbu qarorni amalga oshirish uchun kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi tomonidan mas’ul shaxs biriktirilib telekommunikatsiya, gaz ta’minoti, elektr-energiya, suv ta’minoti va temir yo‘l transporti tarmoqlarida har bir tartibga solish organlarining faoliyatiga javobgarligini ta’minlaydi. Ushbu g‘oya, vakolatli shaxsni aniq belgilash, unga keng mustaqillik berish,

shuningdek, qaror qabul qilish uchun unga to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olish edi. Shunday qilib iste’molchi kimning shikoyat qilishini va kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda qarama-qarshilik ko‘rsatishni bilishi mumkin edi.

Angliyada davlat uy-joy kommunal xizmatlarining narxi Yevropada eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, fuqarolarning imtiyozli toifalariga limitlar berilgan. Angliyada “uysiz uy” texnologiyalari keng tarqalgan bo‘lib aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 30 % gacha imtiyoz beriladi. Faqat, iste’molchi energiyani tejaydigan lampalardan foydalanishi, minimal energiya sarfini ta’minlaydigan maishiy texnikani ishlatishi, alohida isitish qurilmalaridan foydalanish orqali kommunal to‘lovlarni amalga oshirishi lozim bo‘ladi. Xuddi shunday holat ham boshqa Yevropa mamlakatlarida hamda AQShda ham kuzatilmoqda.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi aholisiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida fuqarolarning 75 yoshidan yuqori qatlami, aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga, nogironlarga temir daftarda turuvchi shaxslarga kommunal to‘lovlarni amalga oshirishida ushbu toifalarga imtiyozlar berish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Ushbu imtiyozlar aholini bu qatlamini hayot faravonligini oshirishda va ularning ijtimoiy qo‘llab quvatlashda muhim o‘rin tutadi. Imtiyozli to‘lov ta’rifiga kommunal to‘lovlarning kamaytirilgan summasini kiritish, yani boshqa to‘lovchilarga nisbatan 25 % kam miqdorda to‘lashi, agarda ushbu qatlam elektr-energiya, gaz va suv tejovchi texnologiyalardan foydalansa ulardan undiriladigan kommunal to‘lovlarni 30% kam miqdorini undirish koronavirus pandemiyasi sharoitida maqsadga muvofiq bo‘lgan bo‘lardi. Bunday ijtimoy qo‘llab quvvatlashni “ijtimoiy ta’rif” deb yuritsak bo‘ladi.

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari uchun ta’riflar va ta’riflarni tartibga solish hududiy organlarning vakolatiga kiradi. Misol uchun, AQShda aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi va ta’riflarni to‘lash qoidalari mahalliy hokimiyat organlarini aniqlaydi. Masalan, Richmond (Virjiniya) shtatida gaz va suv ta’minoti uchun to‘lanadigan imtiyoz

yo‘q, ammo fuqarolar katta miqdordagi resurslardan foydalanish uchun chegirmalar olishlari mumkin.

Kolumbus (Ogayo shtati)da, Richmonddan farqli o‘laroq, iste’mol hajmining ko‘payishi, jumladan, resurslarning sarflanishi misol bo‘ladi. Misol uchun, agar oylik elektr quvvati 700 kv\s dan oshmasa, unda har kilovatt-soatga 7 sent, agar u kattaroq bo‘lsa, 8,7 sentni tashkil qiladi. Shu bilan birga, Kolumbusda 60 yoshdan ortiq ortiq fuqarolar va kambag‘allar suv to‘lovlarini to‘lashda 20% gacha chegirmaga ega bo‘lishlari mumkin. Bryusselda (Belgiya) suv iste’moli bo‘yicha ta’riflar to‘rt guruhga bo‘linadi. Bundan tashqari, suvning sarflanishi qanchalik qimmat bo‘lsa shuncha ko‘p oilalarga imtiyozlar beriladi. Ushbu ta’rif siyosati mintaqada iste’molni kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, buning sababi 90% dan ortiq suv resurslarini Valloniyadan yetkazib berishga bog‘liq bo‘lganligidir.

Tashqi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakatlarda kam ta’minlangan fuqarolar uchun davlat va mahalliy miqdordagi imtiyozlar va subsidiyalarni moliyalashtirish minimal darajadadir. Shu bilan birga, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida moslashuvchan narx siyosati, yuqori darajadagi turmush darajasi va aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi uchun raqobatbardosh bozori fuqarolarning deyarli barcha toifalari ma’lum bir iste’molchilar toifasiga maqbul va qulay narxlarda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi bilan ta’minlash imkonini beradi.

Fikrimizcha, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida ingliz tajribasi O‘zbekiston uchun juda foydalidir. Buyuk Britaniyada kommunal xizmatlarning sifati turli xil o‘lchov ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Angliyada yuzlab shahar kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limlari, avvalo, o‘nta hududiy shirkatlar mulkiga aylantirilib, birlashtirilib, keyin xususiylashtirildi.

Angliyadan farqli o‘laroq, ko‘pgina Yevropa davlatlarida kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi xususiy mulkka o‘tkazilmadi, ammo shahar hokimiyati xususiy kompaniyalarni konsessiya shartnomasi shartlariga muvofiq boshqarila boshladi.

Xorijiy uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida izlanishlarimiz natijasida kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish maqsadida ijtimoiy ijara to‘g‘risida to‘rtta usulni aniqlashga imkon berdi:

– uy-joy fondini saqlash xarajatlariga asosan kommunal to‘lovlarni belgilash;

– uy-joylarning hajmi, sifati va joylashishini hisobga oladigan formulaga muvofiq;

– ijarachining daromadiga nisbatan foiz sifatida;

– uy-joy bilan ta’minlashni ta’minlash uchun chegirmaga asoslangan bozor kursi asosida.

Yevropa davlatlarida birinchi usul ustunlik qiladi. Misol uchun, Fransiyada ijtimoiy uy-joy uchun ijara uyi boshlang‘ich qurilish xarajatlarini va moliyalashtirishni hisobga olgan holda, ijtimoiy uy-joyni ijaraga berish xususiy sektorga nisbatan 30-40 foiz past bo‘lgan formuladan belgilanadi. Ko‘pchilik ijarachilar uy-ro‘zg‘or subsidiyalari olishadi. Ushbu subsidiyalar, o‘rtacha hisobda, eng kam ta’minlangan uy xo‘jaliklarining 10 foiziga ijara haqining 60 foizini qoplaydi[46].

Fransiyada uy-joy kommunal sohasidagi munosabatlar uzoq vaqtdan buyon qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar bilan qattiq tartibga solingan, bu sanoatning to‘g‘ri ishlashi uchun kalit hisoblanadi. Mamlakatning ko‘plab uy-joylari (taxminan 85%) xususiy mulkdir, qolganlari esa ijtimoiy uy-joy hisoblanadi. “Uy-joy-kommunal” budjeti ikki qismga bo‘linadi: texnik (operatsion) va investitsiya (qurilish, infratuzilmani rivojlantirish kommunal xizmatlari). Qonun hujjatlariga muvofiq, ijtimoiy uy-joy aholining ayrim toifalariga imtiyozli shartlarda ijaraga berish shaklida taqdim etiladi: yosh oilalar, yolg‘iz ota-onalar va bakalavrlar, shuningdek nogironlar va qariyalar. Shu bilan birga, ijarachilarning 45 foizi uy-joy bilan ta’minlanadi, ko‘pchilik esa uy-joy kommunal xizmatlarga haq to‘lashda foydalanadi. Kam daromadli oilalarga ijarachilarga ajratiladigan uy-joylar uchun

[46] Скрипник О.Б. Националная и регионалная система управления рисками на рынке жиля россии в условиях кризиса его доступности актуалные проблемы социально-экономического развития россии. 2011. № 4. С. 19-25

subsidiyalar beriladi, bu esa xususiy sektorning ijarachilarining 37 foiziga to‘g‘ri keladi[47].Fransuz modeli markazlashgan bo‘lib uy-joy kommunal xizmatlarning aksariyati davlatga qarashli emas edi, ammo elektr ta’minoti kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi davlat monopoliya tizimi bo‘lib sohani nazorat qilishda davom etmoqda. XX-asrning 80-yillari oxirigacha ushbu davlat korporatsiyalari bevosita vazirlikka bo‘ysunib, boshqaruv kengashi asosan hukumat tomonidan tayinlangan, shuning uchun kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini boshqarish siyosiy darajada qoldi. Baribir, ushbu ixtiyoriy hokimiyat aslida vazirlar darajasida yirik va vakolatli byurokratik bo‘linmalar mavjudligi va davlat korxonalari menejerlarining yuqori malakasi, shuningdek ularning qarorlarini (asosan kasaba uyushmalarini) tekshirish uchun ta’sirchan guruhlarning mavjudligi bilan cheklangan.[48]. Biroq, bu sohalarda ham, mahalliy boshqaruv qarorlari markaziy hukumat darajasida ishlab chiqilgan o‘yin qoidalari (shartnomalarni standartlashtirish va ularni qabul qilish qoidalari) tomonidan qattiq cheklanadi.

Argentina davlati aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini isloh qilishning eng yangi namunasidir. O‘tgan o‘n besh yil ichida bu mamlakatda elektr, gaz, suv ta’minoti kommunal xizmat bilan ta’minlangan barcha ob’ektlar xususiylashtirildi. Bunday holda biz ko‘p qavatli uylarda yashovchilar egalari konsorsiumining borligini qayd qilishimiz lozim. Ahamiyatli jihatlari shundaki, kommunal xizmatlarning teng miqdordagi narxi kvartira soni bo‘yicha taqsimlanadi. Shu sababli, har oyda binoni ta’mirlash bo‘yicha qonun loyihasi qabul qilinadi hamda o‘zgarishlar amalga oshiriladi.Germaniyada tajribasi konstitutsiyasining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, unda mintaqaviy hokimiyat va mahalliy hokimiyat organlariga katta vakolat berilgan. Bunday markazlashmagan tizimning mavjudligi natijasida hukumatning turli darajalarida tartibga

[47] Сикрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. Дисс. на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва 2012 г.113 с.
[48] Фролова Э.Д. Давлат ва бизнес ўртасидаги муносабатларни ривожлантиришнинг асосий тенденциялари / Усту Технологик Университети-УПИ-2003. -Х7.-К.31.

solish organlarining rivojlanishi bo‘ldi. Mahalliy monopoliyaga ega bo‘lgan suv ta’minoti va kanalizatsiya ta’minoti kommunal xizmatlari korxonalari uchun bu katta muammolarni keltirib chiqarmaydi. Elektr ta’minoti kommunal xizmati kabi murakkab va kattaroq tizimlar uchun turli tartibga solish organlarining turli yo‘riqnomalari bilan chambarchas bog‘langan, bu esa vaziyatni potensial raqobatchilar uchun qiyinlashtiradi. Nemis qonuniga binoan, barcha boshqaruv kompaniyalari auditorlik tekshiruvidan o‘tishlari talab etiladi, ular mustaqil auditorni tanlab olish huquqiga ega. Berlin-Brandenburg (Verband Berlin-Brandenburgischer Vohnungsemtemehmen) uy-joy kommunal xizmati mulkdorlari shirkatlari bir vaqtning o‘zida uy-joy kommunal xizmati mulkdorlari shirkatlarining sanoat uyushmasi hamda a’zolari uchun konsalting va auditorlik kompaniyasi hisoblanadi.

Uyushma choraklik yangilanadigan kommunal xizmati sohasida federal va yer qonunchiligining elektron ma’lumotlar bazasiga ega[49].

Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uy-joy binolarni saqlash xarajatlari tarkibida tashkilotning xizmatlarini boshqarish qiymati 6-8% bo‘lishi mumkin, boshqaruv kengashi boshqariladigan shirkatdagi boshqaruv xarajatlarining ulushi 18-20% gacha bo‘lishi mumkin.Uy-joy kommunal xizmatlarning faoliyatida xorijiy tajribani tahlil qilish bizga bir nechta asosiy tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi:

– uy-joy kommunal infratuzilma ob’ektlarini boshqarish tizimini mahalliy hokimiyat organlari darajasiga o‘tkazish bilan markazsizlashtirish;

– suv ta’minoti kommunal xizmati, issiqlik ta’minoti kommunal xizmati, gaz ta’minoti kommunal xizmati va elektr-energiyasi ta’minoti kommunal xizmati sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalarni xususiylashtirish;

– potensial raqobatbardosh sektorlarda raqobatni rivojlantirish maqsadida ushbu bozorda faoliyat yurituvchi kompaniyalar faoliyatini

[49] Сикрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. Дисс. на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва 2012 г.113 с.

taqsimlash (ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash) bo‘yicha aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini isloh qilish;

– ta’riflarni tartibga solish tizimini takomillashtirish, uning asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning manfaatlarini hisobga olgan holda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun optimal sharoitlarni yaratishdir.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli mintaqalarida globallashuv, integratsiya, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi turli darajalarda, chunki ular iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy rivojlanishning turli darajalari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida hududiy va shahar darajasida foydalanish uchun zarur bo‘lgan umumiy yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish zarur. Unga binoan, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi infratuzilmasini bir maromda rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash, qurilish va modernizatsiya qilish ishlariga investitsiyalarni jalb qilish, ijara uyini qurish va rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni rivojlantirishni ta’qoza etadi (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarish bo‘yicha xorijiy yondashuvlar[50]

№	Farqli jihatlari	Amerika yondashuvi	Fransiya yondashuvi	Angliya yondashuvi	Germaniya yondashuvi
1	Boshqaruv shakli	Yuqori darajada rasmiyatchilik bilan boshqarish	Markazlashtirilgan boshqaruv tizimi	Tizimni shaffovlik bilan boshqarish	Markazlashmagan boshqaruv tizimi
2	Nazorat shakli	Federal tomonidan sohani tashkil etish va nazorat qilish	Vazirlik darajasida byurokratik nazorat	Vakolatli tashkilotlar tomonidan nazorat qilish	Nazorat qiluvchi maxsus tashkilotlar tomonidan nazorat qilish
3	Qaror qabul qilishi	Sekinlik bilan qarorlar	Tizimni nufuzli shaxslar tomonidan	Qaror qabul qilish	Qarorlarni qabul qilish tezda amalga oshirilishi

[50] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

		qabul qilish	lobbilashtirish va qaror qabul qilish	ma’sul tashkilotlar rahbarlari tomonidan qabul qilinishi	

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining xorijiy tajribasi va respublikamiz kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi kompleksini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari quyidagi xususiyatlar bilan belgilandi:

– raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida “kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish va isloh qilish strategiyasini” ishlab chiqishni talab qiladigan milliy iqtisodiyotning ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga xos bo‘lgan kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi rivojlanishining “kechikkan” turi shakllandi;

– hududiy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida hozirgi kunga qadar islohotlar ko‘lamini mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uyg‘unlashtirish muammolari mavjud bo‘lib, u kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini isloh qilish bo‘yicha mintaqaviy dasturlarning maqsadlari va prinsiplari birligini ta’minlashni talab qiladi;

– pandemiya sharoitida hududiy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi islohoti yo‘nalishi va asosiy vositalarning jismoniy zaiflashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘plangan muammolarning inqirozini bartaraf etish, hudud tarmoq ichidagi nomutanosibliklarning mavjudligi, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatsizligi, mintaqalarda moliyalashtirishning yetishmasligi aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining barqaror ishlash parametrlarini ta’minlashga qaratilgan mintaqaviy inqirozga qarshi dasturlarni ishlab chiqishni talab qiladi;

– aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish soha infratuzilmasi salohiyatini saqlab qolish mexanizmlari va shart-sharoitlarini tashkil qilish, boshqarish va tashkil etishdagi tizimli o‘zgarishlarni amalga oshirishga emas, balki mintaqalarning rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda innovatsion-texnologik asosda uni rivojlantirishga alohida e’tibor berish kerak.

I BOB bo‘yicha xulosa

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiq etish natijasida bir qator xulosalar qilindi va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi nazariyasining uzoq tarixiy davrga borib taqalishi hamda aholi farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etgani ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, “kommunal xizmat” va “kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligi” tushunchasining mohiyatini ochishda mavjud yondashuvlarga qo‘shimcha ravishda iste’molchi nuqtai nazaridan yondashish zarurligi asoslab berildi.

2. Aholiga kommunal xizmatlar ko‘rsatish infratuzulmasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, huquqiy asosini tahlil qilish orqali, kommunal xizmatlarni tasnifi o‘rganildi va kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi ko‘rsatggichlari aniqlandi. Shuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatishning huquqiy tartibga solishning ilmiy va uslubiy jihatlari asoslab berildi hamda qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning murakkab tizimini takomillashtirish taklifi ishlab chiqildi.

3. Aholiga kommunal xizmatlarning faoliyatida xorijiy tajribani tahlil qilish natijasida bir qator asosiy tendensiyalar aniqlanadi:

– kommunal infratuzilma ob’ektlarini boshqarish tizimini mahalliy hokimiyat organlari darajasiga o‘tkazish bilan markazsizlashtirish;

– suv ta’minoti kommunal xizmati, issiqlik ta’minoti kommunal xizmati, gaz ta’minoti kommunal xizmati va elektr-energiyasi ta’minoti kommunal xizmati sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalarni xususiylashtirish;

– potensial raqobatbardosh sektorlarda raqobatni rivojlantirish maqsadida ushbu bozorda faoliyat yurituvchi kompaniyalar faoliyatini taqsimlash (ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash) bo‘yicha aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimli isloh qilish;

– ta’riflarni tartibga solish tizimini takomillashtirish, uning asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning

manfaatlarini hisobga olgan holda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun optimal sharoitlarni yaratishdir.

II BOB. AHOLIGA KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH HOLATI TAHLILI

2.1. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni institutsional asoslarini takomilashtirish

Tarixan nazar soladigan bo‘lsak, XX asr boshlarigacha O‘zbekiston aholiga ko‘rsatiladigan uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi umumdavlat xo‘jaligi tarmog‘i sifatida shakllanmagan edi. Aholi suv manbalarini iste’mol qilish uchun buloq, quduq, oqar suvlar (anhor, ariqlar) dan foydalangan. Shaharlardagi dahalarning har bir mahallasida katta-kichik hovuzlar bo‘lgan. Mahalliy aholi yashaydigan uy-joylar qishda faqat sandal (tancha) bilan isitilgan. XX asrning 20-yillaridan obodonchilik tadbirlari shaharlar rivojlanishining bosh rejasi bo‘yicha olib borildi, har bir tumanda kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limlari tashkil etildi. Keyingi o‘n yilliklar davomida O‘zbekistonda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi yirik sohaga aylandi, sanoat ishlab chiqarishning rivoji va aholining tez o‘sishiga bog‘liq holda ildam sur’atlar bilan rivojlandi.

Mamlakatimizda shahar va qishloqlarni yangilash, aholi uchun munosib turmush sharoitlari yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli va manzilli ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi uch yilda umumiy maydoni 41 million kvadrat metr bo‘lgan 155 mingta xonadon foydalanishga topshirildi. Ko‘p kvartirali uy-joylar soni 2 baravarga oshdi. Shunday ekan, yangi uylar, zamonaviy massivlar ko‘payishi bilan ularga xizmat ko‘rsatishning dolzarbligi ortib bormoqda. Bu bo‘yicha o‘tkazilgan anonim so‘rovnomalarda ko‘p qavatli uylarda yashovchi aholining 35 foiz aholi ko‘rsatilayotgan uy-joy kommunal xizmatlardan norozi ekani, 65 foizi shirkatlar faoliyati samarasiz ekanligi aniqlangan. Shuningdek, hududlarni obod qilish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha 7 ming 794 ta qishloq va mahallalardagi shart-sharoitlarini yaxshilash uchun 18 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan bo‘lib, mavjud muammolarni yumshatishda ahamiyati yuqori bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, aholini toza

ichimlik suvi bilan ta’minlash, ichki yo‘llar qurish va ta’mirlashga yana 300 million dollar ajratilganligi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni institutsional islohotlarini yanada takomillashtirishni ko‘rsatmoqda[51].

O‘zbekistonda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Hukumat tomonidan ko‘p qavatli uylarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va uy-joy fondini yangilash ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilmoqda. Xususan, viloyat markazlari va ayrim shaharlarida tajriba tariqasida malakali boshqaruv-servis kompaniyalari tashkil etilishi, shirkat faoliyatiga nisbatan samara ekanligini ko‘rsatib bermoqda. Ushbu kompaniyalar faoliyati reyting asosida baholanib, xizmat sifati yuqori bo‘lganlariga qo‘shimcha obyektlar ajratiladi. Shuningdek, barcha boshqaruv-servis kompaniyalarida 24 soat faoliyat ko‘rsatishi orqali aholini uy-joy kommunal xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji qondirilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tamonidan 2024-yil 4-yanvarda qabul qilingan “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5-son Farmonida “sanitar tozalash xizmatlari uchun to‘lovlarni amalga oshirishda inson omilining yuqoriligi, markazlashgan elektron to‘lov tizimining to‘liq joriy qilinmaganligi hamda idoralararo tizimlar bilan integratsiya qilinmaganligi natijasida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar bo‘yicha debitor qarzdorlik ko‘paygan” deb keltirilganligidan ham uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishda chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish jarayonida ham muammolar mavjud ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu jarayon o‘z navbatida tizimli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni vujudga kelishi uning institutsional asosiga borib taqaladi va o‘z vaqtida uni takomillashtirish mavjud muammolarga to‘g‘ri yechim topishiga

[51] https://president.uz/oz/lists/view/4384?utm_source=chatgpt.com

xizmat qiladi[52]. Uy-joy kommunal xizmatlarini isloh qilish – bu murakkab, ko‘p tarmoqli jarayon bo‘lib, u faqat davlat emas, balki xususiy sektor, mahalliy jamoalar va xalqaro hamkorlikning qo‘shma sa’y-harakatlari bilan samarali bo‘lishi mumkin. Islohotlarning muvaffaqiyati barqaror iqtisodiyot, yaxshilangan turmush sharoitlari va atrof-muhitni muhofaza qilishga olib keladi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni institutsional islohotlarini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borilgan va bu mavzu iqtisodchi olimlar tamonidan bir necha yo‘nalishlarida tadqiq etilganligini ko‘rishimiz mumkin. Iqtisodiy adabiyotlar, ilmiy maqola, dissertatsiyalarda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish qonuniy asoslari, ijtimoiy munosabatlari, iqtisodiy zaruriyati, aholi turmush darajasini yuksaltirishda o‘rni va ularning turli shakllarini tahlil qilishgan, shuningdek, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini o‘rganishgan. Quyida biz ushbu tadqiqotlar tahlilini keltirib o‘tamiz:

Maria Sisternas Tusell. “Affordable housing in europe: Innovative public policies that can effectively address the housing crisis” nomli maqolasida uy-joy muammosi shaharning ajralmas qismidir degan qarashlarni ilgari surgan. Muallif shaharlar ularda yashash uchun o‘ylab topilgan degan fikrga kelgan. Keyinchalik davlatlar tashkil topishi bilan uy-joy siyosati milliy siyosat darajasiga ko‘tarildi va uy-joyga bo‘lgan huquq deyarli barcha konstitutsiyalarda tan olinishini ko‘rsatib bergan va Yevropaning yirik shaharlarida kvartiralar narxining oshishi aholining hayotiga bevosita ta’sir qilishi tufayli uy-joy inqirozi dolzarbligini ko‘rsatib bergan. Yevropa shaharlaridagi hududiy segregatsiyaning ikkinchi to‘lqini munitsipalitetlarning jahon kapitalining aylanishi ta’sirini va urbanizatsiya jarayonining sekinlashtirishga qodir emasligini yoritib bergan[53].

---

[52] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4845-son Qarori. Toshkent sh., 2020-yil 29-sentabr. www.lex.uz

[53] Maria Sisternas Tusell. Affordable housing in europe: Innovative public policies that can effectively address the housing crisis. CIDOB Barcelona Centre for International Affairs. Notes internacionals CIDOB 181. SEPTEMBER 2017. https://www.cidob.org/sites/default/files/2024-07/NOTES%20180_MARIA%20SISTERNAS%20TUSELL_ANG.pdf

Fan, K., Iceland, J. “Housing inequality in urban areas of China: a legacy of socialist institutional mechanisms”[54] nomli ilmiy maqolasida Xitoyda bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan dastlabki sotsialistik institutsional mexanizmlarning ijtimoiy tengsizligi, odamlarning ishchi birliklar tizimidagi mavqei va ularning ijtimoiy-iqtisodiy maqomining Xitoy shaharlaridagi uy-joy tengsizligi modeliga ta’sirini ko‘rib chiqish orqali o‘rgangan. Muallif 2007-yilda Xitoyning Nankin shahrida o‘tkazilgan shahar aholisining uy-joy sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanib shahar aholisining uy-joy bilan ta’minlanishida odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati juda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, uy-joy tengsizligi ma’lum darajada ularning ish birliklari tizimidagi o‘rni bilan ham belgilanishini ko‘rsatib bergan. Shuningdek, sotsialistik institutsional mexanizmlarning ijtimoiy tengsizlikka ta’sirini bozor iqtisodiyotiga o‘tgan jamiyatlarda bozor iqtisodiyotiga o‘tganidan bir necha yil o‘tib ham kuzatish mumkinligini ko‘rsatib bergan.

Tamara N. Nerovnya, Natalya T. Oboimova, Valentina I. Rodionova, alina P. Dovlatyan, Vladimir A. Shapovalov “Institutional Basics of Tariffs in Housing and Communal Services: Cross-Country Analysis” nomli ilmiy maqolada mualliflar xorijiy mamlakatlarning uy-joy kommunal xo‘jaligida tariflarni shakllantirish usullarini ko‘rib chiqish va umumlashtirish, shuningdek, Rossiya va xorijda tariflarni tartibga solishda davlat marketingidan foydalanish imkoniyatlarini va undan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini asoslab berishgan. Natijada tariflarni shakllantirishni yanada rivojlantirish bo‘yicha xulosalar va prognozlar, shuningdek, uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi ushbu siyosatning ijtimoiy oqibatlari shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berishgan[55]. Mualliflar uy-joy kommunal xo‘jaligi ijtimoiy amaliyotlarining institutsional tabiati, aholining turmush sharoitlarini

---

[54] Фан, К., Исландия, Дж. Жилищное неравенство в городских районах Китая: наследие социалистических институционалных механизмов. *J. Chin. Sociol.* 5 , 12 (2018). https://doi.org/10.1186/s40711-018-0082-9

[55] Tamara N. Nerovnya, Natalya T. Oboimova, Valentina I. Rodionova, alina P. Dovlatyan, Vladimir A. Shapovalov “Institutional Basics of Tariffs in Housing and Communal Services: Cross-Country Analysis” 2015. Institutional Basis of Tariffs in Housing and Communal Services: Interstate Analysis. Mediterranean Journal of Social Sciences. 6, 3 (May 2015), 26.

ta’minlash va industrial hamda postindustrial jamiyatlar iqtisodiyotini optimallashtirish yo‘llarini izlash bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatib berishgan. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning ijtimoiy amaliyotlarida maqsadni belgilashni o‘zgartirish, ijtimoiy harakatni mijozga qayta yo‘naltirish alohida omil bo‘lib, bu har doim ham shaxslarning ijtimoiy harakatlarining ratsional tarkibiy qismlari bilan bog‘liq bo‘lmagan jarayondan, shuningdek, irratsional tarkibiy qismlarni ekspluatatsiya qilishdan iborat ekanligini ko‘rsatib berishgan. Bundan tashqari, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning ijtimoiy amaliyotida o‘ziga xos “yumshoq” texnologiyalashuv yuz berishini ko‘rsatib berishgan. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi narx siyosati, bir tomondan, keng ko‘lamli xizmatlar va subyektlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ochib beradi, bu o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarini saqlab qolish va mustahkamlashda demokratlashtirish jarayonlarini, ikkinchi tomondan, narxlarning o‘sishi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining pastligini ko‘rsatib berishini ilmiy maqolada batafsil tushintirib berishgan.

Khanifa Odilovna Ikromova. “Improving the Management System of Apartment Buildings in Uzbekistan”[56] nomli ilmiy maqolasida Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash samaradorligi natijalari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida O‘zbekiston Respublikasining ko‘p kvartirali uylarni boshqarish, natijalar va xulosalar keltirilgan. Shuningdek, muallif ko‘p kvartirali uy-joylar uchun ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlarni qonunchilik bazasini takomillashtirish va manopoliyadan chiqarish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlaridan kelib chiqib tahlil qiladigan bo‘lsak, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni institutsional islohotlarini takomilashtirish O‘zbekistonda aholining turmush sharoitini yaxshilash, energiya samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

[56] Khanifa Odilovna Ikromova (2022). Improving the Management System of Apartment Buildings in Uzbekistan. http://ijmmu.com editor@ijmmu.com ISSN 2364-5369 Volume 9, Issue 9 September, 2022 Pages: 50-54

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi tarixiga nazar solganimizda bu sohada mamlakatimizda uzoq tarixga va cheksiz manbaaga ega bo‘lgan maktab mavjudligining guvohi bo‘lamiz. Sobiq ittifoq parchalanishi natijasida uning tarkibidagi barcha respublikalar kabi mamlakatimizga ham ma’muriy buyruqbozlik asosida boshqarishga asoslangan, asosiy xarajatlari budjet mablag‘lari hisobidan qoplanib kelgan, markazlashgan ta’minot tashkilotlari tomonidan xomashyo resurslari bilan ta’minlanib kelgan uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi meros bo‘lib qolgan. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bozor munosabatlarining joriy etilishi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini ham to‘liq isloh qilish zaruratini keltirib chiqardi. Bu tizimni isloh qilish va uning faoliyatini bozor munosabatlari asosida tashkil etish uchun asosan quyidagilar ta’sir ko‘rsatgan:

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida barcha resurslar markazlashgan tartibda taqsimlangan, shu jumladan yangi qurilib ishga tushirilayotgan uy-joy fondlari ham aholining turar joyga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etilgan va navbatlar asosida taqsimlangan;

– uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish ishlari monopol davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan. Ko‘rsatilgan ish va xizmatlar uchun yuqoridan begilangan narxlar nomutanosib bo‘lib korxona va tashkilotlar olgan foyda markazlashtirilar edi hamda ular tomonidan zarar ko‘rilgan taqdirda, bu zararni qoplash uchun davlat tomonidan dotatsiya ajratilgan;

– davlat korxonalari va tashkilotlariga o‘z xodimlarini uy-joy bilan ta’minlash va tegishli uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish vazifalari yuklatilgan bo‘lib, shahar (hudud kommunal xizmat ko‘rsatish) sohasini alohida tizimi sifatida boshqarish imkonini bermasdi.

– asosiy xarajatlarning budjet tomonidan ajratilishi, tushum va xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi, iqtisodiy manfaatdor bo‘lish imkoniyati mavjud emasligi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi korxonalarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qilgan.

1991 yilda aholidan 1 kv^m uy-joy fondidan foydalanganligi uchun belgilangan to‘lov (kvartplata) haqiqiy xarajatning 4-5 %ni tashkil etar edi, shuningdek 40% dan ortiq aholiga uy-joy kommunal to‘lovlar uchun imtiyozlar joriy etilgan. Bunday holat aholida boqimandalik kayfiyatini yanada kuchaytirishiga olib kelgan[57]. Aholiga ko‘rsatiladigan uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi va xizmat ko‘rsatuvchi korxona, tashkilotlarning mahalliy hokimiyat tomonidan boshqarilishi ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga aholining tasir ko‘rsatishi uchun imkon bermas edi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning dunyo bo‘yicha rivojlanish bosqichi va uning institutsional islohotlariga yuzlanadigan bo‘lsak, uzoq davrga borib taqalganligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, XIV asrlarga kelib uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishda tub burilishlar vujudga kela boshladi. Bundan oldingi davrlarda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish jarayonlarini qishloq, shahar aholisi asosan o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatib kelishgan vas hu bilan birgalikda uy-joy kommunal xizmatlarni tartib soluvchi normativ hujjatlar mavjud bo‘lmagan. XIV asrlarga kelib yirik shaharlarda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish davlat tamonidan amalga oshirilaboshlagan hamda me’yoriy hujjatlar, farmonlar negiszida tartibga solinilib borilgan.

Biz tadqiqodlarimiz davomida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni rivojlanish bosqichlarini tadqiq etganimizda institutsional o‘zgarishlarga bir nechta ilmiy va uslubiy yondashuvlar mavjudligi va institutsional muhit, tuzilmani shakllantirishda ularning bosqichlarini aniqlash hamda turli farqli jihatlar mavjud ekanligini aniqladik (2.1.1-rasm).

[57] Абдукаримов Б.А., Мусаев Б.Ш. Коммунал хизматларни такомиллаштириш- аҳолига қулайликлар яратиш омили. Рисола. Т.: “fan va texnologiya” нашриёти, 2007 й. 28-б.



2.1.1-rasm. Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatishni rivojlanish bosqichlari va institutsional asoslari[58]

2.1.1-rasm maʼlumotlarini tahlil qilishimiz asosida uy-joy kommunal xizmat koʻrsatishni rivojlanishini xar-bir bosqichida oʻziga hos oʻzgarishlar amalga oshirilgan boʻlib, hozirgi davrdagi rivovlanib kelishiga zamin yaratgan. Bazi rivojlanish bosqichlarida xizmat koʻrsatish susaygan boʻlsa, boshqasida esa rivojlnaganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, uchinchi bosqichda bu toʻlaqonli rivojlanishini namayon etgan. Shuningdek, bu bosqichlarning rivojlanish jarayonlarida ham uning institutsionala asoslariga ham oʻzgarib borishini koʻrishimiz mumkin. Biz bu bosqichlarni tadqiq etishimizda quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchi bosqich, milloddan avvalgi IV-I asrlarda rivojlangan boʻlib, asosan qadimgi Misr, Mesotopamiya va Rimda uy-joy kommunal xizmatlarning bazi bir turlari shakllanganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, suv taʼminoti, kanalizatsiya tizimlari, ommaviy

[58] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

hammomlar va yoritish xizmatlar shahar aholisga taqdim etilgan. Uning boshqaruv sutrukturasi, institutsional asosi esa davlat boshqaruvi va diniy tuzilmalar orqali boshqarilgan va tartibga solinib xizmat ko‘rsatilgan.

Ikkinchi bosqich, o‘rta asrlar yani V-XV asrlarni o‘z ichiga qabrab olib uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sifati pasayish davri desak ham bo‘ladi. Buning asosiy sababi sifatida feodal tuzilmalarning asosiy e’tibor boylik ortirishga qaratilganligi va uy-joy kommunal xizmatlarni rivojlantirishga e’tibor bermasligi natijasida gigiyena darajasini tushib ketishi bilan izohlash mumkin. Lekin, shu bilan birgalikda qisman suv quvirlar barpo etilgan, bozor infratuzilmalarida kommunal xizmat ko‘rsatish tashkil etilgan hamda ba’zi shaharlarda chiqindilarni chiqarish, utilizatsiya qilish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Bu davrning instututsional asosiga to‘xtaladigan bo‘lsak bu yerda uy-joy kommunal xizmatlar feudal hukmdorlar, diniy tashkilotlar va mahalliy jamolar orqali tartibga solingan hamda ular tamonidan tadbiq etilgan normalar orqali xizmat ko‘rsatilgan.

Uchinchi bosqich, bu bosqich XVIII-XIX asrdagi sanoat sohasidagi dastlab inqilobga borib taqaladi. Ya’ni sanoat sohasini rivojlanishi natijasida shaharlashuv, ishlab chiqarish korxonalarini ko‘payishi natijasida kommunal xo‘jalik tamonidan ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlarga ehtiyojlarning ortishi natijasida rivojlangan. Bu bosqichda aholi, ishlab chiqarish subyektlariga uy-joy kommunal xizmatlarning elektr ta’minoti, gaz ta’minoti, suv ta’minoti, kanalizatsiya xizmatlari va chiqindilarni tashib chiqarish hamda utilizatsiya qilish xizmatlar rivojlangan. Shuningdek, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning institutsional asosini davlat, mahalliy hokimyat va xususiy komopaniyalar tamonidan amalga oshirilgan. Bu bosqichda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni tartibga solish, boshqarish, nazorat qilish va tasaruf etish bo‘yicha ko‘plab qonunlar, qarorlar, farmonlar va kodekslar ishlab chiqib amalga oshirilganligi bilan ajralib turadi.

To‘rtinchi bosqich, bu bosqich iqtisodiy adabiyotlar XX asrdan keying islohotlarni o‘zida mujassam etadi degan fikrlarni ilgari suradi.

Xaqiqatdan XX asrdan keyin uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tub burilishlar bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Sotsiolistik” va “Kapitalistik” modelllarni paydo bo‘lishi, xizmat ko‘rsatishga ularni turli nuqtaiy nazardan yondashishsi, mulkchilik huquqlaridagi farqlar, raqobatlashuvdagi farqli jihatlar bilan ajralib turadi. “Sotsiolistik” modelning asosiy jihatlari bu uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish to‘laqonli davlat tamonidan amalga oshirilganli, “Uy-joy” kodekslari barpo etilganli va maxsus kommunal xo‘jalik idoralari tamonidan xizmatlar kor’satilishi bilan farqlanib turgan bo‘lsa, “Kapitalistik” modelda davlat aralashuni kamligi, raqobatbardosh xususiy korxonalar, davlat-xususiy sherikchilik asosida boshqarishni amalga oshirilishi, ijara uylarni xususiy korxonalar tamonidan faoliyati yuritilishi bilan ajralib turgan. Ammo, bu bosqichga kelib ko‘p qavatli uylarni qurilishi, ijara uylarni paydo bo‘lishi natijasida elektr, gaz, suv, kanalizatsiya, chiqindilarni tashish va yo‘qotish, telekommunikatsiya, internet, “yashash qulayliklari” kabi ko‘plab kommunal xizmat turlari shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa so‘ngi vaqtlarda aholiga ko‘rsatiladigan uy-joy kommunal xizmatlar raqamlashtirilishi, energiya tejaydigan texnologiyalarni qo‘llanilishi, “byumlar interneti”, “Aqlli” texnologiyalarni joriy etilishi, ekologik barqarorlikga alohida etibor berilishi natijasida xizmat sifati yuksalganligi, qayta tiklanmas tabiiy resurslarni tejalishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning qonunchilik bazasi oldingi bosqichlarga nisbatan ancha takomillashganligi, boshqaruv davlat-xususiy sherikchilik, xususiy kompaniyalar orqali amalga oshirilishi, ko‘p qavatli uylarga kommunal xizmat ko‘rsatishda maxsus servis kompaniyalarni paydo bo‘lishi bilan hama ajralib turadi.

Fikrimizcha, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning rivojlanish bosqicha institutsional asoslari davlat, mahalliy hokimyatlar, xususiy sektor va jamoatchilik asosida faoliyat yuritgan, aholiga xizmat ko‘rsatilgan, nazorat qilish, tartibga solish, tasarruf etish va boshqarib borilganligini ko‘rsatadi. Bunda turli ko‘rinishdagi shartnomalar, nizomlar, qarorlar, farmonlar, kodekslar va qonunlar asos bo‘lib, uning faoliyatini ta’minlab berishda ahamiyati yuqori bo‘lgan.

Dunyoda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish rivojlanish bosqichini tahlil qilishimiz, o‘rganishimiz natijasida respublikamizda ham ushbu jarayonlarga yaqin o‘zgarishlarni boshdan kechirganligini taxmin qilishimiz mumkin, ammo, mintaqada uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni rivojlanish jarayoni oz’iga hos institutsional islohotlarni bosib o‘tganligini aniqladik. Yuqorida keltirilgan islohotlarni amalga oshirishda albatta uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish subyektlar faoliyatini institutsional asoslarini takomillashtirishni talab etadi. Biz tadqiqotimizni amalga oshirishda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish subyektlar faoliyatini rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish orqali uning rivojlanish evolutsiyasi haqida batafsil fikrga kelishimiz va buning natijasida institutsional asosini aniqlab takomillashtirish bo‘yicha xulosalarga kelishimiz mumkin

(2.1.1-jadvalga qarang).

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlari tahlilidan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, respublikada uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish jarayoni asta-sekinlik bilan rivojlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, islohotlarning asosiy o‘zgarishlari bu beshinchi bosqichda amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, islohotlarning mustaqillikdan keying birinchi bosqichida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidagi uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni (1993 y.), Fuqarolik kodeksi (1996 y.) va Uy-joy kodeksiga (1999 y.) muvofiq belgilandi. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi mustaqillikdan keyingi islohotning ikkinchi bosqichida xususiy uy-joy fondlaridan foydalanish va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarining xususiy tizimini tashkil etish bo‘ldi.

Bu bosqichda uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tuzish tartibi, ularning huquqiy maqomi va davlat, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, ular a’zolarining huquqi hamda burchlari va uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati bilan bog‘liq boshqa masalalar O‘zbekiston Respublikasining “Uy-joy mulkdorlari shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonunida (1999 y.) o‘z aksini topdi. Shuningdek, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni mustaqillikdan keyingi uchinchi bosqida 2016-yildan keyingi islohotlar kiradi.

2.1.1-jadaval

O‘zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni rivojlanish bosqichlari va institutsional asoslari[59]

№	Bosqichlar	Davr	Institutsional xususiyatlari
1	Mustamlakagacha bo‘lgan bosqich	1920-yilgacha bo‘lgan davr	– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish aholi tamonidan o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish shaklida amalga oshirilgan; – suv inshoatlari, yoritish tizimlari, favvoralar tashkil etilgan va mahalliy darajada amalga oshirilgan (o‘zlari tamonidan); – chiqndilarni utilizatsiya qilish mahalla yoki oila xo‘jaligi doirasida amalga oshirilgan; – uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni huquqiy normativi mavjud bo‘lmagan. Aksincha oqsoqollar tamonidan ijtimoiy norasmiy normativlar asosida amalga oshirilgan; – isitish sandal, g‘ishtli pechlar tizimi orqali amalga oshirilgan; – rasmiy xizmat mavjud bo‘lmagan.
2	Mustamlakadagi bosqich	1920-1991-yillar	– uy-joy kommunal xizmatlar davlat tamonidan ko‘rsatilgan; – ko‘rsatilgan xizmatlar uchun narxlar subsidiya shaklda amalga oshirililgan; – kam daromadli oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash; – uy-joylar davlat mulki hisoblangan; – kommunal xo‘jalik infratuzilmasi tashkil etilgan; – uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish normativlari ishlab chiqilgan.
3	Mustaqillikning dastlabki bosqichi	1991-2000-yillar	– uy-joylarni xususiylashtirilish amalga oshirildi; – uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sifati yamonlashdi; – kommunal xizmat ko‘rsatish

[59] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

			xizmatlari uchun yangi ta’riflar shakllantirildi; – uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish manopol shaklda qayta tashkil etildi.
4	Bozor islohotlari bosqichi	2000-2016-yillar	– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishda mulkdorlar shirkatlari tashkil etildi; – kommunal xizmat ko‘rsatishda xususiy servislar faoliyati tashkil etildi; – aholi uchun uy-joylar qurish faollashtirildi; – kommunal to‘lovlarni amalga oshirishni “billing” tizimi tashkil etildi; – uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni qonuniy normativlari takomillashtirildi.
5	Raqamlashtirish va modernizatsiya bosqichi	2017 yildan hozirgi davrgacha	– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni elektron tizimlari tashkil etildi; – uy-joy kommunla xizmat ko‘rsatishni bazi subyektlar faoliyati davlat tasarufidan chiqarildi; – davlat xususiy sherikchilik dasturi kommunal xizmat ko‘rsatishga tadbiq etildi; – “aqlli” hisoblagichlar uy-joy kommunal xizmatlari uchun tadbiq etildi; – aholi uchun uy-joylar qrish ko‘lami kengaytirildi; – kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tashkil etildi; – uy-joylarga servis xizmat ko‘rsatish uy-joy mulkdorlar shirkatlar faoliyati o‘rniga boshqaruv servis kompaniyalari tashkil etildi; – uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni samarali tashkil etish maqsadida qonun, qaror va farmonlar ishlab chiqildi.

Shu maqsadda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar

strategiyasida “kommunal- maishiy xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish, eng avvalo, yangi suv o‘tgazish tarmoqlarini qurish, zamonaviy tejamkor va samarali texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlanishini tubdan yaxshilash; hamda yangi elektr ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va aholini boshqa yoqilg‘i-energiya resurslari bilan ta’minlashni yaxshilash”[60] masalalariga alohida e’tibor berilgan. 2019-yil 6-avgustda “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish” bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinishi tizimda ko‘plab yechilmagan muammolarga yechim topishda muhim ahamiyat kasb etdi. Qolaversa “Aqlli” hisoblagichlarni joriy etilishi, raqamli platformalar orqali kommunal xizmatlarni nazorat qilish shakliga o‘tilishi, “Aqlli” va “Xavfsiz” shaharlarni barpo etilishi, maishiy chiqindilarni qayta ishlashni tadbiq etilishi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishda tub burilishlar amalga oshirilganligini ko‘rsatadi.

So‘ngi vaqtlarda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida o‘zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda buni aholini uy-joylar bilan ta’minlash darajasi, elektr energiya ta’minoti, tabiiy gaz ta’minoti va suv ta’minoti kabi kommunal xizmatlar bilan ta’minlanishida ham ko‘rishimiz mumkin (2.1.2-jadvalga qarang).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga respublika bo‘yicha o‘rtacha bir kishiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni **18,5 kvadrat metrni** tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,3 kvadrat metrga oshgan. Eng past ko‘rsatkich Jizzax viloyatida kuzatilgan bo‘lib, bu yerda bir kishiga 17,5 kv.m. uy-joy maydoni to‘g‘ri keladi. Ushbu statistikalar mamlakatimizda uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi hududlar bo‘yicha farq qilishini ko‘rsatadi. Bu esa, uy-joy qurilishi va

[60]Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “2018–2022 йилларда иссиқлик таъминоти тизимини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги қарори. Ўзбекистон, 24 апрел 2017 йил. www.lex.uz

taqsimotida hududiy xususiyatlarni inobatga olish zarurligini ko‘rsatmoqda.

2.1.2-jadval

Respublika aholisini uy-joy kommunal xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasi[61]

Hududlar nomi	Uy-joy kommunal xizmat turlari bilan aholini ta’minlanish darajasi								
	Uy-joy, kv.m./kishi			Tabiiy gaz ta’minoti (%)			Suv ta’minoti (%)		
	2012 yil	2023 yil	Farq (+,-)	2012 yil	2023 yil	Farq (+,-)	2012 yil	2024 yil	Farq (+,-)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13,2	19,9	+6,7	87,3	45,1	-42,2	65,3	72,4	+6,7
Andijon	12,3	18,5	+6,2	72,1	58,1	-14,0	87,7	90,9	+3,2
Buxoro	14,3	20,4	+6,1	82,3	62,6	-19,7	90,2	73,2	-17,0
Jizzax	13,2	17,5	+4,3	71,4	52,9	-18,5	80,6	70,4	-10,2
Qashqadaryo	12,6	17,8	+5,2	65,9	22,6	-43,3	82,3	59,4	-22,3
Navoi	21,5	22,1	+0,6	78,2	63,3	-14,9	73,6	76,3	+2,7
Namangan	13,8	18,3	+4,5	73,2	59,2	-14,0	85,1	82,7	-2,4
Samarqand	14,6	17,6	+3,0	87,1	56,7	-30,4	81,4	75,4	-6,0
Surxondaryo	12,6	18,8	+6,2	60,1	24,4	-35,7	79,7	62,9	-16,8
Sirdaryo	14,5	19,3	+4,8	88,4	48,6	-39,8	94,4	86,9	-7,5
Toshkent	15,7	18,9	+3,4	89,6	67,1	-22,5	99,2	79,4	-19,8
Farg‘ona	14,1	18,6	+4,5	76,4	56,4	-20,0	89,4	79,4	-10,0
Xorazm	18,7	19,4	+0,7	91,4	61,1	-30,3	64,1	90,4	+26,0
Toshkent shahri	17,5	15,8	-1,7	97,2	68,6	-28,6	99,2	97,7	-1,5
Respublika bo‘yicha	14,9	18,5	+3,6	80,0	56,8	-21,2	83,7	80,1	-3,6

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga respublika bo‘yicha o‘rtacha bir kishiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni **18,5 kvadrat metrni** tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,3 kvadrat metrga oshgan. Eng past

[61] O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi ma’lumotlari asosida hisoblangan. https://mc.uz/uz

koʻrsatkich Jizzax viloyatida kuzatilgan boʻlib, bu yerda bir kishiga 17,5 kv.m. uy-joy maydoni toʻgʻri keladi. Ushbu statistikalar mamlakatimizda uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi hududlar boʻyicha farq qilishini koʻrsatadi. Bu esa, uy-joy qurilishi va taqsimotida hududiy xususiyatlarni inobatga olish zarurligini koʻrsatmoqda.

Oʻzbekiston hududlari boʻyicha aholining tabiiy gaz bilan ta’minlanganlik darajasiga oid eng soʻnggi statistik ma’lumotlar ochiq manbalarda cheklangan. Ammo, biz olib brogan izlanishlarimiz natijasida 2010-yilda jami uy (kvartira)larning 83,5 foizi tabiiy gaz bilan ta’minlangan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2020-yilga kelib 55,5 foizgacha pasaygan. hududlar kesimida, masalan, Qashqadaryo viloyatida 2010-yilda uylarning 68,6 foizi tabiiy gaz bilan ta’minlangan boʻlsa, 2020-yilda bu koʻrsatkich 22,6 foizgacha kamaygan. Shuningdek, 2023-yilda Oʻzbekistonda umumiy tabiiy gaz iste’moli hajmi 47,5 milliard kub metrni tashkil etgan. Biroq, bu iste’molning hududlar boʻyicha taqsimoti haqida aniq ma’lumotlar ochiq manbalarda mavjud emas. Tabiiy gaz ishlab chiqarishdagi pasayish va sovuq ob-havo sharoitlari tufayli, ayniqsa qish oylarida, aholining gaz bilan ta’minlanishida uzilishlar kuzatilmoqda. Masalan, 2023-yil yanvar oyida anomal sovuq tufayli gaz zapravkalarining faoliyati vaqtincha toʻxtatilganligini asosiy sababi sifatida aholini gaz bilan ta’minlashga yoʻnaltirilganli deb hisoblasak boʻladi. Oʻzbekiston avvalgi yillarda tabiiy gaz eksportchisi boʻlgan boʻlsa, 2023–2024-yillarda gazning sof importchisiga aylandi. Buning asosiy sabablari sifatida uy-joylarning qurilishi, ishlab chiqarish sohasini kengayishi bilan ham izohlashimiz mumkin. Bu esa ichki ehtiyojni qondirish uchun qoʻshimcha resurslar zarurligini koʻrsatadi.

Shuningdek, respublikada aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashda ham soʻngi vaqtlarda oʻzgarishlar boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. Xususan, 2024-yil aprel oyida e’lon qilingan ma’lumotga koʻra Toshkent shahrida (97,7%), eng past koʻrsatkich esa Qashqadaryo viloyatida (59,4%) qayd etilgan. Umuman olganda, mamlakat boʻyicha aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan

ta’minlanganlik darajasi 2024-yil yanvar holatiga ko‘ra 77,2% ni tashkil etgan. Hududlar o‘rtasida ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasidagi farqlar mavjud bo‘lib, bu infratuzilma rivojlanishi va geografik omillar bilan bog‘liq. Hukumat tomonidan 2024-yil yakuniga qadar ushbu ko‘rsatkichni 81% ga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2025-yil yanvar oyiga kelib, bu ko‘rsatkich 80,9% ga yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ma’lumotlarni tahlil qilishimiz natijasida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, respublikada so‘ngi vaqtlarda aholini o‘sish sur’ati, ko‘p qavatli uylarni qurilishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni rivojlanishi natijasida toza ichimlik suviga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shuningdek, global isish, ekologik buzilishlar sababli ham toza ichimlik suvi manbaalari kamayib borishi ham ta’sir etmoqda. ammo, so‘ngi vaqtlarda respublikada aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash maqsadida yangi suv inshaotlari, DXSH dasturi asosida suv statsiyalari qurilmoqda, bu ijobiy holat ammo, hali-hanuz ham kamchiliklar mavjud bo‘lib qolmoqda. Masalan, aholi va yuridik shaxlarni suv resurslaridan foydalnishda ko‘nikmasini yetsihmasligi, isrofgarchilikga yo‘l qo‘yishi, toza ichimlik suvidan sug‘orish maqsadlarida foydalnishi kabi holatlar ham mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida kamayib borayotgan toza ichimlik suv manbaalarini yanada kamayishiga va natijada suv ta’minoti kommunal xizmatlarini sifatini pasayishiga olib kelmoqda.

Fikrimizcha, kommunal xizmat suv ta’minoti resurslaridan tejomkor texnologiyalardan foydalanish, uning qonunchilik bazasini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish faoliyatini to‘laqonli raqamli platformalarga o‘tkazish, xodimlarning malak-ko‘nikmasini oshirish, aholini suv resurslaridan foydalanish ko‘nikmasi va madaniyatini oshirish, suv ta’minoti korxonalarini davlat tasarufidan chiqarish, yuritik shaxslar uchun resurslardan foydalanishda to‘lov ta’riflarni faoliyat nuqtaiy-nazaridan qaytadan ko‘rib chiqish islohotlarini amalga oshirish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni Respublika hududlar kesimida tahlil qilishimiz tadqiqot natijalarini aniqligini ta’minlab

beradi. Shu maqsadda biz tadqiqot obyektimiz bo‘lgan Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmatlar ko‘rsatish darajasini o‘rganib chiqdik. Tadqiqotlarimiz natijasida Samarqand viloyat hududlar kesimida xizmat ko‘rsatish teng taqsimlanmaganligini aniqladik (2.1.3-jadvalga qarang).

2.1.3-jadval

Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasi[62]

Hududlar nomi	Uy-joy kommunal xizmat turlari bilan aholini ta’minlanish darajasi								
	Uy-joy, kv.m./kishi			Tabiiy gaz ta’minoti (%)			Suv ta’minoti (%)		
	2012 yil	2024 yil	Farq (+,-)	2012 yil	2023 yil	Farq (+,-)	2012 yil	2024 yil	Farq (+,-)
Samarqand sh.	11,1	27,8	+16,7	88,3	91,5	+3,2	92,9	93,7	+0,8
Kattaqo‘rg‘on sh.	12,5	16,2	+3,7	93,8	90,3	-3,5	77,3	86,1	+8,8
Oqdaryo t.	15,5	21,6	+6,1	89,8	90,4	+0,6	89,3	91,4	+2,1
Bulung‘ur t.	12,9	22,5	+9,6	78,1	79,2	+1,1	83,6	81,2	-2,4
Jomboy t.	14,1	17,4	+3,3	88,9	90,7	+1,8	83,1	82,9	-0,2
Ishtixon t.	12,8	18,6	+5,8	85,2	87,3	+2,1	58,2	53,4	-4,8
Kattaqo‘rg‘on t.	13,7	19,2	+5,5	86,2	81,1	-5,1	64,2	67,2	+3,0
Qo‘shrabot t.	11,4	18,8	+7,4	78,1	72,8	-5,3	60,8	65,4	+4,6
Narpay t.	14,9	18,0	+3,1	91,1	91,3	+0,2	86,0	90,1	+4,1
Payariq t.	14,1	16,7	+2,6	86,4	83,2	-3,2	68,2	68,3	+0,1
Pastdarg‘om t.	12,6	17,1	+4,5	89,9	86,1	-3,8	86,0	90,1	+4,1
Paxtachi t.	16,7	19,5	+2,8	92,4	92,6	+0,2	95,2	93,4	-1,8
Samarqand t.	24,2	28,4	+4,2	96,4	91,9	-4,5	79,3	83,7	+4,4
Nurobod t.	17,8	21,3	+3,5	75,2	75,8	+0,6	95,0	95,3	+0,3
Urgut t	10,9	17,5	+6,6	86,8	82,3	-4,5	90,5	89,8	-0,7
Toyloq t	18,6	20,8	+2,2	90,6	92,8	+2,2	93,2	93,6	+0,4
Samarqand v.	14,6	20,0	+5,4	87,1	85,2	-1,9	81,4	81,5	+0,1

Samarqand viloyati aholini uy joy bilan ta’minlanish darajasi asta sekinlik bilan aholini ko‘payishiga mutonasib tarzda rivojlanib

[62] Samarqand viloyat qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi ma’lumotlari asosida hisoblangan. https://samarkand.uz/uz

bormoqda. Xususan, 2012 yilda viloyat aholisini uy-joylar bilan ta’minlanish darajasi kishi boshiga 14,6 metr kvadratni tashkil etgan. Samarqand viloyatida aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi **2023-yil 1-yanvar holatiga** ko‘ra har bir aholi jon boshiga o‘rtacha 19,4 kvadrat metr uy-joy maydoni to‘g‘ri kelgan. 2**025-yil 1-yanvar holatiga kelib** bu ko‘rsatkich 20 kvadrat metrga yetganligini ko‘rishimiz mumkin.

Iqtisodiyot yo‘nalishidagi tadqiqotchi K.K.Xannarovning fikricha “O‘zbekistonda aholini uy-joy bilan ta’minlash sohasida qator yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalishda ayrim murakkabliklar hamon mavjud. Bu holat aholini turar-joy bilan ta’minlash jarayonida ma’lum bir nobarqarorliklarni keltirib chiqarmoqda. Hozirgi kunda aholini uy-joy bilan ta’minlashga oid huquqiy asoslar yaratilmoqda va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, mazkur jarayonlarni samarali tartibga solish uchun davlat vakolatli organlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi”[63] degan fikrlarni beradi va ushbu muammo yechimi sifatida tadqiqotchi mamlakatda uy-joy bozori xususiy pudratchilar tomonidan qurilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘chmas mulk bozoridagi spekulyasion vaziyatni yumshatish maqsadida xorij tajribasiga yuzlanadi hamda Bu borada Turkiyaning TOKI (Toplu Konut İdaresi) tashkiloti tajribasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Bu tashkilot uy-joy qurilishi va shaharsozlik sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda yetakchi o‘rin tutishini inobatga olib, mamlakatimizda ham ushbu tajribani amalga oshirish bo‘yicha o‘zining tavsiyalarini berib o‘tadi. Fikrimizcha, ushbu tajribani qo‘llash samara berishi mumkin. Ammo, hozirgi ijtimoiy siyosatni mamlakatimizda kuchli ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak ehtiyoj sezilmasligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki, bizda uy-joy kommunal xizmatlar uchun kommunal to‘lovlar arzon, ijtimoiy paketlarda aholini qo‘llab quvvatlashi bir tamonda bo‘lsa ikkinchi tamonda uy-joylar uchun to‘lanadigan soliqlar pastligi sabab bo‘la oladi.

---

[63] Xannarov K.K. O‘zbekistonda aholini uy-joy bilan ta’minlashdagi murakkabliklar va ularning yechimlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. 2024-yil, noyabr. № 11-son. 414 bet.

Tabiiy gaz kommunal xizmati bilan ta’minlanish darajasi 2012 yilda 87,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich 85,2 % ni tashkil etgan. O‘tgan davrga mos ravishda pasayish dinamikasi -1,9 % ni tashkil etgan. buning asosiy sabablaridan biri sifatida so‘ngi vaqtlarda ko‘p qavat;I uy-joylarning barpo etilishi, ishlab chiqarish korxonalarining ko‘payishi va avftomabillarning gazga bo‘lgan talabini ortib borish bilan ham asoslashimiz mumkin. Ammo, gaz resurslariga bo‘lgan talabning ortishi bilan birgalikda gazlashmagan hududlarda yashovchi aholi va ishlab chiqarish subyektlarini gazlashtirish maqsadida suyiltirilgan gaz ishlab chiqarish hajmi oshib bormoqda. Lekin, uning ijtimoiy-huquqiy munosabatlarini asoslash uchun qonunchilik normativlari yetarli darjada takomillashmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida sohada byokratik to‘siqlar va korupsion holalarning ortishiga olib kelmoqda.

Aholini markazlashgan suv ta’minoti kommunal xizmati bilan ta’minlash ko‘rsatkichlari 2012 yilda 81,4 % ni, 2024 yilda 85,5 % ni tashkil etgan. O‘tgan davrga nisbatan o‘sish dinamikasi0,1 % ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Suv ta’minoti kommunal xizmatlari keying vaqtlar pasayish dinamikasiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tizimda ko‘plab to‘siqlar mavjudligi ham buning pasayishga ta’sir qilmoqda. Masalan, monopol shakldagi boshqaruv, byokratik to‘siqlar, aholini toza ichimlik suvidan to‘g‘ri foydalanmasligi sabablarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Ammo, ushbu kamchiliklar bilan birgalikda viloyatda uy-joy kommunal xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha ham ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, ko‘plab xalqaro moliyaviy muassasalarning imtiyozli investitsiyalari, soha faoliyatini raqamlashtirish, modernizatsiya qilish, yangi xizmat ko‘rsatish servis korxonalar faoliyatini tashkil etilganligini aytib o‘tishimiz mumkin. Bulardan biri hozirgi vaqtda Samarqand viloyati Qorasuv maskanida joylashgan ko‘p qavatli uy-joylarga kommunal xizmat ko‘rsatuvchi “Boshqaruv Servis” kompaniyasi bo‘lib, ko‘p qavatli uylarga xizmat ko‘rsatishda o‘zining samarali faoliyati, xizmat sifatining yuqoriligi,

mobilligi, tezkorligi va korxona uchun rentabelligi bilan ajralib turibdi (2.1.2-rasmga qarang).



2.1.2-rasm. Samarqand viloyat Qorasuv maskanidagi “Boshqaruv Servis” kompaniyasining 2024 yildagi xarajatlari miqdori, (mln.so‘mda)[64]

“Boshqaruv Servis” kompaniyasi Qora suv maskanida joylashgan 6105 ta ko‘p kvartirali xonadonlarga samarali uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Bu holat aholini uy-joy kommunal xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Kompaniya faoliyatini tahlili qilganimizda bir oyda ko‘rsatilgan kommunal xizmatlar uchun tushim miqdori 247,3 mln.so‘mni, qilingan xarajatlar miqdori 150,0 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, qilingan foyda miqdori 97,3 mln.so‘mni tashkil qilmoqda. 2024-yilda uy-joy kommunal xizmatlar uchun tushim miqdori 2667,6 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, xarajatlar miqdori uchun sarf-xarajatlar 1800 mln.so‘mni tashkil etdi, shuningdek, 2024-yil uchun qilingan foyda 867,6 mln.so‘mni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilga ko‘rsatkichlar, olib brogan tahlil va tadqiqotlarimiz natijasida respublikamiz uy-joy kommunal xizmat

[64] Samarqand viloyat qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi ma’lumotlari asosida hisoblangan. https://samarkand.uz/uz

ko‘rsatish tizimida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish va islohotlarning asosiy mohiyatini quyidagilarga qaratish lozim deb hisoblaymiz:

– fuqarolarda mulkka egalik hissini uyg‘otish, davlat mulki bo‘lgan uy-joy fondini xususiylashtirish, DXSH (davlat xususiy sherikchilik) doirasida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish subyektlar faoliyatini tashkil etish, uy-joy mulkiga egalik huquqini beruvchi qonuniy-me’yoriy hujjatlar paketini takomillashtirish;

– uy-joy kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarni davlat tasarrufidan chiqarish, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida tabiiy monopoliyani tartibga solish, xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida sof raqobatni rivojlantirish, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini davlat budjeti mablag‘lari hisobidan faoliyat ko‘rsatishni bosqichma-bosqich tugatish, sohaga ajratilayotgan dotatsiya miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini boshqarishni takomillashtirish, turar joy binolarini saqlash va ta’mirlashda uy-joy mulkdorlar faolligini oshirish, mulkdorlarning o‘z-o‘zini boshqarish tamoyiliga asoslangan birlashma va shirkatlarini tashkil etish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatini bosqichma-bosqich to‘laqonli innovatsion, “yashil” va raqamli texnologiyalar bilan qurollantirish. To‘lov tizimlari, xavfsizlik masalalari, qulaylik yaratish, boshqaruv, nzaorat, monitoring, o‘zini-o‘zi energiya bilan ta’minlash, quyosh panellaridan ommaviy foydalanishni amalga oshirish va uni qonuniy asosini ishlab chiqish orqali mamlakatizmida uy-joy kommunal xizmatlarning samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, soha faoliyatini tezkorligi, uning institutsional asosini takomillashtirishda boshqaruv, huquqiy-me’yoriy baza, moliyalashtirish va ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligini mustahkamlash orqali amalga oshirishimiz mumkin (2.1.3-rasmga qarang).



2.1.3-rasm. Respublikada uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni institutsional asoslarini takomillashtirish yo‘llari[65]

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni institutsional asoslarini takomillashtirishimiz uchun 2-rasmda keltirilgan yo‘nalishlarni rivojlantirish orqali erishishimiz mumkin. Bunda respublikada strategik islohotlarni amalga oshirishimiz lozim bo‘lib, buni quyidagicha amalga oshirishimiz mumkin:

– amalda yuritilayotgan qonunlar, qarorlar, farmonlar va me’yoriy hujjatlarni zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sifati, uning narxi, shaffofligini tartibga soluvchi normativlarni joriy etish va xususiy sektor faoliyatini rag‘batlantiruvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish;

– sohaga xususiy investorlarni jalb qilish, kontrak asosida xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, “outsorsing” tizimlarini joriy etish shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni amalga oshirishning qulay muhitini yaratish;

– mahalliy hokimyat va o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga ko‘p qavatli uylar, mahallalar, ishlab chiqarish korxonalariga ko‘rsatiladigan

[65] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

kommunal xizmat sifati ustidan nazorat vakolatlarini berish va infratuzilmani boshqarishda aholi ishtirokini rag‘batlantirish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish ta’riflarini aholini to‘lov qobilyatidan kelib chiqib ijtimoiy-iqtisodiy asosidan kelib chiqib shakllantirish, subsidiya va imtiyozli kreditlar asosida infratuzilma loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va uy-joy fondini ta’mirlash, modernizatsiya, renovatsiya qilishga asoslangan jamg‘armalarni tashkil etish;

– “Smart kommunal xizmatlar” raqamli konsepsiyasini respublikada bosqichma-bosqich joriy etish, raqamli to‘lovlar, elektron monitoring, hisob-kitob, shikoyatlarni qabul qiladigan platformani shakllantirish;

– tizim faoliyatidagi rahbar, xodimlar, ishchilarni malakasini oahsirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish, xizmat ko‘rsatish madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan kontenetlarni targ‘ib qilish;

– uy-joy kommunal xizmatlarning istemolchilari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularning fikri, takliflarini qabul qilish, jamoatchilik yig‘inlari asosida xizmat sifatini nazorat qilish, ijtimoiy so‘rovnomalar va ochiq eshiklar kunini tashkil etish orqali istemolchilar o‘rtasida shaffoflikni ta’minlash islohotlarini amalga oshirish orqali uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni institutsionla asoslarini takomillashtirishimiz mumkin.

Olib borilgan institutsional tadqiqotlar natijasida uy-joy kommunla xizmat ko‘rsatish islohotlarining maqsadlaridan uch asosiy vazifani aniqladik:

– aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi sifati va mavjud xizmatlarni oshirish, bozor munosabatlari sharoitida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini yuksaltirish;

– budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni ta’minlash uchun fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish;

– kommunal xizmatlarni ta’minlash uchun uni tartibga solish, raqamlashtirish, qonunuchilik bazasini takomillashtirish va rivojlanish,

ishonchlilik hamda xavfsizlikni ta’minlash orqali respublikamizda soha faoliyatini yanada rivojlantirishimiz mumkin.

Olib brogan tadqiqotlarimiz natijasida respublikada uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni institutsional asoslarini takomillashtirish murakkab jarayon hisoblanib, unga ta’sir etuvchi omillarni to‘g‘ri baholashimiz, uni davlat manopol darajasida ekanligi, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyati qoniqarsiz ekanligi, xizmat ko‘rsatishni bazi turlarida hamon byokratik to‘siqlar, korupsion holatlat mavjud ekanligi, mavjud qonunlar, kodekslarni talab darajasida emasligi, soha faoliyatini moliyalashtirish yetarli emasligi hamda to‘laqonli raqamlashtirilmaganligini aniqladik. Bizningcha, ushbu to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida Respublika miqyosi bo‘yicha tizimli islohotlar olib borish, davlat dasturlari, strategiyalarini ishlab chiqish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, imtiyozli moliyaviy manbaalarni yo‘naltirish, xodimlarni malakasini oshirishni taqoao etmoqda. Shu maqsadda biz uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni institutsional asoslarini takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

Birinchidan, respublikada uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning institutsional asoslarini takomillashtirish maqsadida davlat, xususiy sektor, xorijiy homiylar va aholi hamkorligida uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi hamda qonunchilik bazasini takomillashtirish;

Ikkinchidan, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish jarayonida qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan foydalanish, uy-joylarni energiya quvvatini saqlovchi vositlar asosida qurish, yo‘laklar, podezlarni yoritish, isitish jarayonida quyosh panellaridan foydalanish hamda uni huquqiy tamondan asoslash hamda ko‘p qavatli uylarni qurish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish jarayonida byumlar internet texnologiyalaridan foydalanishni tadbiq etish, texnologiyalarni ishlab chiqarish, texnik xizmat ko‘rsatish, import qilinishida imtiyozlar berish;

Uchinchidan, maishiy chiqindilarni tashish, qayta ishlash, utilizatsiya qilish maqsadida hududlar kesimida institutsional islohotlarni “davlat-tadbirkor-aholi” tuqtai nazaridan faoliyatini

raqamli, innovatsion texnologiyalar yordamida sohada xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish;

To‘rtinchidan, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini barqaror va ishonchli ishlashini ta’minlash hamda mintaqaviy va mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga xususiy kapitalni jalb qilish uchun maxsus kafolatli agentliklar tashkil etish va bu orqali budjetni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish;

Beshinchidan, raqobat muhitini shakllantirish orqali aholiga uy-joy bilan xizmat ko‘rsatishni amalga oshiruvchi, kommunal unitar korxonalarni ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish jarayonini amalga oshiruvchi korxonalarning monopolistik holatini o‘zgartirish maqsadga muvofiqdir.

2.2. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida resurslardan samarali foydalanishning omilli tahlili

Jahon miqyosida raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida aholi sonini ortib borishi hamda aholining uy-joylarga bo‘lgan ehtiyojini yuksalishiga va buning natijasida sifatli kommunal xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini oshirishni talab qiladi. Bu jarayon o‘z vaqtida kommunal xizmatlarni ishlab chiqish, iste’molchilarga yetkazib berish va kommunal xizmatlar iste’moli uchun to‘lovlarni vaqtida amalga oshirishni taaqazo etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraydiga bo‘lsak xizmat ko‘rsatish korxonalarining resurslardan samarali foydalanish hozirgi zamon talablaridan biridir. Kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarida muhim resurslardan biri moliyaviy manbalari hisoblanadi.

Hozirgi sharoitdagi kommunal xizmatlar sohasidagi xususiylashtirish jarayonining kuchayishi, mulkchilikning jamoa shaklining taraqqiy etishi bilan belgilanadi. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi moliyaviy resurslarini faqat qiymat kategoriyasi sifatida tushunish samarali tadbirkorlik faoliyati uchun ularni ahamiyatini to‘la aks ettirmaydi. Shunga ko‘ra, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi moliyaviy resurslari mazmunini ularning o‘z majburiyatlari bo‘yicha vaqtida hisob kitob qilishlariga hamda takror

ishlab chiqarishni tashkil etishga imkon beruvchi pul mablag‘larining yig‘indisi sifatida tushunish mumkin. Bu o‘rinda kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi moliyaviy resurslarini faqat qiymat kategoriyasi sifatida tushunish samarali tadbirkorlik faoliyati uchun ularni ahamiyatini to‘la aks ettirmaydi.

Iqtisodchi olim I.T.Balabanovning “Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy resurslarini uning ixtiyorida mavjud bo‘lgan pul mablag‘lari tashkil etadi”[66]-degan fikri bizningcha o‘rinli hisoblanadi. Moliyaviy resurslar mohiyatini shunday talqin qilishning yana bir yorqin misolini E.A.Kozlovskaya kabi mualliflar fikrida ko‘rish mumkin. “Korxonaning moliyaviy resurslari – uning ixtiyorida bo‘lgan va turli moliyaviy majburiyatlarini bajarish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bo‘yicha va xodimlarni iqtisodiy rag‘batlantirish bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirishga qaratilgan pul daromadlari va tushumlaridir”[67]. Biroq, shunga alohida e’tibor berish lozimki rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida “pul mablag‘lari” tushunchasi ostida korxonaning bevosita uning kassasi va bankdagi hisob raqamlaridagi pul mablag‘lari hamda qimmatbaho qog‘ozlarda “foydalanuvchi qisqa muddatli yuqori likvidli sarmoyalar sifatidagi pul ekvivalentlari tushuniladi.

Moliyaviy resurslarining dastlabki shakllanishi kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi korxonalari ta’sischilari tomonidan uning ustav fondi tashkil etilayotgan vaqtga to‘g‘ri keladi. Hozirgi sharoitda uy-joy shirkatlar pay badallari asosan uy-joy egalari kapital qo‘yilmalar hisobiga shakllantirilganligidadir. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatuvchi soha korxonalarining ustav fondini tashkil topishi manbaiga xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakliga ko‘ra quyidagilar kiradi;

– shaxsiy jamg‘armalar;
– hissadorlik kapitali;

[66] И.Б.Балабанов, А.И.Балабанов Страхование. Учебник для вузов-СПб.: Питер 2003 г. 147стр.
[67]Э.А.Козловский. Логистичиский менежмент. Учебник. Москва 2002 г. 358 стр.

– shirkatlar yoki ma’suliyati cheklangan jamiyatlar a’zolarining pay badallari;

– budjet mablag‘lari, uzoq muddatli kreditlar.

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘z ichiga qamrab oladi (2.2.1-rasm).



2.2.1-rasm. Uy-joy kommunal xizmatlarni moliyaviy ta’minlash xususiyatlari[68]

Xususiylashtirish jarayonining kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida amalga oshirilishi natijasida mazkur sohaning ayrim muassasalarida moliyaviy resurslaridan o‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyillari asosida shakllantirish mexanizmi amal qila boshladi.

Ammo, mazkur korxonalar moliyaviy resurslarni shakllantirishda davlatning moliyaviy yordami shaklida kelib tushadigan mablag‘lari ham o‘zgacha saqlanib qolmoqda. Xususiylashtirilgan kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi muassasalarida moliyaviy resurslarini shakllantirishda o‘z-o‘zini moliyalashtirishga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

[68] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi muassasalarining moliyaviy resurslari tarkibida xususiy va unga tenglashtirilgan mablag‘lar muhim o‘ringa egadir. Shirkatlar yoki ma’suliyati cheklangan jamiyatlar a’zolarining pay badallari vositasida shakllantiriladigan mablag‘lar asosiy moliyaviy resurslar hisoblanadi. Hozirgi sharoitda kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha dotatsiyalar quyidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Samarqand viloyati uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasiga qarashli “Kommunal issiqliq markazi”ning mablag‘lari tarkibida o‘z mablag‘larining manbaai 2019-yilda 80,6 mln. so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021-yilda 90,3 mln. so‘mni tashkil qilgan. O‘z mablag‘larining manbalari passivlar tarkibida 2019 yilda 40,7 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib uning salmog‘i 46,2 % ni tashkil qilgan. O‘z mablag‘larining manbalari yillar mobaynida 112 % ga o‘sgan. Bu albatta majburiyatlarning qisqarishi va xususiy mablag‘lar salmog‘ining ortishini anglatadi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

Samarqand viloyati uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasiga qarashli “Kommunal issiqliq markazi” moliyaviy resurslari manbalari[69] (mln.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2021 y.	2023y.	O‘zgarishi %
O‘z mablag‘larining manbalari	80,6	86,4	90,3	112%
Majburiyatlar	117,2	107,8	104,8	89,3%
Jami passivlar	197,9	196,5	195,1	98,5%
O‘z mablag‘lari manbaining jami passivlardagi salmog‘i	40,7%	43,6%	46,7%	114,7 %

[69] Muallif tadqiqotlari asosida “Kommunal issiqliq markazi” balans ma’lumotlaridan foydalanildi.

Yuqoridagi ma’lumotdan kelib chiqib kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi muassasalari moliyaviy resurslarini tashkil topish manbalarini shakllantirish bo‘yicha quyidagi xulosalar keltirildi:

– moliyaviy resurslarining eng asosiy manbaai sifatida budjet mablag‘lari bilan birgalikda, o‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyili asosida tashkil etiladigan o‘z mablag‘lar salmog‘i ham ortib borish tendensiyasiga egaligi;

– aholini naqd pul shaklidagi to‘lovlar amalga oshiriyotganligi sababli aylanma kapital tarkibidagi muomala fondlari manbalarini shakllantirish va shu mablag‘lardan foydalanish imkoniyati oshib borishi;

– turli shakldagi kredit mablag‘larini ortib borishi kredit mablag‘larini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi;

– katta miqdordagi moliyaviy imkoniyatga ega bo‘lgan yirik kompaniyalar, tashkilotlar va homiylik mablag‘lari kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi muassasalari moliyaviy resurslarini tashkil topish manbalari hisoblanishidir.

Mamalakatimiz Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2017-yil 24-aprelda qabul qilingan “2017-2021 yillarda ko‘p kvartirali uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga binoan respublikamizdagi ko‘p kvartirali uy-joy fondini mukammal va joriy ta’mirlash tijorat banklari kreditlari, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarinining hisobvaraqlarida alohida to‘planadigan o‘z mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari kreditlari hamda lizing hisobidan moliyalashtirish manbalari etib berilishi xususiy uy-joy shirkatlari faoliyatini yanada rivojlanishini sohada innovatsion texnologiyalarni qo‘llanishini, aholiga sifatli kommunal xizmat ko‘rsatishiga zamin yaratdi.

Ushbu qarorga muvofiq birgina Samarqand shahar miqyosida amalga oshiriladigan ishlar kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi moliyaviy manbalarini oshishiga olib kelishini hamda aholiga

kommunal xizmat sifatini yuksalishini ko‘rishimiz mumkin (2.2.2-jadval).

2.2.2-jadval

Samarqand viloyatida 2017-2021-yillarda ko‘p xonadonli uy joy fondining umumiy foydalanadigan joylarning mukammal va joriy ta’mirlash parametrlari[70]

	Hudud nomi	**Jami ko‘p qavatli uylar soni**	**Shundan ta’mirlanadigan uylar soni**	**Jami sarflanadigan moliyaviy mablag‘lar qiymati (mln so‘m)**
	Samarqand shahar	1078	1078	60031
	Shu jumladan			
	2019 yil	1035	319	14484
	2020 yil	1042	308	14011
	2021 yil	1053	186	12521
	2022 yil	1065	122	8988
	2023 yil	1078	143	10027

Jadval ma’lumotlaridan shuni tahlil qilishimiz mumkinki qarorda belgilangan vazifalarga muvofiq Samarqand shahar ko‘p xonadonli uylarni ta’mirlash maqsadida jami 60031 mln. so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib bu mablag‘lar imtiyozli kretidlar, xorijiy moliya muassasi kreditlari, mahalliy hokimiyat organlari mablag‘lari hamda byujed mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bilan birgalikda ushbu mablag‘lar 2017-2021-yillar mobaynida ko‘p xonadonli uy-joylarni tom qismi, kirish yo‘laklari, ichki muhandislik tarmoqlarini, uylarni fasad qismlarini ta’mirlash, rekonstruksiya qilish maqsadida ishlatiladi. Ushbu jarayon amalga oshishi natijasida ko‘p xonadonli uy-joylar zamon talablariga javob beradigan, sanitariya-gigieniya qoidalariga,

[70] Muallif tadqiqotlari asosida “Kommunal issiqliq markazi” balans ma’lumotlaridan foydalanildi.

sifatli kommunal xizmat ko‘rsatadigan uy-joylar toifasiga kirishini mo‘ljallagan.

Biroq, hozirgi davrda zamon tez su’ratlarda rivojlanishini inobatga olgan holatda ushbu ta’mirlash jarayonlarini yanada zamonaviy jahon standartlariga javob beradigan darajada rekonstruksiya qilish maqsadli bo‘lar edi. Bu uchun yo‘laklarga zamonaviy va aqlli yoritgichlar o‘rnatish, “aqlli uy”, “xafsiz uy” tizimini joriy qilish elektr-energiyani tejashga, aholi xafsizligini, atrof-muhit tozaligini saqlashga olib kelar edi.

Tahlililar shuni ko‘rsatadiki hozirgi kunda Toshkent shahrida 2534 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari ko‘p qavatli uylarga xizmat ko‘rsatmoqda. Bir shirkatga o‘rtacha beshta uy-joy to‘g‘ri kelmoqda. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini kengaytirish ularga xizmat ko‘rsatadigan professional boshqaruv kompaniyalari tuzishni taqozo etadi. Ta’kidlash joizki bu borada o‘ziga xos tizim shakllantirilgan.

Respublikamizda Toshkent shahar xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari uyushmasi huzurida “Obodligim faxrim kommunal servis”, “Oltin sifat temir”, “Oltin vodiy qurilish ta’mirlash” professional boshqaruv kompaniyalari tarkibidagi chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi. Ular uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish, qurilish-ta’mirlash ishlarini sifatli bajarishga qodir mas’uliyatli texnik xodimlar mehnat qilmoqda. Bu kompaniyalar zarur inventar va transport vositalari, qurilish materiallari bilan ta’minlangan. Shirkatlarning xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlari shartnoma asosiga qurilmoqda. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari xizmatlar buyurtmachisi, professional boshqaruv kompaniyalari esa ularni bajaruvchidir. Biroq, ular hali ham xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari ishonchini qozona olgani yo‘q. Negaki, ko‘pchilik shirkatlar umumiy mulkni mustaqil boshqarishi, ularga xizmat ko‘rsatishi va ta’mirlashiga ko‘nikib qolgan. Ammo, uy-joy kommunal xizmatlari bozori bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda va kompaniyalar keng turdagi xizmatlarni taklif etmoqda. Shu o‘rinda xususiy uy-joy shirkatlari va professional

boshqaruv kompaniyalari o‘rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun keng miqyosli tushuntirish ishlarini amalga oshirish, ular o‘rtasida munosabatlarni rivojlantirish uchun zaruriy choralarni amalga oshirish, professional boshqaruv kompaniyalari faoliyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta’minlash, kompaniya xodimlarini malakasini xorijda orttirish, boshqaruvni zamonaviy usullarini qo‘llash, moliyaviy hisob-kitoblarni “online” tizimida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining o‘ziga maqbul pudratchini tanlash imkoniyati ham kengaymoqda. Soha oldida aholiga sifatli kommunal xizmatlar ko‘rsatish, professional boshqaruv kompaniyalari va kommunal xizmatlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari rahbarlarining malakasini oshirish kabi ko‘plab dolzarb muammolar turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Toshkent shahrida aholiga kommunal xizmatlar ko‘rsatish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida professional boshqaruv kompaniyalarini jadal tashkil etishga bag‘ishlangan majlisida ushbu masalalarni hal etish yo‘llari muhokama qilindi. Majlis yakuni bo‘yicha qabul qilingan qarorda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun zarur moliya, soliq imtiyozlari berish ko‘zda tutilgan.

Bizning fikrimizcha, ushbu kompaniyalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha zarur qonun va meyorlarini ishlab chiqish, asbob-uskunalar sotib olish bo‘yicha bojxona va boshqa imtiyozlar berish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan ta’minlash kompaniya samaradorligi uchun munosib hissa qo‘shgan bo‘lar edi. Shuningdek, yangi ish o‘rinlari yaratilib, xizmatlar sifati takomillashadi, aholining farovon yashashi uchun zamin hozirlaydi.

Yuzaga keladigan masalalarni tezlik bilan yechish, avariya holatlari va nosozliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish masadida “005” markaziy dispetcherlik telefon xizmati orqali buyurtmalarni qabul qilish, boshqaruv kompaniyalari va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari o‘rtasida ko‘p xonadonli uylarni ta’mirlash hamda ularga

xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar tuzish ishlarini yo‘lga qo‘yish jarayoni hozirgi vaqtda biroz sust ketmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun viloyatlar qoshidagi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limlari nazoratiga berish, moliyaviy hisob-kitoblar jarayonini kuzatishni “online” tizimini joriy qilish orqali qo‘yilgan masala yechimiga olib keladi.

Boshqaruv kompaniyalarining xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari bilan samarali o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yishda tuman xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari uyushmalari yaqindan yordam berib kelmoqda. Ular bugun shirkatlarni qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy markaz sifatida ularning manfaatlarini himoya qilmoqda va o‘zaro tajriba almashishlariga ko‘maklashmoqda. Shirkatlarni kengaytirish jarayoni asosan uy-joy mulkdorlarining tashabbusi bilan bundan buyon ham davom ettiriladi. Buning uchun yangi tashkil etilayotgan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi soddalashtirildi, ya’ni bu ish hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o‘n kun ichida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, uy-joy fondini zamonaviy hisobga olish priborlari bilan ta’minlash bo‘yicha izchil ishlar bajarilmoqda. Ushbu muhim ishlarning muvaffaqiyatli bajarilishi faqat mahalliy davlat boshqaruvi organlari yoki tajribali raisga emas, balki uy egalarining tashabbuskorligi, faolligi, yashayotgan uyining obod, toza hamda issiq bo‘lishi uchun nechog‘li harakat qilishiga ham bog‘liq. Eng muhimi, har bir odam qilinayotgan va bajarilishi ko‘zda tutilayotgan barcha ishlar u va oilasi uchun, turmush darajasi hamda sifatini yanada oshirish maqsadida amalga oshirilayotganini anglab yetishi darkor.

Fuqarolarning kommunal xizmatlarni iste’mol qilishning huquqiy va iste’mol madaniyati hamda faolligini oshirishga doir ishlarni izchil davom ettirish kerak. Ushbu jarayonda aholi o‘rtasida axborot-ma’rifat ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Ushbu xayrli ishlarga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi ham salmoqli hissa qo‘shmoqda. Uning o‘quv markazida shirkatlar raislari, uy-joy fondidan texnik foydalanish bo‘yicha xodimlar o‘qitilmoqda.

Bugun ko‘plab o‘quv-seminarlari va davra suhbatlari o‘tkazilayotganiga qaramay, hali ham bunday tadbirlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Uy-joy kommunal sohani zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan ta’minlash, ushbu sohada mehnat qilayotgan xodimlar malakasini oshirish, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari rahbarlarining ishchanlik qobiliyatini kuchaytirish belgilangan maqsadlarga erishish imkonini beradi. Bu borada ishlab chiqilgan chora-tadbirlar esa aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ko‘p xonadonli uy-joylarning texnik holatini yaxshilashga, moliyaviy manbalarni tejashga xizmat qiladi. Iqtisodiyotni bir tekisda rivojlanishi uchun kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi ham bir me’yorda ishlashi lozim. Chunki, kommunal xizmat ko‘rsatish sust faoliyat ko‘rsatsa ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sifati ham past darajani qayd etadi. Bular uzviy bir-biri bilan bog‘langan jarayondir.

Respublikamiz kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida moliyaviy resurslar va ularning manbalaridan samarali foydalanish uchun quyidagilarni amalga oshirishni ta’kidlash joizki, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi moliyaviy manbalarini ko‘paytirish maqsadida davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘larni oshirish, imtiyozli xorijiy grantlar, kreditlarni jalb qilish lozim. Shuningdek, ajratilgan moliyaviy manbalarni ishlatish samaradorligini oshirish va tejash maqsadida maxsus nazorat tizimini ishlab chiqish lozim. Yo‘naltirilgan mablag‘lar qay maqsadda ishlatilayotganini nazorat qilish va moliyaviy manbalarni tejash hozirgi davr talabidir. Buning uchun moliyaviy jarayonlarni amalga oshirishni “online” tizimini joriy etish, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, tizimga imtiyozli investitsiya va xususiy investorlarni jalb qilish, respublika uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga Toshkent shahar “Profesional boshqaruv” kompaniyalar tajribasini qo‘llash, tizimidagi rahbar-hodimlarni iqtisodiy savodxonlik darajasini oshirish moliyaviy manbalarni shakllanishiga, ularni tejashga va albatta kommunal xizmatlar sifatini yuksalishiga zamin yaratadi.

Aqlli hisoblagichlarni kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb qilinib amaliyotga qo‘llanishi bir qator qulayliklarni vujudga keltirmoqda. Kommunal xizmat ko‘rsatish subyektlari o‘rtasida xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha boshqaruv nazorati, sifatli xizmat ko‘rsatish mezonlarini takomillashtirishni taqoza etmoqda. Buning asosiy sabablari bo‘lib xizmat ko‘rsatish tizimini raqamli ko‘rinishga kelganligi, iste’molchilarning sonini ko‘payganligi, xizmat ko‘rsatish sifatining oshganligidir. Boshqaruv nazorati mezonini takomillashtirish maqsadida xizmat ko‘rsatuvchi va iste’molchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha jarayonlar mavjud qonun-qoidalar asosida raqamli ko‘rinishga keltirish, iste’molchi huquqlari, majburiyatlari va vazifalari hamda abonent faolligi haqida ma’lumot “online” tarzda iste’molchi dasturida ma’lumot berishi, kerakli vaziyatdan uni ogohlantirishi abonent faolligini ta’minlaydi, shuningdek, kommunal hizmat ko‘rsatish samaradorligini oshiradi. Sifatli xizmat ko‘rsatish me’zonlarini takomillashtirish natijasida iste’molchini faqat bir turdagi kommunal xizmat ko‘rsatishni sifati haqida ma’lumot bermasdan aksincha, iste’molchining barcha turdagi kommunal xizmatlar haqida ko‘rsatgichlar, narxi, kelajakdagi o‘zgarish holatlari (narxning o‘sishi, kamayishi, me’zondagi o‘zgarishlar, yangiliklar), baholanishi haqida batafsil ma’lumot berib boradi. Ushbu tavsiyalarni amaliyotga tadbiq etish natijasida aholiga sifatli kommunal xizmat ko‘rsatiladi, shuningdek, soha samaradorligi oshishiga olib kelinadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida yuqorida bayon etilgan kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida resurslardan samarali foydalangan holda quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini raqamlashtirishda mavjud resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy manbalarni izlab topish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bozorini samarali shakllantirish uchun innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayonida barcha resurslardan samarali foydalanish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida “Aqlli shahar”, “Xavfsiz shahar” milliy loyihasini amalga oshirish va unga resurslar bo‘yicha ehtiyojini o‘rganib chiqish;

– aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida mavjud resurslardan foydalanish jarayonida nazorat axborot muhitini shakllantirish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida blokcheyn texnologiyalari, va aqlli robot tizimlarini joriy etish uchun yangi moliyaviy manbalarni izlab topish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kommunal xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror sur’atlarda rivojlantirish hamda soha moliyaviy resurslari manbalari samaradorligini barqaror ta’minlash yo‘llaridan biri tejamkorlik hisoblanadi. Mazkur sohadagi tejamkorlik mijozlarning issiqlik, issiq va sovuq suv, gaz va elektr-energiyasi kabi kommunal xizmatlarni iste’mol qilish jarayonlarini muayyan me’yorlarga muvofiq holda tashkil etilishidagi munosabatlarini ifodalaydi. Ya’ni, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining moliyaviy-iqtisodiy salohiyat darajasi tejamkorlik faoliyatining barqarorligi bilan bevosita bog‘liq.

Bu holat kommunal xizmat korxonalari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar va bajarilgan ishlar xajmidagi tannarx shakllanishida ham o‘z aksini topmoqda. Ya’ni, an’anaviy xizmat usulidagi mavjud ta’riflar monopol xizmat ko‘rsatish korxonalarining o‘z salohiyatlaridan samarali foydalanmayotganligi bilan bir qatorda iste’molchilarning ham tejamkorligini rag‘batlantirmayotganligi bilan tavsiflanadi. Ya’ni, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida iste’molchilar tomonidan issiq va sovuq suv iste’molida surunkali ravishda isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilishi xali yechimini kutayotgan amaliy muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bu bilan kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi subyektlari barqaror rivojlanishiga erishish uchun moddiy va energiya resurslari sarfi tejamkorligi mexanizmini takomillashtirish yuzasidan ilmiy yondashuvlar ishlab chiqish zarur, binobarin, kommunal xizmatlar bo‘yicha tejamkorlik mexanizmining faollashuv darajasi tannarxning arzonlashuvi, kam mablag‘ bilan

xizmat ko‘rsatish ko‘lami va doirasini kengaytirish, sifatning yaxshilanishi kabilarga erishishda ustuvor omil hisoblanadi.

2.3. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirishda soha infratuzulmasini modernizatsiyalash usullari

Hozirgi paytda kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi fondining sezilarli o‘sishini ko‘rishimiz mumkin. Bunga sabab bo‘ladigan asosiy omil sifatida aholining o‘sishini (demografik bashoratlarga ko‘ra 2025-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 37,8 mln. kishini tashkil etib 1991 yilga nisbatan 15,7 mln kishiga, yani 58,7 % tashkil qilmoqda)[71] ta’kidlash lozim. Aholini shahar joylarga qarab intilishi, shahar aholisini ko‘payishi uy-joylarga bo‘lgan ehtiyoj oshishiga olib kelmoqda. Shahar aholisining keng qamrovli talabi bugungi kunda turar-joy binolarining yangisiga, sifatiga, jumladan, ularning xonalarni kattaligiga shuningdek, ularning joylashgan o‘rni quyosh nuri kesishishi nuqtalari, balandligi, daxlsiz eshiklar soni, atrofdagi maishiy ob’ektlar soni bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari o‘zgarish davrini o‘tkazmoqda. Kommunal xizmatlarning xususiyatlarini farqlash xizmatni tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, kommunal xizmatlarning asosiy xususiyatlaridan biri uyning asosiy xarakteristikasi bo‘lib faqat uyning umumiy maydonning kvadrat metrlari va takomillashtirish darajasi asosiy ahamiyatga egadir. Bunda albatta standart ko‘rsatgichlar inobatga olinadi, o‘z navbatida uy-joy standartlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: har bir oilaning individual yashashi, kamida alohida xonaga ega bo‘lgan barcha uy xo‘jaliklari a’zolarining xavfsizligi va yuqori standartlarga ega bo‘lishini taqoza etadi.

Shuning uchun shahar hududida barcha turdagi shahar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha shaharni rejalashtirish va muhandislik infratuzilmasini kompleks rivojlantirish dasturlari asosida

[71] O‘zbekiston statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida keltirilgan

amalga oshiriladi, keyinchalik resurslarni yetkazib beruvchi va kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni rivojlantirish investitsiya dasturlari ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, bozor xo‘jaligi subyektlarining tejamkorlik jarayoni olib boriladi (energiya tejovchi innovatsion choralar, energiya tejaydigan innovatsion tadbirlar, uy-joy kommunal infratuzilmasini sug‘urtalash, kommunal xizmatlarni yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida uy-joy fondini boshqaruvchi tashkilotlarning majburiyatlarini bajarish uchun qisqa muddatli kreditlar). Shuningdek, kommunal xizmati bozorining infratuzilmasida huquqiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish institutini takomillashtirish va aholining kommunal xizmatlarga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish zarur[72].

Energiya resurslaridan yanada samarali foydalanish, resurslarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va kommunal xizmatlarni yetkazib berish bosqichlarida muhim o‘zgarishlarni talab etadi. Resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hozirgi davrning asosiy talab va ehtiyojlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishda energiya tejashga ustuvor ahamiyat beriladi, bu xizmat ko‘rsatuvchi hamda ist’emol qiluvchi uchun ham manfaatli hisoblanadi. Kommunal xizmati sohasidagi buxgalteriya resurslarining vazifasi kommunal xizmatlar uchun hisoblagichlarni o‘rnatish orqali hal qilinadi. Shu munosabat bilan Prezidentimizning 2018 yil 23 oktabrdagi “Elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, 2021 yilgacha 7 milliondan ortiq iste’molchilarning barchasi hamda elektr-energiyasini ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va taqsimlovchi korxonalar yagona elektr-energiyasini hisobga olish va nazorat qiliishning avtomatlashtirilgan tizimiga to‘liq o‘tkaziladi. Shu maqsadda Andijonda 200 mingdan ziyod, Namanganda 550 mingdan ziyod, Farg‘onada 300 mingdan ziyod aholi xonadonlariga zamonaviy

[72] Скрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. ISBN 978-5-279-03540-3 Москва: Финансы и статистика, 2013 г., 288 с.

elektr hisoblagichlar o‘rtanatiladi. Shuningdek, issiqlik, suv va gaz ta’minoti kommunal xizmatlarini samaradorligini oshirish uchun ko‘p qavatli binolarni zamonaviy “online” dasturi asosida ishlovchi hisoblagichlar bilan ta’minlashga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonida hisoblagichlarni o‘rni beqiyos. Hozirgi vaqtda ikki xil hisoblagich mavjud umumiy uy va individual hisoblagichlar. Energiya tejamkorligi nuqtai nazaridan, kommunal xizmatlarini o‘lchagichlari muhim ahamiyatga ega, shuning uchun ularning o‘rnatilishi bo‘yicha statistikasi aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini isloh qilish ko‘rsatkichi sifatida kiritilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha bir qator davlat dasturlari qabul qilingan bo‘lib bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan “2017-2021-yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[73]gi Qaroriga muvofiq aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ko‘p xonadonli uy-joy fondining uy ichidagi muhandislik kommunikatsiyalari va umumiy foydalanadigan joylarni o‘z vaqtida va sifatli ta’mirlash, shuningdek, ko‘p xonadonli uy-joy fondiga tutash hududlarni bolalar va sport maydonchasini tashkil etish, kommunal xizmatlarni boshqarishni ta’sirchan vertikal tizimini yaratish va ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanish ishlarini va unga xizmat ko‘rsatish bozorini rivojlantirish, zamonaviy asbob uskunalar bilan jixozlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

2019-yil yakuniga ko‘ra o‘rnatilgan suv ta’minoti kommunal xizmatlarini hisobga olish o‘lchagich asboblari soni (jihozlash boshlangan davrdan) 1621,1 ming birlikni tashkil etdi, shu jumladan kvartira (uy) larda 1550,1 ming birlikni yoki markazlashgan suv

[73] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев тамонидан қабул қилинган “2017-2021 йилларда кўп хонадонли уй-жой фондини сақлаш ва ундан фойдаланиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғ‘рисида”ги Қарори. Тошкент. 2017 йил. www.lex.uz

ta’minoti bilan ta’minlangan kvartiralar (uy) lar umumiy sonining 43,5 % tashkil etadi.

Hududlar orasida sovuq suv ta’minoti kommunal xizmatlarini hisoblagich asboblari o‘rnatilgan (jihozlash boshlangan davrdan) kvartira (uy) larning asosiy qismi Toshkent shahriga (327,1 ming birlik), Farg‘ona viloyatiga (206,4 ming birlik) va Toshkent viloyatiga (200,2 ming birlik) to‘g‘ri keladi. Ushbu ma’lumotlar asosida Sirdaryo viloyatida sovuq suv hisoblagichlari 4,5 mingtani tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni, Sirdaryo viloyatida kommunal xizmatlarini hisoblagich asboblarini almashtirish jarayoni sust ketayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun hokimiyat mutasaddilari bilan birgalikda suv-oqava tashkilotini samarali yo‘l xaritasini ishlab chiqish hamda uni nazorat qilishni oshirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.



2.3.1-rasm. Hududlar kesimida yil oxiriga kvartira (uy) larda o‘rnatilgan suv ta’minoti kommunal xizmatini hisobga olish priborlari soni (jihozlash boshlangan davrdan), ming birlik[74] *(2019 yil yakuniga)*

[74] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Aholini kommunal xizmati bilan ta’minlash darajasini oshirish uchun davlatning markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalari va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali suv ta’minoti kommunal xizmatlari, kanalizatsiya va issiqlik ta’minoti kommunal xizmatlari tizimlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.



2.3.2-rasm. 2019 yil oxiriga O‘zbekiston Respublikasida kommunal xizmat ko‘rsatish bilan ta’minlanishi[75] %.

Respublikada kvartira (uy) larni o‘rtacha tabiiy gaz ta’minoti kommunal xizmati bilan ta’minlanganlik darajasi 59,2 % ni, qishloq joylarda ushbu ko‘rsatkich 39,4 % ni, 2022 yil oxirida 31,3 % ni kvartira (uy) larning issiq suv ta’minoti kommunal xizmati bilan ta’minlandi. Qishloq joylarida bu ko‘rsatkich - 9,7 %ni, issiqlik bilan - 44,3 % ni kvartira (uy)lar, shu jumladan qishloq joylarida - 24,9 % ga ta’minlandi. Respublikada kanalizatsiya ta’minoti kommunal xizmati bilan - 35,8 % ga, qishloq joylarida - 10,8 % ni tashkil etdi.

Keyingi davrda mamlakatimizda amalga oshirilidagan islohotlar o‘z mevasini bermoqda. Hamma sohada bo‘lgani kabi kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida ham o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

[75] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

Kommunal xizmat ko‘rsatishdagi eng og‘riqli nuqtalaridan biri bu to‘lovlar jarayoni bo‘lib, ushbu muammoni hal etishda “aqlli hisoblagichlar” o‘rnatilishi muammonmng yechimi sifatida ko‘rilmoqda. Buning natijasida hozirgi vaqtda iste’molchilarning kommunal xizmatlarni iste’mol qilish madaniyati yuksalgani va amalda iste’mol qilingan xizmatlar uchun to‘lovlar vaqtida amalga oshirilmoqda. Statistik ma’lumotlarga qaraganda to‘lov jarayonlarini o‘sganini ko‘rishimiz mumkin (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Aholiga ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarning oldingi yilga nisbatan o‘sish surati % hisobida [76]

№	Kommunal xizmat turlari	2016 yil	2018 yil	2022 yil
1	XUMSh, ekspluatsiya xarajatlar xizmatlari	109,7%	110,3%	112,9%
2	Sovuq suv va kanalizatsiya xizmatlari	106,5%	111,4%	113,8%
3	Issilik ta’minoti xizmatlari	109,4%	108,6%	113,3%
4	Issiq suv ta’minoti xizmatlari	110,0%	109,6%	112,1%

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida aholiga ko‘rsatiladigan uy-joy xizmatlar uchun to‘lovlar o‘sish sur’atini ko‘rishimiz mumkin. 2016 yilda XUMSh, ekspluatsiya xarajatlar to‘lovi 109,7% ni tashkil qilgan bo‘lsa 2022 yilga borib 112,9% ni tashkil qildi. Issiqlik ta’minoti kommunal xizmatlari uchun to‘lovlar 2016 yilda 109,4% ni tashkil qilgan bo‘lsa 2017 yilga borib 108,6% ni tashkil qildi. 2016 yilga nisbatan 2018 yilda issiqlik ta’minoti kommunal xizmatlari uchun to‘lovlarni o‘sish sur’atini pasayish darajasini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, 2020 yilga borib bu ko‘rsatgich 113,3% ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizcha, kommunal xizmatlar uchun kommunal xizmatlar to‘lovlar darajasini oshirish imkoniyati mavjud. Buning uchun soha to‘lov jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish, boshqa kommunal xizmatlar turlariga ham “aqlli hisoblagich”larni o‘rnatish,

[76] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида hисобланган.

“aqlli uy” tizimini tadbiq etish to‘lovlar samaradorligini oshishiga, cheklangan resurslarni tejalishiga va ortiqcha xarajatlarni sarf bo‘lishini oldini olgan bo‘lar edi.

Bizning fikrimizcha, kommunal xizmatlari bozorini va innovatsiyalarni qoidalarini ishlab chiqish va ularni ta’minlash lozim. Mazkur xizmatlarning narxini hisoblash tartibi, energetika kompaniyalari va innovatsion va muhandislik kompaniyalarining tender savdosida ishtirok etish shartlari, energiya xizmatining odatdagi kontratsiyalari va ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash sxemalarini ishlab chiqish uchun shart-sharoitlar yaratilishi tavsiya etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini innovatsion shakllari “universal uy-joy kommunal xizmati”, “aqlli uylar”, “xavfsiz uylar”ni kommunal xizmatlar hisob kitobini raqamlashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu xizmat ko‘rsatish tizimlari zamon talablariga mos bo‘lib, aholi farovonligini ta’minlashga, kommunal xizmatlarning sifati oshishiga shuningdek, ularning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bizga ma’lumki XXI asrga kelib inson omiliga alohida e’tibor berila boshladi. Chunki, eng qimmat omillardan biri inson resurslari hisoblanadi. Inson resurslarini shakllantirishda kommunal xizmatlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Inson ishchi kuchi qobilyatini tiklash uchun dam olishi, oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol qilishi, ma’daniy hordiq chiqarishi kun tartibidagi masala hisoblanadi. Buning uchun, avvalo insonga tinchlik, xavfsizlik, qulay sharoitlarning mavjud bo‘lishini taqoza etadi. Bu shart sharoitlar bilan “aqlli uylar” hamda “xavfsiz uylar” xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu tizimdan foydalanish nafaqat insonlarni ish qobilyatini qayta tiklashga shuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshishiga, qayta tiklanmas resurlarning tejalishiga va natijada kelajak avlodlarga ham yetib borishiga xizmat qiladi. “Universal uy-joy kommunal xizmati” xizmatini raqamlashtirish orqali kommunal xizmatlarni yetkazib berish, to‘lov hisob-kitoblarini amalga oshirish, resurslar (elektr-energiyasi, gaz, suv) tejalishiga, vaqtni tejashga, korupsiya holatlarini kamayishiga xizmat qiladi.

Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini innovatsion shakllari “universal uy-joy kommunal xizmati”ni, aqlli uylar kommunal hisob kitobi raqamlashtirish asosida rivojlantirishiga olib keladi. Buning uchun kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida aholi turar-joy binolari avtomatlashtirish, ya’ni “Aqlli uylar” bunyod etish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda “Aqlli uy” tizimini yaratishda havo harorati, namlik darajasi, atmosfera bosimi va yoritilganlik darajasi, uy-joy xavfsizligini ta’minlash darajasi kabi ko‘rsatkichlarni nazorat qilishni raqamlashtirishdan keng foydalanib kelinmoqda.

“Universal uy-joy kommunal xizmati”ni amalga oshirish uchun innovatsion kommunal xizmat ko‘rsatish (“aqlli hisoblagichlar”, “aqlli uy”, “xafsiz uy”, “aqlli shirkat”) turlardagi ma’lumot beruvchi qurilmalardan foydalanish talab etiladi. O‘z navbatida, mazkur qurilmalarni birgalikda ishlash jarayonini tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Bundan tashqari, qurilmalarni ishlash jarayonini nazorat qilish uchun maxsus bilim va ko‘niklarmaga ega xodimlar jamoasi talab etiladi. Ishchi-xodimning ishini nazorat qilish jarayoni boshqaruv subyektlari uchun qo‘shimcha mas’uliyat yuklaydi. Bu esa tabiiyki, qo‘shimcha moddiy, moliyaviy va inson resurslarini talab etadi.

Fikrimizcha, muammolarni bartaraf etish maqsadida masofaviy qurilmalar tizimi lozim bo‘lib, u to‘liq avtonom tarzda, inson aralashuvisiz belgilangan hududdagi havo parametrlari, xususan:

- havo harorati va nisbiy namligi, atmosfera bosimi va yoritilganligini aniqlashi;
- ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda qo‘shimcha qurilmalarni avtomatik tarzda, mustaqil ishga tushira olishi hamda elektr manbaaidan uzib qo‘yilishini ta’minlashi kerak bo‘ladi.

Bizningcha, “Benuks” tizimidan foydalanilsa sifati va xavfsizlik koefsenti ortadi. Chunki, “Benuks” - bu ko‘p funksiyali va protokolli tizim bo‘lib, o‘zining qulayligi uchun nazorat va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. (2.3.3-rasm)



2.3.3-rasm. Universal uy-joy kommunal xizmati tizimi[77]

“Kommunal xizmati” tarkibiga kiradigan xizmatlarni tanlashning asosiy mezonlar sifatida e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

– O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan aholi punktlarida kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlarini ta’minlash majburiyati;

– ularni doimiy yoki vaqtinchalik yashash joylarida O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga yetkazib berish majburiyati;

– xizmatlarning nomenklaturasi mijozlariga minimal darajadagi zaruriy hayotni qo‘llab-quvvatlash;

– kommunal xizmatlar iste’molchilarga o‘z vaqtida sifatli, arzon narxda, kelishuv asosida tashkil etilgan holatda yetkazilishi kerak.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda “universal uy-joy kommunal xizmat” xizmatlarini ko‘rsatish maqsadga muvofiqbo‘ladi. Bular quyidagilar:

– elektr-energiyasi ta’minoti kommunal xizmatini yetkazib berish;

[77] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

– ichimlik suvi ta’minoti kommunal xizmati bilan ta’minlash;

– issiqlik energiyasini yoki energiya tashuvchi ta’minoti kommunal xizmatilarini ta’minlash.

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish bozorida raqobat muhiti mavjud bo‘lishi tizimni samarali ishlashida munosib hissa qo‘shadi. Chunki, kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasida ta’rif tartibga solinishi kerak, sifatga qarab farqlash tamoyilini ko‘rib chiqib aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi taqdim etilishi (qulayligi), ularning oralig‘i va ta’rifining o‘z ichiga doimiy va o‘zgaruvchan qismlarni o‘z ichiga olishi lozim.

Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat bo‘lishi mumkin bo‘lgan korxonalarda ta’riflarni shakllantirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– kommunal xizmatlari ta’riflarining sifat va narx ko‘rsatkichlari asosida;

– kommunal xizmat turlarining assortimenti natijasida ta’rifni asoslash, to‘liq to‘plam yoki individual xizmatlarni taklif qiladi;

– doimiy va o‘zgarmaydigan qism ta’rifiga ajratiladi.

Ikki tomonlama ta’riflarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ulardan foydalanish ma’lum darajada daromad manbai uchun resurslarni taqsimlash samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda bo‘lgan tabiiy monopoliya sharoitida marjinal xarajatlar (monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha eng yaxshi yechim) asosida narxlarni yo‘qotish va resurslarning maksimal samaradorligini va xarajatlarini qoplashni ta’minlaydigan narx tuzilmasini shakllantirishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Lineer bo‘lmagan narxlanishning eng taniqli namunasi bir hil ikki qismli (ikki komponentli) ta’rif hisoblanadi. Mahsulot va narxlarni sotib olish huquqi uchun belgilangan narxdan iborat. Bunday holatda, homogenlik muayyan iste’molchining turiga nisbatan qat’iy belgilangan to‘lovning mustaqilligi sifatida baholanadi. Bunday ta’riflarning paydo bo‘lishining sababi qattiq va o‘zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarining mavjudligi edi.

O.Uilyamson kommunal xizmatlar uchun ikki tomonlama ta’rifdan foydalanish imkoniyati haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Kommunal xizmatlar uchun narxlash tizimi, unga ko‘ra foydalanuvchilarning o‘zlari manbaaga ulanish uchun oldindan to‘lovlarni amalga oshirishlari ikki tomonlama narxlanishning qiziq xususiyatlari mavjud. Sotuvchilarning xaridor investitsiyalarini avans to‘lovi olganidan keyin ekspluatatsiya qilish xavfi zaiflashishi kuzatiladi, bu esa qulaylik uchun tomonlarning munosabatlarini tartibga solish uchun komissiya deb atalishi ehtimoldan yiroq emas. Kommunal xizmatlarning narxi cheklanadigan xarajatlarga imkon qadar yaqin darajada o‘rnatilishi tabiy holat hisoblanadi”[78].Elektr ta’minoti kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida ikki tomonlama ta’rif bo‘yicha qat’iy belgilangan to‘lov odatda iste’molchilarning quvvat ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘ladi. Foydalaniladigan indikatorlar aniqlanishi, ulangan bo‘lishi, maksimal quvvatga egaligi, o‘zgaruvchan elektr-energiyasi birligiga to‘g‘ri kelishi bilan ajralib turadi. Elektr-energiyasiga o‘rnatilgan quvvat va iste’mol qilinadigan elektr-energiyasi, shuningdek elektr ta’minoti tizimiga ulanishi (abonent to‘lovi) uchun haq to‘lanadi. Ko‘p ta’riflar, asosiy stavka qo‘shimcha ravishda, elektr tizimining turli ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha stavkalarga ega bo‘lib abonent to‘lovini minimallashuviga olib keladi.

Shunday qilib, energetika muhandislari iste’molchilarni bunday rejimlarga o‘tish uchun iqtisodiy jihatdan qiziqtirmoqdalar va buning natijasida ular energiya tizimining texnik va iqtisodiy samaradorligini oshirishiga zamin yaratadi. Doimiy ish haqi miqdoridan tashqari, elektr-energetika ta’minoti kommunal xizmatlari iste’molchilarning elektr qurilmalarida reaktiv quvvatni qoplash uchun ta’riflarga chegirmalar va qo‘shimchalar tizimidan foydalanishi ist’emolchilarga qulayliklar yaratadi.Ikki qismli ta’rif rejalari har xil bo‘lishi mumkin, biroq iste’molchi tamonidan abonent to‘lovi yoki akkord summasini

[78] О. Уилямсон, коммунал хизматлар учун икки томонлама тарифдан фойдаланиш. Дарслик. Москва 2012 йил 354 б.

to‘lash, oldindan to‘lov (kapitallashtirilgan obuna to‘lovi), keyin yetkazib berilgan resursning har biriga to‘lov bilan belgilanadi[79].

Shunday qilib, biz ikki tomonlama ta’riflar kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari xarajatlarini shakllantirish mexanizmi va bu xarajatlarni tiklash mexanizmi o‘rtasidagi mos kelmaslik muammosini hal qilishga imkon beradi deb hisoblaymiz. Ta’rif siyosati muammolarini o‘rganish kommunal daromadlarni ikki qismda shakllantirish kerak degan xulosaga keladi: o‘zgaruvchan sarf-xarajatlar iste’mol qilinadigan xizmatlar miqdori va iste’mol qilingan xizmatlar sonidan qat’iy nazar qat’iy xarajatlarga mutanosib ravishda kompaniyaga qaytarilishi kerak. Ya’ni, ikki qismli ta’rifning sobit qismini sobit xarajatlar asosida, o‘zgaruvchan - kommunal xizmatlar korxonalari xarajatlari tarkibiga mos keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar asosida aniqlash tavsiya etiladi.Bizning fikrimizcha, davlat tomonidan yetkazib beriladigan standart shartnomalarni ishlab chiqish va tasdiqlash kommunal xizmatlarni sotish, kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarning to‘liqligi va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlaydigan bozor tashkilotlaridan foydalanish, shu bilan birga hukumat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlarni yanada to‘liq huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiqdir.Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi texnika-texnologiyalari, ishlash mexanizmlari, boshqaruvi sobiq ittifoq davrda o‘rnatilgan bo‘lib hozirgi davrda ham ko‘plab asbob-uskunalar hali ham o‘sha texnologiya asosida ishlamoqda. Ushbu sohani modernizatsiya qilish uchun kerakli yo‘nalishni tanlab olish maqsadga muvofiq. Shu maqsadda, biz kerakli yo‘nalishni tanlab olishimiz lozim, bu albatta o‘zimizga tanish va modernizatsiya jarayonini tezlashtiradigan va samarali ishlaydigan yo‘nalish sifati MDH davlatlar tajribasi qo‘llashimiz maqsadli bo‘ladi.

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi infratuzilmasini modernizatsiya qilishning misoli Rossiya tajribasidir. Rossiya yirik issiqlik ta’minoti kommunal xizmat ko‘rsatish kompaniyasi bo‘lgan

[79] Скрипник О.Б. Реформирование регионалного жилищно-коммуналного комплекса: методология и практика. ISBN 978-5-279-03540-3 Москва: Финансы и статистика, 2013 г., 288 с.

Moskva energetika kompaniyasining (MEK) tajribasini olishimiz mumkin. 2005-yildan beri kompaniya markaziy issiqlik punktlarida o‘zgarmaydigan chastotalarni o‘rnatish uchun dasturlarni amalga oshirdi. Bugungi kunda MEK issiqlik elektr stansiyalaridagi tarmoq nasoslari, ventilatorlari va tutunli chiqindilarida taxminan 60 ta yuqori voltli VFD ishlab chiqariladi. Ularning ishlashi natijasida tarmoq energiyasini tejash, tarmoq nasoslari uchun o‘rtacha 30%, ventilator uchun 40% va tutunli chiqindilar uchun 75% ga teng. Kuchlanishli chastotali konvertorni kiritish qurilmaning iste’mol qilinadigan energiyasidan 20% dan 30% gacha tejaydi. Bu holat kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarini samarali ishlashida hamda kommunal xizmatlar yetgazib berish jarayonini oshiradi.

II BOB bo‘yicha xulosa

1. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirishni institutsional xususiyatlari tahlil qilindi. Tahlillar natijasida kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida islohotlarni uch bosqichga bo‘linishi, aholini kommunal xizmat turlari bilan ta’minlaganlik darajasi, shuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi institutsional o‘zgarish davrlari o‘rganilib zarur xulosalarga kelindi.

2. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi muassasalarining moliyaviy resurslari va ularni tashkil topish manbalari tahlil qilish orqali sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning moliyaviy nuqtalari aniqlandi va pul mablag‘lari aylanishi tahlil etish orqali tizimni rivojlantirish, modernizatsiya qilish, moliyaviy manbalarni raqamli ko‘rinishda nazorat qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirishda soha infratuzulmasini modernizatsiyalash taklif qilindi, kommunal xizmatlari bozorida xizmatlarning narxini hisoblash tartibi, energetika kompaniyalari innovatsion, muhandislik kompaniyalarining tender savdosida ishtirok etish shartlari, energiya xizmatining odatdagi ta’riflari va ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tuzilmalarini ishlab chiqish tavsiya etildi.

III BOB. AHOLIGA KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

3.1. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda xarajatlarni optimallashtirish yo‘llari

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida xarajatlarni tejash, mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanish, raqamli kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini joriy qilish orqali xizmat sifatini va uzluksizligini ta’minlash hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev tamonidan 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida “…kommunal xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish, intellektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun “aqlli uy” tajribasini joriy etish”[80] deb ustuvor vazifa belgilab berganliklaridan keilib chiqib, uy-joiy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida resurslardan samarali foydalngan holda kamxarajatlikni tadbiq etishnin talab etmoqda. Shuningdek, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida izchil islohotlarni olib borishni, kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini tejab-tergashni, shuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatish boshqaruv jarayonini samarli tashkil etishni talab qiladi. Bu holat xizmat ko‘rsatish sifatini hamda samaradorligini yuksalishi, aholi turmush farovonligi oshishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hozirgi davrda kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalar xarajatlarni kamaytirish strategiyasidan foydalanadilar, unda xodimlar: xarajatlarga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rgananish; texnologik jarayonlarning standartlarga muvofiqligini tekshirish; optimal yukni hisoblash ishlab chiqarish ustaxonalari; ishdagi uzilishlar sabablarini

[80] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev tamonidan 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan “Raqamli O’zbekiston – 2030” Strategiyasida to’g’risidagi PF- 6079-son Farmoni. Toshkent:. www.lex.uz

aniqlash; kommunal xizmatlarni jo‘natish yoki qabul qilish paytida nosozliklar mavjudligini nazorat qilish aniqlash kabi metodlardan foydalanadilar. Shundan so‘ng, xarajatlarni tahlil qilish va optimallashtirish ishlari olib boriladi va aniqlangan xarajatlarni kamaytirish dasturini belgilaydilar, keyin kommunal xizmat ko‘rsatish korxona boshqaruvchilari uni ko‘rib chiqadi[81].

Shuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida xarajatlarni kamaytirishni bo‘yicha iqtisodiy shart-sharoit bo‘lishi talab etiladi. Bunday shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

1. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni kelgusida xarajatlarni kamaytirib borish strategik rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. Kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonaning qisqartiriladigan xarajatlar moddalarining eng batafsil maqsad qiymatlarini ta’minlashdir. Ushbu tadbirlar doirasida butun kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxona uchun xarajatlarni kamaytirish mumkin bo‘lgan tomonlarni aniqlab, har bir tarkibiy bo‘linma bo‘yicha esa sohadagi moliyaviy intizomni kuchaytirish rejasini ishlab chiqish rejalashtirilgan bo‘lishi lozim.

2. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari qarzni qaytarishga qaratilgan choralarni qo‘llash shuningdek, korxonaning o‘zi zudlik bilan budjet to‘lovlarini, xodimlarga va kontragentlarga to‘lovlarni amalga oshirishi kerak, bu esa jarimalardan korxonalarni saqlab qoladi.

3. Xarajatlarni me’yorlar asosida qatiy intizomiga rioya qilish. Moliyaviy intizomga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar shakllantiriladi. Xususan, tasdiqlangan ma’lumotlarga qat’iy amal qiladigan reja ishlab chiqiladi. Boshliq tomonidan qabul qilingan va budjetda belgilab qo‘yilgan qarorlar faqat alohida hollarda buzilishi mumkin. Xususan, xarajatlarni kamaytirishni rejalashtirish vaqt bo‘yicha bo‘linadigan tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi[82].

---

[81] Петрова Е.А., Будлянская Н.И. Оптимизация затрат на предприятии (на примере оао "хабаровский судостроителный завод") Science Time. 2015. № 4 (16). С. 611-615.

[82] Нифонтов А. И., Тюфякова О. П. Формирование бюджетов филиалов-шахт уголной компании. Новокузнецк, 2005. 44 с.

4. Buxgalteriya hisobini ilmiy asosda zaruriy hisob-kitob asosida tashkil etish. Korxona xarajatlarini muntazam ravishda qisqartirish uchun moliyaviy hisob va nazorat tizimini joriy etish zarur. Buxgalteriya hisobiga nafaqat xarajatlar, balki kommunal xizmat koʻrsatuvchi korxona daromadlari ham kiradi.

5. Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari qarzni qaytarishga qaratilgan choralarni qoʻllash shuningdek, korxonaning oʻzi zudlik bilan budjet toʻlovlarini, xodimlarga va kontragentlarga toʻlovlarni amalga oshirishi kerak, bu esa jarimalardan korxonalarni saqlab qoladi.

6. Xarajatlarni kamaytirish boʻyicha doimiy monitoring oʻtkazish. Xarajatlarni pasaytirish samaradorligini baholash uchun doimiy ravishda doimiy monitoring olib borish zarur, bu esa tegishli xarajatlarni kamaytirish uchun rejaga zarur tuzatishlar kiritish bilan mumkin boʻlgan yetishmovchiliklarni, texnologik yoʻqotishlarni baholashga imkon beradi. Bu jarayon ular ichida taxmin qilinadi zaif tomonlarini aniqlash bilan butun korxona uchun rejani ishlab chiqishni oʻlchaydi, bu yerda xarajatlarni kamaytirish mumkin va har bir tarkibiy boʻlinma uchun mahalliy moliyaviy intizomni mustahkamlash mumkin boʻladi.

7. Uy-joy kommunal xizmatlardan keladigan doimiy daromadlar va xarajatlar bilan asosiy monitoringni olib borish. Har qanday natija, shu jumladan salbiy, qoʻshimcha xarajatlarni kamaytirish uchun ehtiyotkorlik bilan tekshirilishi kerak. Uy-joy kommunal xizmatlarni arzonlashtirilgan narxlarda sotishga majbur qiladigan ishlab chiqarish yoʻqotishlarini tahlil qilish kerak. Kamchiliklar, oʻzgartirishlar va rad etishlar ham alohida e’tiborga olish lozimdir.

Oʻzbekiston Respublikasining iqtisodiyotida oʻsish sur’atlarida pasayish tendensiyalari sababli, kommunal xizmat koʻrsatuvchi subyektlarni xarajatlarni optimallashtirishning quyidagi usullarini koʻrib chiqish zarur boʻladi:

– xarajat tashuvchilaridan foydalanish usuli;
– Pareto qonunini qoʻllash;
– xarajatlarni taqqoslash;

– maqsadli xarajatlar va boshqalar.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida xarajatlarni tashuvchilardan foydalanish usulida quyidagilar: - xarajatlar qiymatiga ta’sir qiluvchi sabablar, omillar bo‘yicha yondoshuv bo‘lib eng oddiy usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usulda kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonaning xizmat ko‘rsatish jarayonlari bo‘yicha xarajatlarni tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini asoslash xarajatlarni optimallashtirishga imkon beradi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida Pareto qonunining qo‘llanilishi bo‘yicha yondoshuv. Muhim xarajatlar moddalari aniqlash lozim bo‘lib unda sezilarli darajada xarajatlarni tejash mumkin bo‘ladi. Kommunal xizmat ko‘rsatish effektining 80 foizini olish uchun eng katta ulushni (20 foiz) tashkil etadigan xarajat moddalarini aniqlash va optimallashtirish kifoya. Ya’ni, sezilarli darajada tejashga erishish uchun katta xarajatlarni qisqartirish zarur[83].

Uy-joy kommunal xizmatlarda xarajatlarni taqqoslash, jadvallarni tuzish, taqqoslash. Benchmarking – bu kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxona faoliyatini har qanday mos analog bilan taqqoslash orqali baholash tizimi. Uy-joy kommunal xizmatlar xarajatlar jadvalidan tendensiyalarni tahlil qilishni taqozo etadi. Usul oldingi davrlardagi xarajatlarning o‘zgarishini tahlil qilishni, muhim xarajatlarni, ularning og‘ishlarini, sabablarini aniqlashni va keyinchalik og‘ish sabablarini bartaraf etish choralarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

ABC usuli uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonaga operatsiyalar narxini va unumdorligini yuqori ishonchlilik darajasi bilan aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va kommunal xizmat tannarxini hisoblash imkonini beradi. Ko‘pincha, ushbu usul bilan olingan ma’lumotlar an’anaviy hisoblash usullari natijalaridan tubdan farq qiladi.

Uy-joy kommunal xizmatlarda maqsadli xarajatlar - bu rejalashtirilgan bozor bahosi va sotishning kutilayotgan rentabelligi asosida yangi mahsulotlar tannarxini shakllantirish hisoblanadi. U

[83] B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik).-T.: “Barkamol fayz media”, 2017, 356 bet

doimiy ravishda yangi modellar va mahsulotlar turlari ishlab chiqilayotgan ishlab chiqarish korxonalarida, innovatsion sohalarda qo‘llaniladi.

Uy-joy kommunal xizmatlarda Kaizen kosting - bu maxsus korxona dasturi natijasida xarajatlarni bosqichma-bosqich va doimiy ravishda qisqartirish. Konsepsiyaning asosiy maqsadi qo‘shilmaydigan operatsiyalarga sarflanadigan vaqtni qisqartirishdir. Bunday operatsiyalarga saqlash, to‘plash, harakatlanish xarajatlari va h.k.

Uy-joy kommunal xizmatlarda SSM usuli (qiymat zanjiri). Qiymat zanjiri, har qanday tashkilot uchun, qiymatni yaratadigan, tarkibiy qismlarni yetkazib beruvchilar uchun xom ashyoning dastlabki manbalaridan tortib, oxirgi foydalanuvchiga yetkazib beriladigan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan faoliyatning izchil to‘plamidir. Bu yerda asosiy e’tibor xizmat ko‘rsatish korxonalari tashqarisida sodir bo‘layotgan jarayonlarga qaratilgan bo‘lib, har bir tashkilot ushbu zanjirning bir qismidan biri sifatida xom ashyodan tortib to oxirgi iste’molchiga qadar qiymat yaratadigan faoliyatning umumiy zanjiri doirasida qaraladi[84].

Yuqorida keltirilgan usullar kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning xarajatlarni tejash imkoniyatlarini beradi biroq, muayyan usulni tanlashga kelsak, ABC usulidan foydalanganda narxlash va bashorat qilish uchun to‘g‘ri ma’lumotlar ishlatiladi, ammo bu usulni har kuni ishlatish juda qiyin. Masalan, xarajatlar ob’ekti uslubidan farqli o‘laroq, bu eng sodda usullardan biri hisoblanadi. Pareto qonuni faqat eng muhim moddalarga taalluqlidir, shu bilan birga xizmatlarni boshqarish darajasi xarajatlarni boshqarishda to‘siq bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xarajatlarni taqqoslash, jadvallarni tuzish, taqqoslash usuli bir qator muammolarga ega: ko‘plab korxonalar o‘z xarajatlari tuzilishini bilishmaydi; kompaniyalar xarajatlarni qisqartirish bo‘yicha aniq maqsadlarga ega emas. Maqsadli xarajatlarning afzalliklari: u xodimlarning e’tiborini ichki omillarga emas, balki tashqi omillarga qaratadi. Bunda

[84] Петрова Е.А., Будлянская Н.И. Оптимизация затрат на предприятии (на примере оао "хабаровский судостроителный завод") Science Time. 2015. № 4 (16). С. 611-615.

muammolar kommunal xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limlarning manfaatlari to‘qnashuvi har doim ham xarajatlarni pasaytirish barcha bo‘limlar uchun bir xil darajada foydali emasligi, menejerlar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi ziddiyat xodimlarning motivatsiyasi bilan bog‘liq holatlar uchrashi mumkin.

Fikrimizcha, olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida faoliyat ko‘rsatadigan korxonalarda SSM usuli (qiymat zanjiri) xarajatlari usulini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda xarajatlarni tejash kommunal xizmatlar ishlab chiqarish bosqichidan uni iste’molchiga yetib borguncha jarayonlarni o‘z ichiga oladigan optimal qo‘llaniladigan usuldir. Shuningdek, raqobatbardosh ustunliklarga erishish orqali xizmat ko‘rsatish va umuman sohaning raqobatbardoshligini oshirish uchun strategiya ishlab chiqilgan taqdirda, qiymat zanjiri usuli eng yaxshisi bo‘lib chiqadi.

Shuningdek, Respublikamizda aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirishga tasir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

− material sarf xarajatlarini tejash;

− uy-joy kommunal xizmatlarni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning zarurligi;

− uy-joy kommunal xizmatlarni tartibga solish bo‘yicha yagona tizimni shakllantirish;

− fuqorolarni (iste’molchilarni) kommunal xizmat bo‘yicha madaniyatini shakllantirish;

− uy-joy kommunal xizmatlar bo‘yicha boshqa raqobatchilarning mavjudligi;

− uy-joy kommunal xizmat turlari xarajatlarini shaffof, ochiq-oydin barcha fuqoralarga tushunarli holda bayon qilinishi;

− uy-joy kommunal xizmatlarning hisoblashning yagona uslubini joriy qilish.

Shu bilan birga, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi korxonalarida ishlatilgan xarajatlarni optimallashtirish o‘ziga xos yondashuvni talab etadi.

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi korxonalarining iste’mol bozoriga xizmatlarni yetkazib berishdagi qobiliyati va intilishini belgilovchi eng muhim omillardan biri bu ishlab chiqarish xarajatlaridir. Har qanday tovar va xizmatlarning ishlab chiqarish o‘zining nisbatan kamyobligi tufayli ma’lum bahosiga ega bo‘lgan iqtisodiy resurslar xarajatini talab etadi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish korxona xarajatlari tushunchasi uchta muhim jihatga asoslanadi. Xarajatlar xizmatlar ishlab chiqarish va sotishda qancha va qanday mablag‘ sarf qilinishini aks ettiruvchi resurslardan foydalanish bilan belgilanadi. Ishlatilgan resurslar hajmi jismoniy va pul birliklarida ifodalanishi mumkin, ammo iqtisodiy hisob-kitoblarda xarajatlarning pul ifodasi qo‘llaniladi.

Xarajatlarni aniqlash har doim aniq maqsadlar, vazifalar bilan bog‘liqdir, ya’ni. pul shaklida ishlatiladigan manbalar miqdori kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonaning ma’lum bir funksiyasi yoki ishlab chiqarish birligi uchun hisoblanadi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonada xarajatlarni optimallashtirish eng avvalo uni boshqarishni to‘g‘ri tashkil etishni talab etadi. Bular quyidagilardan iborat:

– xarajatlarni boshqarishning rolini aniqlash va uni boshqarish natijasiga bog‘lash;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonaning xizmatlarni optimallashtirish va kamaytirish yo‘nalishlarini ishlab chiqarish birliklari uchun xarajatlarni hisoblash;

– boshqaruv va biznes qarorlarini tanlash va qabul qilishda xarajatlarni baholashga imkon beradigan ma’lumot bazasini tayyorlash;

– xarajatlarni hisoblash va nazorat qilishning usullari va vositalaridan foydalanish o‘rnini olib borishga yo‘naltirish;

– uy-joy kommunal xizmat ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonaning barcha ishlab chiqarish bo‘linmalarida xarajatlarni kamaytirish uchun zaxiralarni qidirish;

– xarajatlarni me’yorlash va boshqaruv natijasiga bog‘liqlikka yo‘naltirish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxona sharoitlariga mos keladigan xarajatlarni boshqarish tizimini tanlash.

Tadqiqotlarimiz davomida aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida xarajatlarni optimallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda va quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– iqtisodiy nochor kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonlarni moliyaviy sog‘lamlashtirish;

– kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini texnik va texnologik jihatdan yangilash;

– tizimda faoliyat ko‘rsatadigan ishchi va xodimlarni malakasini zamon talablariga mos holda oshirish va malakali ishchi-xodimlar bilan ta’minlash;

– aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi korxonalari iqtisodiy o‘sishining barqaror sur’atlarini ta’minlash.

Shuningdek, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda xarajatlarni optimallashtirish usullarini qo‘llash xizmat ko‘rsatish korxonasi faoliyat yuritadigan bozor kon’yukturasini inobatga olish talab etiladi. Raqobat kuchli bo‘lgan bozorlarda, masalan, axborot texnologiyalari bozorining eng yirik o‘yinchilari bo‘lgan Google, Amazon, Facebook kabi kompaniyalar muhim qarorlarni qabul qilishda simulyatsiya va meta evristika usullaridan foydalanishadi. Simulyatsiya usulida korxona raqobatchilari qabul qilishi mumkin bo‘lgan qarorlar, ya’ni ma’lum bir omillarning ta’sirida bozor ishtirokchilarining ratsional qarorlarini inobatga olgan holda optimal qarorlar to‘plamini topishga qaratilgan.

Meta evristika usuli ko‘plab algoritmlarni o‘zida birlashtirgan holda ular orasidan eng optimalini topishga qaratilgan. Umuman olganda, meta evristikani simulyatsiya va boshqa optimizatsiya usullarining gibridi deb hisoblash mumkin[85].

[85] Dunke, Fabian, and Stefan Nickel. 2017. Evaluating the quality of online optimization algorithms by discrete event simulation. Central European Journal of Operations Research 25: 831–58

Monopolistik bozor sharoitida ishlaydigan korxonalar esa narx bo‘yicha dominantlikni inobatga oluvchi o‘yinlar nazariyasiga asoslangan maksimal naflilikni olishga yo‘naltirilgan algoritmlardan foydalanish maqsadga muvofiq[86].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan optimizatsiya modellari, shubhasiz, bugungi kunda juda keng qo‘llaniladi. Ammo, ularning asosida hamon chiziqli dasturlash bazaviy algoritmlari yotadi. Masalan, Panning 2019 yilda yettita optimizatsiya usulini solishtirishi natijasida aralash chiziqli algoritmlar samaradorlik bo‘yicha eng yuqori natijaga erishganini aniqlagan[87].

Ushbu optimizatsiya modellarini xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatyotgan sub’eklar o‘rtasida qo‘llash, xarajatlarni oldindan aniqlash, tejash va maq’bul yo‘nalishni belgilab olgan holatda tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlarimizda biz faqat Qorasuv maskanida joylashgan ko‘p qavatli uy-joylarga kommunal xizmat ko‘rsatuvchi “Boshqaruv servis” kompaniyasi faoliyatini optimal rejalashtirishni maqsad qilganmiz, shundan kelib chiqqan holda tahlil usuli sifatida Simplex optimallashtirish usuli tanlandi. Simplex usulining asosiy mazmuni shundaki, bu usulda maqsad funksiyasining o‘zgaruvchilariga avvaliga tasodifiy qiymatlar beriladi va qaysidir o‘zgaruvchilarning o‘sishi hisobiga maqsad funksiyasining maksimal qiymatga erishishi aniqlanadi.

Olib borgan izlanishlarimiz natijasida xarajatlarni tejash resurslardan samarali foydalanishga erishish mumkin. Korxona faoliyatida quyidagi natijaga erishildi:

Hal qiluvchi o‘zgaruvchilar-korxonada xizmatlar assortimenti:

x_1 – *Santexnika xizmati;*

x_2 –*Elektr ta’minot xizmati;*

x_3 – *Obodonlashtirish xizmati.*

---

[86] Lu, Xiaoshan, Jian Li, and Fengmei Yang. 2010. Analyses of location-price game on networks with stochastic customerbehavioranditsheuristicalgorithm. JournalofSystemsScienceandComplexity 23: 701–14

[87] Pan, Quan-Ke,LiangGao,LiXin-Yu,andFraminanM.Jose. 2019. Effectiveconstructiveheuristicsandmeta-heuristics forthedistributedassemblypermutationflowshopschedulingproblem. AppliedSoftComputing 81: 105492

Qorasuv maskanidagi 104 ta ko‘p qavatli uy-joy fondiga xizmat ko‘rsatayotgan boshqaruv servis kompaniyasi kommunal xizmatlarini tashkil etishga ketadigan 1 soatlik xarajatlar:

3.1.1-jadval

Xizmatlar bo‘yicha xarajatlar va mehnat sarfi[88]

Xarajatlar va mehnat sarfi	Santexnika xizmatini ko‘rsatish	Elektr ta’minot xizmatini ko‘rsatish	Obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish
Ish vaqti(soat)	8	8	8
Ish haqi(1 soatga so‘m)	8250	8350	8800
Sotish va amortizatsiya xarajatlari	3230	3340	3520
Bir xizmatdan 1 soatlik kutilayotgan foyda	5820	5910	5280

Yuqoridagi jadval ma’lumotlar asosida bir nechta tengsizliklardan iborat sistema tuzish mumkin. Bunda korxona resurslarini inobatga olgan holda quyidagi sistema ko‘rinishga keladi:

$8x+8y+8z>=56$

$8x+8y+8z<=216$

$8250x+8350y+8800z<=200000$

$8250x+8350y+8800z>=25666$

$3230x+3340y+3520z<=70000$

$S=5820*x+5910*y+5280*z \rightarrow max$, bu bir kunlik foyda funksiyasi bo‘lib, uni maksimallashtirish vazifasi qo‘yildi.

Bu yerda x-ko‘rsatilgan santexnika xizmati birlik, y- ko‘rsatilgan elektr xizmati, birlik, z- ko‘rsatilgan obodonlashtirish xizmati birlik.

Yuqoridagi tenglamalar sistemasining optimal yechimlarini topishda biz Simplex usulidan foydalandik. Simplex usulining algebraik ko‘rinishi quyidagicha:

[88] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

$$X = (x_1, x_2, \dots, x_n)^T \in R^n$$

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & \cdots & a_{1n} \\ \vdots & \ddots & \vdots \\ a_{m1} & \cdots & a_{mn} \end{pmatrix} = (A_1, \dots, A_n)$$

$$z = f(x) = cx = < c, x > = \sum_{j=1}^{n} c_j x_j \rightarrow extr$$

$$\begin{cases} \sum_{j=1}^{n} a_{ij} x_j \leq b_i, i = 1 \dots r_1 \\ \sum_{j=1}^{n} a_{ij} x_j \geq b_i, i = 1 + r_1 \dots r_2 \\ \sum_{j=1}^{n} a_{ij} x_j = b_i, i = 1 + r_2 \dots m \end{cases}$$

3.1.1-rasm. Simplex usulining algebraik ko‘rinishi[89]

Bunda $x-$ o‘zgaruvchilar: masalan, xizmatlar assortimenti, $A-$ har bir xizmatni yaratishga ketadigan xarajatlar miqdorlari matritsasi, $z-$maqsad funksiyasi, ya’ni sof tushumni maksimallashtirish funksiyasi hisoblanadi.

Biz o‘zimiz tuzgan S=5820*x+5910*y+5280*z maqsad funksiyasini MS Excel dasturining “Poisk resheniya” programmasi orqali optimal yechimini topdik. Quyida programma chiqargan natijalar to‘g‘risida hisobot keltirilgan:

3.1.2-jadval

Simplex usuli asosida hisoblanishi[90]

Xona	**Nomi**	**Dast-labki qiymat**	**Yakuniy qiymat**		
$H$14	Bir xizmatga keladigan 1 kunlik foyda, jami 1 kunlik foyda	123750	123750		
Xona	**Nomi**	**Qiymatli xona**	**Formula**	**Holati**	**Qo‘yim**
$H$10	Ish vaqti(soat) foydalaniladi	168	$H$10<=$M$10	Bog‘lanmaslik	48

[89] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan
[90] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

$H$10	Ish vaqti(soat) foydalaniladi	168	$H$10>=$J$10	Bog‘lanmaslik	112
$H$11	Ish haqi(1 soatga so‘m) foydalaniladi	174950	$H$11<=$J$11	Bog‘lanmaslik	25050
$H$12	Sotish va amortizatsiya xarajatlari foydalaniladi	69700	$H$12<=$J$12	Bog‘lanmaslik	300
$M$11	>=	25666,67	$M$11>=$M$11	Bog‘lanish	0
$E$7:$G$7 =Butun son					

Yuqoridagi jadvaldan Qorasuv maskanida joylashgan ko‘p qavatli uy-joylarga Boshqaruv Servis kompaniyasi korxonasi 1 kunda maksimal 123750 so‘m foydaga erishishi mumkin. Quyida Simplex usuli natijasi jadval ko‘rinishida to‘liq keltirilgan.

Fikrimizcha, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar faoliyatini xarajatlarini optimallashtirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

– birinchidan, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiyalash va xizmatlar sifatini yaxshilash;

– ikkinchidan, mavjud barcha resurslar va ichki imkoniyalardan foydalanish hisobiga uy-joy kommunal xizmatlar xarajatlarini 20 %gacha kamaytirish;

– uchinchidan, uy-joy kommunal xizmatlar bilan bog‘liq energiya resurslari narxining o‘sish darajasini 6-8%dan oshirmaslik;

– to‘rtinchidan, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida faoliyat ko‘rsatadigan korxonalar imtiyozli kredit resurslari asosida qo‘llab-quvvatlash;

– beshinchidan, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda Simplex optimallashtirish usulini qo‘llash orqali xarajatlarni tejash.

3.1.3-jadval

Olingan natijalar bo‘yicha Simplex usuli natijasi[91]

O‘zgaruvchilar	Santexnika xizmati birlik	Elektr ta’ minot xizmati, birlik	Obodonlashtirish xizmati, birlik					
	4	**17**	**0**					
Xarajatlar				1 kunda foydalanil adigan resurslar	Tengsizlik belgisi	Resurslar maksi-mal chegarasi	Tengsizlik belgisi	Resurslar mini-mal chegarasi
1-kun/ish vaqti (soat)	8	8	8	168	<=	216	>=	56
1-kun/ ish haqi (1- soat/so‘m)	8250	8350	8800	174950	<=	200000	>=	25666
1 kunlik sotish va amortizatsiya xarajatlari, so‘m	3230	3340	3520	69700	<=	70000		
Jami 1 kunlik foyda								
Bir xizmatga keladigan 1-kun/ foyda	5820	5910	5280	**123750**				

Unga ko‘ra Qorasuv maskanida joylashgan ko‘p qavatli uy-joylarga Boshqaruv Servis kompaniyasi korxonasi 1 kunda 4 marta santexnika va 17 marta elektrik xizmatini ko‘rsatsa hamda obodonlashtirish xizmatlarini umuman ko‘rsatmasa maksimal foyda 123750 foydaga erishadi.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan ustuvor yo‘nalishlar va optimallashtirish usulini inobatga olgan holda kommunal xizmat

[91] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган

ko‘rsatish tizimida xarajatlarni optimallashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlardan iborat bo‘lishi lozim (3.1.2-rasm).



3.1.2-rasm. Uy-joy kommunal xizmat ko‘satish tizimida xarajatlarni optimallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari[92]

Bizningcha, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatadigan subyektlarga ham tegishli bo‘lib xarajatlarni tejashda ulardan oqilona foydalanish muhim hisoblanadi. Shu bilan birgalikda kommunal xizmatlarni tejashning optimal yo‘llaridan biri tizimni modernizatsiya qilish orqali erishish mumkin. Bu uchun sohaga investitsiyalarni samarali yo‘naltirish, kommunal xizmatlarni ishlab chiqishda ularni boshqarish shuningdek, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida tizimni raqamli ko‘rinishga keltirish orqali xizmatlarni ishlab chiqarishda xarajatlarni tejashga erishish mumkin.

[92] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

3.2. Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning klasterli tizimini tashkil etish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish

Hozirgi davrda iqtisodiyotni jadal suratlar bilan rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bizga ma’lumki iqtisodiyotni rivoji uchun hamma sohalar kabi kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini o‘rni katta hisoblanadi. Uy-joy kommunal xizmatlar ko‘rsatish insonlarni nomoddiy ehtiyojlarini qondirish bilan birgalikda ishlab chiqaruvchilarga ham xizmatlar ko‘rsatadi, shuningdek, o‘zi ham iste’molchisi hisoblanadi. Sanoat rivoji, aholining farovon hayoti uchun uy-joy kommunal xizmatlarni o‘rni beqiyosdir. Ularga eng kerakli bo‘lgan resurslarni yetkazib berish orqali ishlab chiqarish davomiyligiga o‘zini munosib hissasini qo‘shadi. Shu sababli uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish asosiy dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, barcha sohalarda klaster tizimini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darhaqiqat, neft, gaz, ximiya, biotexnologiya, farmatsiya, informatika, avtoqurilish, transport-logistika, rekreatsion-turistik, oziq-ovqat, ta’lim, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik, ipakchilik va boshqa sohalarda klaster tizimlarini yaratish ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko‘paytiradi, sifatini yaxshilaydi, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta’minoti darajasini yuksaltiradi, investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari, klaster tizimida ta’lim ishlanmalari yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o‘tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko‘proq rag‘batlantirish, yangi tovarlarni O‘zbekiston brendi bilan ixtiro qilish uchun keng imkoniyatlar va sharoit paydo bo‘ladi. Shuningdek, mamlakatimizda xalqaro klaster kordinatorlarini tayyorlash ilmiy markazlari va klaster proektlari bo‘yicha Kengashlar paydo bo‘ladi.

Viloyatda aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi klasteri asta-sekin shakllanadi, chunki kelajakda guruhning turli ishtirokchilarining talab va istaklari tahlili hamda ijro etuvchi organlarning tavsiyalari natijalarini hisobga olgan holda umumlashtiriladi va muvofiqlashtiriladi. Boshlang‘ich davr jarayonida umumiy manfaatlar bilan birlashtirilgan va aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi uchun rejalashtirilgan rivojlanish rejalarini amalga oshirish uchun birgalikdagi tadbirlarni tayyorlashga tayyor bo‘lgan yetakchi tadbirkorlar guruhi tashkil etiladi. Ushbu bosqichda hamkor-kompaniyalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishning birinchi ijobiy natijalari paydo bo‘lishi kerak. Bu umumiy maqsadlarga erishish uchun jamoaviy say-harakatlar samaradorligiga ishonchni oshirishga yordam beradi.

Klaster tashkilotchisi rahbarligida aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi guruhini yaratish g‘oyasi bilan ajralib turadigan mahalliy tadbirkorlar, tadbirkorlarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishga va kommunal xizmatlarning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatadigan guruhini shakllantirishga yordam beradigan qisqa muddatli dastlabki tadbirlarni tayyorlaydi. Odatda, birinchi ish rejasi mahalliy biznes uyushmasining eng faol a’zolari ishtirokida klasterni tashkil etuvchilar rahbarligi ostida ishlab chiqiladi[93].

Ushbu reja tadbirkorlarning taklif etayotgan faoliyatlarini o‘z ichiga oladi va klasterni tashkil etuvchi tashkilotning tavsiyalarini hisobga oladi. Taxminan qisqa muddatli chora-tadbirlar rejasi keltirilgan (3.2.1-jadval).

Jamiyatning kayfiyatiga qarab bunday rejani ishlab chiqish 3 oydan 6 oygacha davom etishi mumkin. Ushbu hujjat maxsus yaratilgan kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Kengash rejani amalga oshirishda zarur yordam beradi. Ko‘pchilik boshqaruv kompaniyalari hamkorlikni rivojlantirish va ayrim tijoriy natijalarga erishish bo‘yicha o‘zlarining rejalarini amalga oshirishda faol ishtiroki

[93] Тимощук Вадим Николаевич. Формирование кластера жилищно-коммуналных услуг в регионе: диссертация кандидата экономических наук. Самара 2011

mintaqada uy-joy kommunal xizmatini jadal tashkil etishga yordam beradi.

3.2.1-jadval

Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmatni yaratish bo‘yicha boshlang‘ich tadbirlarning taxminan qisqa muddatli rejasi[94]

Jarayonlar	Asosiy vazifalar	Ma’sul tashkilotlar
Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishda kadrlar tayyorlash bo‘yicha yetakchi o‘quv yurtlari negizida vakolatli markazlarni yaratish.	Boshqaruv tashkilotlarining malakasini oshirish	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi mutaxassislarini o‘qitadigan oliy o‘quv yurtlari
Moliyaviy barqarorlik va yordam markazini yaratish.	Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishda zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanishni rivojlantirish (sug‘urta, lizing, faktoring, to‘lovlarni yig‘ish faoliyati va hk)	Tijorat banklari, auditorlik kompaniyalari
Xom-ashyolarni birgalikda xarid qilish qoidalarini ishlab chiqish	Xarid qilish jarayonida chegirmalarni olish	Tovar ishlab chiqaruvchilarining hududiy birlashmalari
Jismoniy va ma’naviy eskirgan uy-joy fondini ta’mirlash va ta’mirlashning barcha jihatlari bo‘yicha texnik yechimlarni buyurtma qilish	Odatdagi muammolarga yechim topish, uy-joy fondini saqlash	Uy-joy mulkdorlar shirkatlari, muhandislik kompaniyalari
Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi loyihalar va faoliyatining innovatsion va jamg‘armasini yaratish	Tajribaviy bosqichlarda innovatsion loyihalarni joriy etish va bunday loyihalar natijalarini, shu jumladan energiyani tejash bo‘yicha fikr almashish	Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi filiallar, energetika auditorlik kompaniyalari

[94] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatuvchilarni huquqiy qo‘llab-quvvatlash markazini yaratish	Ko‘p binolarni boshqarish jarayonini huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash sifatini oshirish	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi, mahalliy hokimiyat organlari.
Rivojlanish markazini yaratish uy-joy biznesini rivojlantirish	Kichik biznes subyektlarini turli xil biznes-rejimlarda rivojlantirishga ko‘maklashish (hududni tozalash, muhandislik aloqalarini ta’minlash, maxsus turdagi ta’mirlash ishlari).	Mahalliy tadbirkorlar, mikrokredit tashkilotlari, mahalliy boshqaruv organlari

O‘z-o‘zini boshqarish organlari doirasida birlashtirilgan boshqaruvchi tashkilotlar ixtiyoriy ravishda o‘z-o‘zini boshqarish organiga o‘zaro manfaatli qo‘shma faoliyatni amalga oshirish imkonini beradigan maxsus tashkiliy tuzilmalarni yaratishga ishonadilar. Amaliyotning maqsadlari, vazifalari va prinsiplari o‘zini o‘zi boshqaruvchi tashkilotning umumiy yig‘ilishida hujjatlashtirilishi va tasdiqlanishi kerak. O‘zbekiston Respublikasida kommunal xizmatini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, viloyatda uy-joy kommunal xizmatni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar mintaqaning ijro etuvchi organlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Bu davlat organlari vakillaridan tashkil topgan Kuzatuv kengashining aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi guruhini shakllantirish loyihasini amalga oshirish doirasida yaratishni talab qiladi.

Kuzatuv kengashining asosiy maqsadi va vakolatlari - uy-joy kommunal sohasiga xalqaro, respublika va mintaqaviy darajada, moliyaviy institutlar hamda boshqalarni jalb qilishi va bu jarayon dastlabki chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishni jadallashtiradi, chunki tadbirkorlarning bunday yuqori darajadagi xavfli sohada uy-joy kommunal xizmatiga bo‘lgan ishonch darajasi oshadi.

Dasturni amalga oshirish jarayonida ushbu reja jamoaviy o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun kuchli rag‘batga ega bo‘lgan qo‘shma

tadbirlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, ayrim tadbirkorlar o‘zlarining faol ishlarini boshlaydilar. Klasterni tashkil etuvchi tashkilot aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi guruhini rivojlantirishning umumiy maqsadlari bilan ushbu guruh tadbirkorlari manfaatlarini birlashtirishga harakat qiluvchi koordinatsion rol o‘ynadi.

Yangi tashkil etilgan guruhda qo‘shma faoliyatni amalga oshirishdan manfaatdor bo‘lgan tadbirkorlar guruhi tashkil etilgach, to‘liq texnik-iqtisodiy asoslash bilan texnologik yangilash va modernizatsiya qilish bo‘yicha uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan “Strategik va institutsional hamkorlikning bosqich”ga bosqichma-bosqich o‘tish lozim. Ko‘p qavatli binolarni boshqarish sohasida bu energiya tejash loyihalarini amalga oshirishga, kredit resurslarini jalb qilish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga o‘tishni anglatadi.

Bizningcha, mintaqaning uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga nisbatan klasterlarni yaratish jarayonlarining asosiy bosqichlari va xususiyatlari quyidagilar:

– istiqbolli klaster guruhini tanlash;
– ishonch va o‘zaro yordam muhiti yaratish;
– klasterlarni rivojlantirish rejalarini bajarish va o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tish;
– kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyatini monitoring qilish va baholash.

Mintaqaviy kommunal xizmat ko‘rsatish klasteri rejasini amalga oshirish uchun tashkil etilishi quyidagi rasmda ko‘rsatilgan (3.2.1-rasm).

Bunday loyihalar boshqaruv kompaniyalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bunda xizmatlar xajmini ko‘paytirish, ayni paytda ko‘p qavatli uylardagi fuqarolarga kommunal xizmat ko‘rsatish qulayliklarini oshirish. Yangi texnologiyali kompaniyaning operatsion faoliyatida (uy-joy fondining ekspluatatsiyasi) va boshqaruv kompaniyalari rivojlanishi uchun yangi yo‘nalishlarda o‘zlashtirilishi taxmin qilinmoqda.



3.2.1-rasm. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mintaqada klasterli tizimni tashkil etish mexanizmi[95]

Klasterning uzoq muddatli strategik rivojlanish loyihalarini amalga oshirish uchun “yillik ish rejalari” ishlab chiqiladi, unda belgilangan maqsadlarga erishishda yutuqlarni tavsiflovchi aniq miqdoriy ko‘rsatkichlar ko‘rsatiladi. Uy-joy kommunal xizmati guruhining ishtirokchilari ushbu klaster tizimini yanada rivojlantirish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish bo‘yicha yillik rejalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xususan, ushbu reja quyidagilarni ko‘rsatadi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soni moliyaviy va texnik yordamga muhtoj har xil turdagi qo‘llab-quvvatlashga muhtoj boshqa milliy va mintaqaviy tashkilotlar doirasida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi

[95] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

klasteri, qo‘shimcha o‘qishga muhtoj bo‘lgan xodimlarning sonini ko‘rsatadi, kasbiy ta’lim va hk.

Biroq, ushbu talablarni kommunal xizmati uchun turli xil moliyaviy va texnik xizmat ko‘rsatuvchilarni jalb qilish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo‘lgan boshqa tashkilotlar bilan o‘rnatilgan hamkorlik orqali ta’minlash mumkin[96].

Hozirgi davrda klaster tizimiga bosqichma bosqich o‘tish, viloyat kommunal soha shart-sharoitlarini o‘rganish, kerakli vazifalarni belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun birinchidan, Samarqand viloyatida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi guruhini shakllantirish loyihasini amalga oshirish uchun sharoitlarni ko‘rib chiqaylik.

Klasterlarni barpo etish loyihasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun mintaqaning davlat organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va mintaqaning kommunal sohadagi ayrim vakolatlarni amalga oshiruvchi nazorat qiluvchi organlardan tashkil topgan kuzatuv Kengashini tashkil etish asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishni boshqarishning mavjud tashkiliy tuzilmasini tahlil qilish natijasida mintaqaviy darajadagi tashkilotlar quyidagilar:

– Samarqand qurilish va turar-joy tashkilotlari;

– davlat tomonidan tartibga solishni nazorat qilish tashkilotlari;

– Samarqand viloyatining elektr-energetika ta’minoti bo‘limi;

– Samarqand viloyati iqtisodiyot va sanoat bo‘limi, investitsiyalarni jalb qilish bo‘limi hamda nizomi;

– Samarqand viloyati uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi.

Mintaqadagi aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi guruhini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha Kuzatuv kengashi vakillari bo‘lishi

[96] Тимощук Вадим Николаевич. Формирование кластера жилищно-коммуналных услуг в регионе: диссертация кандидата экономических наук. Самара 2011

kerak. Barcha ro‘yxatda tuzilmalar quyida keltirilgan vazifalarning har birining vakolati va vakolat darajasi bo‘yicha batafsil ko‘rib chiqiladi:

Samarqand viloyati uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi. Viloyatda kommunal xizmat siyosatini amalga oshiruvchi va boshqaradigan ijro etuvchi organ o‘rganilayotgan hududda qurilish kompleksini, kommunal xizmat sohasini va shaharsozlik faoliyati sohasidagi nazorat qilishini amalga oshirishi lozim.

Viloyatda uy-joy kommunal xizmat sohasida quyidagi masalalar uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligiga topshirili lozim;

– birinchidan, rivojlanishni amalga oshirish bo‘yicha takliflar, davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, mintaqaning uy-joy kommunal xizmatini rivojlantirish, shuningdek, istiqbollarni baholash, tahliliy baholash, rivojlanish strategiyasini belgilash, Samarqand uy-joy boshqaruv tizimini yaratish va uy-joy kommunal sohasidagi mexanizmlarini takomillashtirish;

– ikkinchidan, uy-joy kommunal xizmatini viloyatda ishlashi va rivojlanishi hamda ta’minlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, O‘zbekiston Respublikasi va Samarqand viloyatida uy-joy sohasida qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash uchun ilmiy-uslubiy asos yaratish, me’yoriy-huquqiy va normativ texnik hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish muhimdir;

– uchinchidan, uy-joy kommunal xizmatida ilmiy asoslangan texnologk siyosatni shakllantirish va joriy etish, yangi materiallarni joriy etishni ta’minlash jiddiy muammo hisoblanadi, mahsulotlar, tuzilmalar va resurslarni tejovchi texnologiyalar, shuningdek, kommunal xizmat sohasida boshqaruv uchun axborot bazasini yaratish lozim.

Uy-joy kommunal xizmati ko‘rsatish vazirligining tarkibiga kiradigan Samarqand viloyati uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

– birinchidan, Samarqand viloyatida ijro etuvchi hokimiyat tomonidan aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish islohoti bo‘yicha yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlash. Ushbu maqsadlarga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasi va Samarqand

viloyatidagi boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, Samarqand viloyatida aholiga kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur;

– keyingi funksiya aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi narx-navo va ta’rif siyosatini ishlab chiqishda ishtirok etishdir (o‘z vakolati doirasida).

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi soha faoliyatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, kommunal xizmatini rivojlantirish monitoringini tashkil etish asosiy vazifasi hisoblanadi;

Fikrimizcha, ushbu funksiyani barqaror ishlashi uchun Samarqand viloyat hokimiyatiga, mahalliy hokimiyat tashkilotlari, boshqaruv tashkilotlari, korxonalar ko‘mak ko‘rsatishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Viloyatga elektr va issiqlik energiyasini yetkazib beruvchilar va iste’molchilarning iqtisodiy manfaatlari muvozanatini ta’minlash, iste’molchilarning monopolistik ta’riflar oshishidan iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va elektr-energiya, issiqlik ta’minoti kommunal xizmatlarini ishlab chiqarish, uzatish va tarqatish uchun tijorat tashkilotlarining xarajatlarining iqtisodiy samaradorligini ta’minlash vazifasi yuklatilgan hisoblanadi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi faoliyat yuritish uchun quyidagi vazifalar mavjud bo‘ladi:

– aholiga kommunal xizmat ta’riflarini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshirish;

– tartibga solinadigan ta’riflarni (narxlarni) qo‘llashni nazorat qilish;

– energetika sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarning reesterini shakllantirish va yuritish;

– Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bashoratini qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishda ishtirok etish;

Samarqand viloyatidagi uy-joy qurilish boshqarmasi Samarqand hududining ijro etuvchi idorasi bo‘lib, u mulk shaklidan qat’i nazar turar-joy fondini ishlatish va xavfsizligini ta’minlashda davlat nazoratini amalga oshiradi. Bundan tashqari, uy-joy mulkdorlari shirkati, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining umumiy mulkini saqlash qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi, energiya samaradorligi talablari va foydalanilgan energiya manbalari uchun innovatsion o‘lchash asboblari bilan jihozlash talablari, shuningdek, uy-joylarning belgilangan talablariga muvofiqligi, kommunal xizmat ko‘rsatish sifati, hajmi va tartibi ko‘rsatilishi kerak.

Uy-joy fondining egalari, shu jumladan isitish tizimlari, elektr-energiyasi kommunal xizmatlari, suv, gaz ta’minoti kommunal xizmatlari, suv havzasi, shamollatish va boshqalardagi uy-joy mulkdorlari shirkatlari umumiy mulkini boshqarish va ulardan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va uy-joylar, shuningdek, uy-joy fondining texnik holati, ko‘p qavatli uy-joy mulkdorlari shirkatlarining umumiy mol-mulki va ularning muhandislik uskunalari, amaldagi qonunchilikka, me’yoriy-texnik hujjatlarga va loyiha hujjatlari topilgan buzilishlarni bartaraf etish uy-joy mulkdorlari shirkatining tekshiruvi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Davlat uy-joy qurilish inspeksiyasi funksiyalari pudratchilar va mijozlar, ixtisoslashtirilgan (xizmat qiluvchi) tashkilotlar va turar joylar va turar-joy binolari egalari, tomonlarning huquqlari va majburiyatlari ularning iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan shartnomaviy munosabatlar mavjudligi hamda amalga oshirilishini nazorat qilish, o‘rnatilgan kommunal xizmat standartlarining asosliligini o‘z ichiga oladi. Uy-joy mulkdorlari shirkatining mavsumiy faoliyat uchun uy-joy fondini va umumiy mulkini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishi ham uy-joy qurilish boshqarmasining mas’uliyati hisoblanadi.

Uy-joy qurilish boshqarmasining vazifalari quyidagilardan iborat:

– ko‘p xonadonli binolarning energiya jihatidan samaradorligi talablariga rioya qilinishi, ularni energiya resurslarini hisobga olish qurilmalari bilan jihozlash, energiyani tejash bo‘yicha majburiy

choralar va ko‘p qavatli uy-joy binolari egalari umumiy mulkiga nisbatan energiya samaradorligi talablari;

– uy-joy mulkdorlari shirkatlarining energiya tejash va energiya tejamkorligi bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va yetkazib berish bo‘yicha talablari;

– aholini kommunal xizmatlar bilan ta’minlashning standart darajasiga va ahvoliga moslashish (isitish, elektr-energiyasi, suv va gaz ta’minoti kommunal xizmatlari, kanalizatsiya kommunal xizmatlari va boshqalar);

– uy-joylardan foydalanish qoidalariga va ko‘p qavatli uydagi umumiy mulkni saqlash qoidalariga rioya qilish.

Yuqorida aytib o‘tilganlarga qo‘shimcha ravishda, mintaqada energiya ist’emol qilish samaradorligini oshirish bo‘yicha siyosatni amalga oshirish vakolati Samarqand viloyati uy-joy kommunal boshqarmasi, elektr-energiya ta’minoti va viloyat iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limiga o‘tkazish lozim.

Bularga quyidagilar kiradi:

– Samarqand viloyatida energiyani tejash va energiya tejamkorligi sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

– Samarqand viloyati hududida energiyani tejash va energiyani tejash bo‘yicha tadbirlarni muvofiqlashtirish;

– energiyani tejash sohasida mintaqaviy maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– Samarqand viloyati hududida energiya tejamkorligi va energiya samaradorligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan majburiy ravishda belgilash, shuningdek, energiya tejash va energiya tejamkorligi bo‘yicha mintaqaviy maqsadli dasturlarda nazarda tutilgan axborotni qo‘llab-quvvatlash;

– Samarqand viloyati hududida energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish viloyatda kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini yuksalishiga olib keladi.

Biroq, ushbu talablarni aholiga kommunal xizmatlari uchun turli xil moliyaviy va texnik xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarni jalb qilish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo‘lgan boshqa tashkilotlar bilan o‘rnatilgan hamkorlik orqali ta’minlash mumkin[97].

Bunday vakolatlarni amalga oshirish uchun maxsus Samarqand viloyatidagi “Energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha mintaqaviy agentlik” davlat avtonom institut tashkil etish kerak. Ushbu agentlikning asosiy vazifasi Samarqand viloyatida energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish sohasida mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Uy-joy kommunal xizmatini tashkil etishning ustuvor rejasi, asosiy vazifalar sifatida Uy-joy kommunal xizmati subyektlarini klasterda ishtirok etish uchun jalb etishga yordam beradi, bu esa uy-joy sektoridagi mutaxassislarning malakasini oshirishdan iborat. Buning uchun Samarqand shaharda texnikumlarga biriktirilgan kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha zarur kadrlarni tayyorlash lozim.

Bundan tashqari, energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha mintaqaviy agentlik ko‘magida energetika auditi sohasida o‘zini o‘zi boshqarish organi tashkil etish va bu tashkilotga o‘zini o‘zi boshqarish vakolatini berish lozim. Ushbu o‘zini o‘zi boshqarish organining faoliyati quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

– energiyani tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, zararli energiya ishlab chiqarish, ishlab chiqarishning energiya hajmini qisqartirish bo‘yicha hamkorlik;

– energiya tejamkorligi va energiyani tejash sohasida amaldagi qonunchilikka o‘zgartirish kiritish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishi kerak.

Viloyatda klaster tizimini tashkil qilish uchun elektr-energiya ta’minoti kommunal xizmati, gaz ta’minoti kommunal xizmati, oqova-suv ta’minoti kommunal xizmati, obodonlashtirish departamenti,

[97] Тимощук Вадим Николаевич. Формирование кластера жилищно-коммуналных услуг в регионе: диссертация кандидата экономических наук. Самара 2011

chiqindilarni tashish va qayta ishlash kommunal xizmati bo‘limlari, viloyat hokimiyati, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi, iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish, investitsiya qo‘mitasi, XUMSh va oliy bilim yurtlari bilan birgalikda hamkorligini tashkil etish zarur bo‘lgan qonun va meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularni faoliyati bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish klaster tizimiga bosqichma-bosqish o‘tish maqsadga muvofiq hisoblandi. Shuni e’tiborga olish kerakki, Samarqand viloyati hududida kommunal xizmatini shakllantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ushbu klaster faoliyatini tashkil etish uchun mintaqada o‘z-o‘zini boshqarish organlari faol ishtirok etadigan davlat mintaqaviy idoralari darajasida intensiv, aniq maqsadli ishlarni boshlash kerak.

3.3. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini zamonaviy-innovatsion shakllari samaradorligini oshirish

Mustaqqillikga erishgamizdan so‘ng ko‘plab tarmoq va sohalarda bo‘lgani kabi aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi kompleksini isloh qilish va modernizatsiya qilish yillarida uy-joy bozori shakllantirildi, uy-joy infratuzilmasini boshqarish va saqlashni tashkil qilish tizimi qayta tashkil etildi, aholini kommunal xizmatiga haq to‘lashni ijtimoiy himoya qilish mexanizmi va boshqalar takomillashdi. Biroq, bu davrda uy-joy kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalarning monopolistik joylashuvida juda oz narsa o‘zgardi. Shaharlarda raqobat muhitining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan kommunal xizmatlar, aholi uchun ta’riflarning pasayishi va davlat xizmatlarining sifati tobora kamayib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan tahliliy material uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini jadallashtirish zarurligini aniq ko‘rsatadi. Bu aholi uchun uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirish va fuqarolarning munosib turmush sharoitini ta’minlashdir. Agar islohotlarning boshlang‘ich bosqichida asosiy turg‘unlik kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish, kommunal xizmati kompleksida real

shartnomaviy munosabatlarga o‘tish, aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘lsa, bugungi kunda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida o‘rnatilgan boshqaruv tuzilmasining samaradorligini oshirish muammolari, davlat xizmatlari sohasidagi raqobat muhitini rivojlantirish, xususiy kredit resurslari shaklidagi investitsiyalarni jalb qilish, uy-joy kommunal xizmat kompleksini modernizatsiya qilish va rivojlantirish uchun bank kreditlari va obligatsiyalarni olishni taqozo qilmoqda.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish kompleksining ishonchli ishlashini ta’minlash mahalliy hokimiyatlarning vakolati va shahar budjeti mablag‘larining juda katta qismi sanoatni subsidiyalashga sarflanishi hisobga olinsa, uy-joylarni qurishning barcha bosqichlarida oqilona munosabatlarni o‘rnatish zarur aholi uchun maishiy xizmat ko‘rsatish, kommunal xizmati kompleksining yangidan yaratilgan boshqaruv tuzilmasi samaradorligini oshirish, ikki bosqichli boshqaruv strukturasining faoliyatiga alohida e’tibor qaratildi (uy-joy fondining egasi va uy-joy fondini boshqarish tashkiloti).

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari soni bir vaqtning o‘zida sezilarli darajada ko‘payadi, chunki ko‘chmas mulk kompleksi chegarasida uy-joy mulkdorlari uyushmasini tuzish, shu jumladan yer uchastkalari va turar-joy binolari taqsimlash kabi vazifalar turadi. Bugungi kunda uy-joy mulkdorlarining huquqlarini himoya qilishning eng samarali usullaridan biri va turli binolar egalari bilan ko‘p qavatli uylarni boshqarishni tashkil qilish. Ammo, boshqarishning barcha muammolari avtomatik ravishda hal etilmaydi, chunki umumiy tajribaga ko‘ra, sherikchiliklar faoliyati asosan ishtirokchilarning qiziqishlariga bog‘liq. Uy egalari bugungi kunda ko‘p qavatli uylarning umumiy qismidan ko‘proq foydalanishadi. Uy-joy mulkdorlari shirkatlari boshqaradigan uy-joylarning ulushini yanada ko‘paytirish maqsadida mahalliy hokimiyat organlari maxsus tashkilot tashkil etish va ro‘yxatga olish, uy-joy mulkdorlari shirkatlarini birinchi bosqichlarida qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish va kommunal xizmat boshqarmalari boshliqlari uchun seminarlar o‘tkazish uchun amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatishlari kerak.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uy-joy mulkdorlari uyushmalari, haqiqiy uy-joy mulkdorlari uyushmasi va bozor islohotlari davrida shakllangan bo‘lib, fuqarolarning boshqa tashkilotlari va toifalari tomonidan uy-joy va kommunal xizmat ko‘rsatish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Hamkorlikda bu masalada ancha faol pog‘onani egallaydi va bugungi kunda mavjud bo‘lgan munosabatlarning yuzaga kelishiga jiddiy raqib sifatida qaraydi. O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksiga muvofiq, ular boshqaruvchi kompaniyalar o‘rtasida ko‘p xonadonli binolarni ta’minlash uchun buyurtma olish huquqiga ega bo‘lish, umumiy mulkni saqlash va ta’mirlash bo‘yicha shartnomalar tuzish, jamoat xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalar va boshqa kelishuvlarni shirkat a’zolarining manfaatlari uchun raqobat muhitini shakllantiradi. Bundan tashqari, shirkatlar nafaqat uy-joyni saqlashda, balki markazlashtirilgan va markazsizlashtirishning oqilona birikmasidan, muqobil muxtor ta’minot manbalaridan foydalanish orqali mahalliy tabiiy monopoliyalar bilan bog‘liq davlat xizmatlari sohasida ham raqobat muhitini shakllantiradilar.

Infratuzilmaning tarmoq tarkibidagi kommunal xizmatlarning asosiy qismini davlat tabiiy monopoliyalar deb tasnif etganligini hisobga olib, iqtisodiyotning ushbu sohasidagi raqobatni rivojlantirish ob’ektiv cheklangan, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin va ba’zi hollarda oddiygina iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas[98].

Shu bois, bu ishda munosabatlarning rivojlanishining asosiy jihatlaridan biri monopolistlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va uni aniq huquqiy tartibga solish, xususan narxlash masalalarini nazorat qilishdir. Bunday hollarda monopoliyaga qarshi xizmat ko‘rsatish mahalliy tabiiy monopoliyalar tomonidan narxlarni va ta’riflarning zarur darajada ortiqcha miqdorini nazorat qilish, parametrlarga rioya qilish, ishonchliligi va davlat xizmatlarining iqtisodiy xavfsizligini qat’iy nazorat qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari yil davomida ishlab chiqilgan va

[98] Хурхумал Лали Вадимовна. Развитие организационно-экономических форм реализации жилищно-коммуналных услуг в современных условиях хозяйствования. Афтореферат. Майкоп–2010.

qabul qilingan daromadlar va xarajatlar hisob-kitoblari asosida har bir egasi uchun uy-joy mulkidagi umumiy mulkka egalik qilishdagi ulushiga muvofiq to‘lovlar va badallar miqdori bank kreditidan foydalanishlari mumkin qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlar amalga oshirilishi lozimdir. Ta’riflarni tartibga solishda faol ishtirok etish, aholining kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini to‘lashda o‘sishi, xarajatlarni kamaytiradigan shaxslar buni amalga oshirishni istamaganligi va hohish-istaklari hali ham tegishli imkoniyatlarga ega bo‘lmasligiga olib keldi. Aksincha, amaldagi boshqaruv tizimi ostida uni amalga oshira olmaydigan ko‘p qavatli uylar egalari orasida xarajatlarni kamaytirishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi.

Uy-joy mulkdorlari shirkati o‘z manfaatlarini qonuniy ravishda himoya qila olmaganligi sababli, shahar va uning xizmatlari darajasida yakka tartibda himoyalana olmaydi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun uy-joy mulkdorlari sherikligi sifatida aholi o‘zini o‘zi tashkil etishning bunday shakli bo‘lishi mumkin[99].

Bizning fikrimizcha, energiya ta’minoti xizmatlari kompaniyalari ish beruvchisi va kommunal xizmatlar uchun bevosita energiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniyalarga o‘lchash asboblari va bajarilgan ishlar miqdori uchun to‘lovlarni amalga oshirishi kerak.

Uy-joy mulkdorlarining uy-joy fondini boshqarish uchun bunday sxemani tashkil etish uy-joy fondini o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tish imkonini beradi, bu amaliyotga ko‘ra, Uy-joy kommunal xizmatining 30-40% xarajatlarini kamaytiradi, xarajatlarni taqqoslaydi va har bir xonadon egasi uchun kutilgan natijani taqqoslaydi. Ta’siri oldindan ma’lum bo‘lgani uchun, isitish mavsumi oxirida emas, balki boshqa modellarga xos texnik muammolardan mahrum bo‘lib, qurilmani “hiyla” qilish qobiliyatiga ega bo‘lmasa, to‘lovlarining to‘g‘riligini nazorat qilish tamoyilini amalga oshiradi. EXM (Energiya xizmatlari markazi) sxemasi energetika kompaniyasini barcha uy-joylar va o‘z xonadonining har bir egasi darajasida resurslarni tejashga

[99] Хурхумал Лали Вадимовна. Развитие организационно-экономических форм реализации жилищно-коммуналных услуг в современных условиях хозяйствования. Афтореферат. Майкоп–2010.

yo‘naltiradi[100]. Bundan tashqari, O‘zmilliybank tomonidan pudratchi (EXK) tanlash erkinligi bugungi kunda uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kafolatlangan xizmat ko‘rsatish sohalari chegaralarini buzilishiga olib keladi, bu monopoliyadan chiqarishning boshlanishi va kommunal xizmati tizimiga raqobatni joriy etish bo‘ladi.



3.3.1-rasm. Uy egalarining uy-joy fondini boshqarishni tashkil qilish yo‘llari[101]

Ushbu sxema asta-sekin shakllantiriladi va rivojlanadi, chunki uy-joy kooperativi boshqaradigan uy-joylarning ulushi ularning professional kadrlari bilan ta’minlanadi va uy-joy mulkdorlari uy-joy mulkdorlari bozoriga ularning iste’molchisi bo‘ladigan xizmatlarni xaridorga yetkazishga imkon beradi. Bunday loyiha kommunal xizmati

[100] Хурхумал Лали Вадимовна. Развитие организационно-экономических форм реализации жилищно-коммуналных услуг в современных условиях хозяйствования. Афтореферат. Майкоп–2010.
[101] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

tizimida kommunal xizmat ko‘rsatuvchi soha vakillariga xarajatlarni kamaytirish va ularning samaradorligini oshirish uchun kompleks mexanizmlarni yaratishga imkon beradi. Natijada, bu sohada subsidiyalar yo‘q bo‘lib ketadi va xarajatlar tejalishi kommunal xizmatini modernizatsiya qilish uchun kapital qo‘yilmalar uchun kompensatsiya manbai bo‘ladi. Keyinchalik chegara qiymatidan oshib ketadigan ta’riflarni namoyish etilmaydigan siyosatidan voz kechish, aholining aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga bo‘lgan haqiqiy xarajatlarning 100 foizini to‘lashga qobiliyatini va hohish-istaklarini oshirish mumkin bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, taklif qilingan ta’riflar o‘zgarishining tahlil qilinishini ta’minlaydi, ularni uzoq muddatga belgilaydi, bu kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va uy-joy mulkdorlari uchun barqaror moliyaviy vaziyatni yaratadi. Uzoq muddatli (5 yil) ta’rif rejasini belgilashda xizmat ko‘rsatadigan kommunal xizmatlarning qaysi sabablarga ko‘ra ro‘y berayotganini aniqlash uchun tartibga soluvchi organga murojaat qilish mumkin. Bu sabablar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

– yoqilg‘i-moylash materiallari narxlarining ko‘tarilishi natijasida ishlab chiqarish xarajatlarini ko‘paytirish;

– tarmoqdagi ish haqi ta’rif bitimi shartlarini qayta ko‘rib chiqish;

– budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalarga ajratmalar va to‘lovlar miqdorini o‘zgartirish va boshqalar.

Ta’rifni belgilashning bunday sabablari ro‘yxatga olingan korxonaning o‘ziga xos xususiyatiga qarab o‘zgartirilishi yoki qo‘shilishi mumkin. Shu bilan birga, o‘zgartirilgan ro‘yxat yopiq bo‘lgani ma’qulroq. Yani, uni ya’ni. u tartibga solgan davrda o‘zgartirilmasligi lozim. Natijada yuzaga keladigan ijobiy yoki salbiy o‘zgarishlarni kuzatishga imkon beradi. Bundan tashqari, ta’riflarni tartibga solish protseduralari ta’riflarni shakllantirish jarayonining oshkoraligi bilan ta’minlanishi kerak. Bu davlat xizmatlari iste’molchilarining ishonchini qozonish, shuningdek, ta’riflarni tartibga solish jarayonida manfaatlar muvozanatini ta’minlash uchun zarurdir.

Bizning fikrimizcha, shahar hokimiyati doirasida barcha iste’molchilar uchun yagona ta’rif siyosatini olib borish maqsadga muofiq bo‘ladi.

Issiqlik, gaz, suv ta’minoti kommunal xizmatlari manbalaridan qat’iy nazar, kommunal xizmatlarning qiymati shahar (sanoat, davlat sektori, aholi) bo‘yicha bir xil bo‘lishini talab qiladi. Ushbu yondashuv turli xil pudratchilar tomonidan ob’ektiv ravishda har xil narxlarda amalga oshiriladigan ishlarning va xizmatlarning og‘irligi o‘rtacha narxini hisoblash va kiritish imkonini beradi, natijada pudratchilar o‘rtasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash mexanizmini yaratishni kun tartibiga olib chiqadi[102].

Shu bilan birga, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat idoralari kommunal xizmatlar ko‘rsatadigan unitar korxonalar va barcha darajadagi hokimiyat organlari uchun mablag‘larni olish tartiblarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish tizimi qarz mablag‘larini olish uchun ikki variantni ham qaytarib beriladigan, ham qaytarib berilmaydigan darajada taqdim etmoqda.

Qarz oluvchi mablag‘larni ikki variantga (qaytariladigan va qaytarib berilmaydigan) taqdim etish mexanizmlarini taqsimlash korxonalar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tizimini, kommunal xizmat kompleksini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, uning barqarorligi va mustaqil ishlash imkoniyatlarini ta’minlash tizimining oshkoraligini ta’minlashga qaratilgan[103].

Qarz oluvchi mablag‘larni qaytarib olinmasdan taqdim etishga kelsak, ular birinchi navbatda, barcha boshqa narsalar teng bo‘lgan loyihalar uchun moliyalashning umumiy hajmiga nisbatan budjet yordamini talab qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab loyihalar korxonalarning o‘zlari yoki qarz mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi.

---

[102] Хурхумал Лали Вадимовна. Развитие организационно-экономических форм реализации жилищно-коммуналных услуг в современных условиях хозяйствования. Афтореферат. Майкоп–2010.

[103] Хурхумал Лали Вадимовна. Развитие организационно-экономических форм реализации жилищно-коммуналных услуг в современных условиях хозяйствования. Афтореферат. Майкоп–2010.

Tijorat banklaridan qarz mablag‘larini jalb qilish va kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish uchun moliyalashtiriladigan loyihalarni maxsus kafolatli agentliklar orqali ham amalga oshirish mumkin. Loyihaning maqsadi kafolatlangan organlar tomonidan tasdiqlangan loyihalarni amalga oshirish uchun tijorat banklariga kreditlar berish, shu jumladan, energiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar uchun kreditlar berish (issiqlik va suv o‘lchagichlarni o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatish, muhandislik tarmoqlarini modernizatsiya qilish va boshqalar) uchun kafolatlar berish hisoblanadi. Bunday agentliklarning yakuniy maqsadi kredit va boshqa qarz mablag‘lari qiymatini kamaytirishdir. Bundan tashqari, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha loyihalar bo‘yicha agentliklarning ixtisoslashuvi ushbu loyihalarda mavjud bo‘lgan o‘ziga xos xatarlarni yaxshiroq baholash, bu sohaga xususiy kapitalni jalb qilish imkoniyatini yaratish, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining rahbarlari bilim va ko‘nikmalarini oshirishga yordam berish imkonini beradi.

Bunda investitsiya takliflarini ishlab chiqish va biznes-rejalarni tayyorlashdagi kommunal xizmatlar shular jumlasidandir. Bozor mexanizmlarining faoliyatiga asoslangan holda, agentliklar faqatgina kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish, iqtisodiyotning ushbu sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, balki qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish va bank tizimini mustahkamlash masalalarini hal qilishda yordam berishi mumkin[104].

Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini energiya tejash va modernizatsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish natijasida belgilangan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ishlar davomida ko‘p qavatli uylarning tomlari ta’mirlanib, ichki muhandislik tarmoqlari almashtiriladi, liftlar almashtiriladi, binoning javonlari, elektr jihozlari va boshqalar ta’mirlanadi. Biroq, jabhalarni izolyatsiya qilish kabi muhim ishlar olib borilayotgan ta’mirlash ishlari ro‘yxatidan

[104] Хурхумал Лали Вадимовна. Развитие организационно-экономических форм реализации жилищно-коммуналных услуг в современных условиях хозяйствования. Афтореферат. Майкоп–2010.

chiqarilgan. O‘tgan asrning 70-80 yillarida qurilgan va kapital rekonstruksiya qilinadigan uylarda tashqi devorlardan issiqlik yo‘qotish darajasi sifatida joriy isitish standartlari bilan qurilgan yangi binolarda bo‘lgani kabi ikki baravar yuqori. Bundan tashqari, bu panel va g‘ishtli ko‘p qavatli binolar uchun ham amal qiladi. Uylarning jabhasini isitmasdan, issiqlik korxonalari ko‘chalarni isitadi, bu gaz va elektro-energiya narxlariga nisbatan qabul qilinmaydi. Bundan tashqari, bu ko‘p qavatli uylarda yashovchilar uchun davlat xizmatlarining o‘sishining sabablaridan biridir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, fasadlarining taskinlanishi aholiga kommunal xizmatlar uchun 35 % kamroq haq to‘lash imkonini beradi. Bundan tashqari, ularni O‘zbekistonda qabul qilingan energiya samaradorligi standartlariga, shu jumladan dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlariga yetkazish kerak.

Misol tariqasida Rossiyadagi uy-joylarni ta’mirlash paytida amalga oshirilgan ishlar ro‘yxatiga ushbu turdagi ishlarni kiritish kamroq, biroq ayrimlari bor. Xususan, Belgorod viloyatida ko‘p qavatli binolarni ta’mirlash bo‘yicha manzilli dasturni amalga oshirishda 2009 yildan boshlab, Rossiyadagi energiya tejamkor issiqlik izolyatsiyasi qoplamasi bilan moslashtirilgan turar-joy binosini qoplash uchun texnologiya qo‘llanilgan. Ushbu material elektr, issiqlik va ovoz izolyatsiyasining eng yaxshi ishlashi bilan tavsiflanadi. Stavropol o‘lkasida, an’anaviy izolyatsiya bilan solishtirganda 2 -3 barobar kamroq miqdorda issiqlik energiyasining (42% gacha) tejaydigan 0,8 mm.li suyuq seramika qoplama bo‘lib panel uy-joylar uchun qulay vositadir[105].

Bizning fikrimizcha, bunday texnologiya Samarqand shahridagi shahar tuzilishida joriy etilishi mumkin. Bugungi kunda Samarqand shahrida ko‘p qavatli uylardagi obodonlashtirish ishlarini muvaffaqiyatli olib boradigan, turar-joylarni ta’mirlash ishlarini olib borish bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni jalb qilish orqali issiqlik

[105] Х.Л.Вадимовна. Развитие организационно-экономических форм реализации жилищно-коммуналных услуг в современных условиях хозяйствования. Диссертация Майкоп – 2010. 118 стр.

izolyatsiyasi qoplamasini mavjud ko‘p qavatli uy-joy va yangidan quriladigan ko‘p qavatli uylarga ishlatish ortiqcha energiya sarfini olgan bo‘lar edi.

Bizning fikrimizcha, Samarqand shahridagi markaziy issiqlik ta’minoti tizimining samaradorligi alohida issiqlik manbalarini tashkil qilish yo‘li bilan yaxshilanishi mumkin, ulardan foydalanish amalda energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Bunday issiqlik manbalaridan foydalanish sizning elektr-energiyangizning 15 foizini tejash imkonini beradi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish samaradorligi 40 foizni tashkil qilishi mumkin. Shu bilan birga, texnologik jihatdan issiqlik va suv iste’molini yanada sodda va real ravishda o‘lchash imkonini beradi, chunki alohida issiqlik punktlarining konstruktiv xususiyatlari o‘lchash asboblarini o‘rnatishni ta’minlaydi. Shu qatorda suv iste’mol qilish jarayonida mavjud uylardagi hamda yangi quriladigan uylardagi jo‘mraklarni “aerator”li jo‘mraklarga almashtirish maqsadga muvofiq. Chunki, suv sayyoramiz hududining 70 foizini qoplaydi. Shu bilan birga, ushbu miqdorning atigi 3 foizi chuchuk suv, ya’ni ichish uchun yaroqlidir. Jamiyatdagi har qanday ishlab chiqarishni suvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Aksariyat korxonalarda ishlab chiqarish jarayonida toza chuchuk suvdan foydalanishi achinarli holat kasb etgan. Shunday ekan chuchuk suvni iste’mol qilishda tejash muhim omillardan biri hisoblanadi. “Aerator”li jo‘mraklar suvni iste’mol qilish jarayonida suvni samarali tejash xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan, oddiy jo‘mrak 1 minudda 16 litr suv chiqarsa oddiy “aerator”li jo‘mraklar 6.5 litr suvni chiqaradi, ammo, zamonaviy spreyli “aerator”li jo‘mraklar 1 minudda 3 litr suv chiqarishi bilan ajralib turadi. Bu holat kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida suv ta’minoti xizmatlarini yetkazib berishda xizmat ko‘rsatuvchi korxonlar uchun resurslar tejash imkoniyatini yaratib qolmay iste’molchilar ham uchun ham kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar xarjini kamaytirishga olib keladi. Eng muhimi toza ichimlik suvini tejashga va kelajak avlodlar uchun yetkazib berishga xizmat qiladi (3.5-rasm).



3.3.2-rasm. “Aerator”li jo‘mraklarni samarali ishlash jarayoni[106]

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi Samarqand citi hududida energiya tejash dasturlarini amalga oshirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, ushbu texnologiyani joriy etish imkoniyati mintaqaviy darajada ko‘rib chiqilish maqsadga muvofiqdir.

Samarqand shahridagi kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini energiya tejash va modernizatsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qilish jarayonida mavjud elektr ta’minoti tarmoqlarini himoya o‘chirish moslamasi (HO‘M) bilan kuchlanish darajasiga o‘tkazish, natijada uy-joy mulkdorlari har bir xonadonda 4 kVt quvvatga ega maishiy texnikadan foydalanishga imkon beradi. Bundan tashqari, shahar yoritgichi ehtiyojlari uchun yoritish moslamalari energiya tejamkorligi bilan almashtirish, raqamli iqtisosdiyotga o‘tish davrida Samarqand shahri tomonidan talab qilinadigan energiya sarfini 4 martaga kamaytirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

[106] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

to‘g‘risida”[107] gi PQ-3245-son qaroriga muvofiq, “Xavfsiz shahar” tizimlarini yaratish bo‘yicha bosqichma-bosqich ishlarni amalga oshirish dasturi amalga oshirilmoqda.

Bunga asosan “Xavfsiz shahar”, “Aqlli uy”, “Aqlli shahar” komplekslari yaratilmoqda. “Xavfsiz shahar” kompleksining asosiy vazifasi: aholini va hududlarni tabiiy va texnogen tabiiy ofatlardan himoya qilish, jamoat xavfsizligi, huquq-tartibot, yong‘in, yo‘l va ekologik xavfsizlik bilan ta’minlash, shuningdek, aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi va shahar miqyosidagi boshqa ob’ektlarni boshqarish sohasidagi muammolarni hal qilish, shu jumladan, avtomatlashtirilgan tizimlar bilan o‘zaro hamkorlik qilishdan iborat.

“Xavfsiz shahar” tizimi mazmun-mohiyatiga ko‘ra – bu mavjud avtomatlashtirilgan vositalar va istiqbolli respublika, viloyat, hududiy va ob’ektli avtomatlashtirilgan tizimlarning mahalliy darajadagi avtomatlashtirilgan tizimlaridan iborat majmua (kompleks)lari jamlanmasi bo‘lib, aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatdagi muammolarni hal etish, favqulodda holatlardan himoya qilishni ta’minlash sohasida birlashtiriladi.

Jamoatchilik xavfsizligini, huquq-tartibot va yashash joylari atrof-muhiti xavfsizligini ta’minlash uchun, shuningdek, shaharda turar-joy kommunal xo‘jaligi ob’ektlarini va shahar miqyosida boshqa tarmoqlar ob’ektlarini, ular bilan hamkorlik qiluvchi boshqa avtomatlashtirilgan tizimlarni boshqarishni ta’minlaydi. Loyiha ikki bosqichda amalga oshirilmoqda. Birinchi bosqichda tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda texnik ishlar (vosita va uskunalarni o‘rnatish, telekommunikatsiya infratuzilmasini qurish va boshqalar) amalga oshiriladi.

Bugungi kunda Samarqand shahrida vazirlik va idoralar malakali mutaxassislaridan iborat bo‘lgan “112” yagona raqami favqulodda ekspluatatsiya xizmatlarini chaqirish tizimini joriy etish bo‘yicha sinov

[107]Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида лойиҳаларни бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Фармони. Халқ сўзи газетаси. 2017-йил 29-август

loyihani amalga oshirish uchun idoralararo ishchi guruhi tuzilgan. Samarqand shahrida “112” tizimini yaratish doirasida amal qilib turgan avtomatlashtirish ob’ektlarining axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini (markaziy dispetcherlik xizmatlari, MDX) o‘rganish amalga oshirildi.

Hozirgi davrda texnologiyalar rivojlanishi asosida ko‘plab aholi turar-joy binolari avtomatlashtirilmoqda, ya’ni “Aqlli uylar” bunyod etilmoqda. Bugungi kunda “Aqlli uy” tizimini yaratishda havo harorati, namlik darajasi, atmosfera bosimi va yoritilganlik darajasi, uy xavfsizligini ta’minlash darajasi kabi ko‘rsatkichlarni nazorat qilish texnologiyalaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Nazoratni amalga oshirish uchun bir necha turdagi ma’lumot beruvchi qurilmalardan foydalanish talab etiladi. O‘z navbatida, mazkur qurilmalarni birgalikda ishlash jarayonini tashkil etish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, qurilmalarni ishlash jarayonini nazorat qilish uchun maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega xodimlar jamoasi talab etiladi. Ishchi-xodimning ishini nazorat qilish jarayoni boshqaruv subyektlari uchun qo‘shimcha mas’uliyat yuklaydi. Bu esa tabiiyki, qo‘shimcha moddiy, moliyaviy va inson resurslarini talab etadi.

Ushbu vaziyatdan chiqish uy-joy mulkdorlarining uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining barqarorligini va ishonchliligini ta’minlashni belgilab beradi, xususan:

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligi va xizmatlar sifatini yuksalishi uchun “Aqlli shahar”, “Xafsiz shahar” kompleksalrini joriy etish, ushbu tizimni kommunal xizmatlar ko‘rsatish tarmoqlariga tadbiq etish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini barqaror va ishonchli ishlashini ta’minlash hamda mintaqaviy va mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga xususiy kapitalni jalb qilish uchun maxsus kafolatli agentliklar tashkil etish va bu orqali budjetni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish zarur;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi majmuasining aholi uchun asosini iste’molchilar va kommunal xizmatlar bilan ta’minlaydigan korxonalarning iqtisodiy manfaatlari mexanizmlariga asoslangan raqobat muhitini yaratish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyatini samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun davlat xususiy sherikchilik dasturini tadbiq etish;

– raqobat muhitini shakllantirish orqali aholiga uy-joy bilan xizmat ko‘rsatishni amalga oshiruvchi, kommunal unitar korxonalarni ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish jarayonini amalga oshiruvchi korxonalarning monopolistik holatini o‘zgartirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini zamonaviy-innovatsion shakllarini samaradorligini oshirish sohaga bir qator yangi texnologiyalarni jalb qilish orqali erishish mumkin. Ammo, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bilan samaradorlikning o‘zagiga yetib bo‘lmaydi. Zamonaviy texnologiyalar texnik jihatdan ishlash faolligini belgilab berishi, shuningdek, xizmatlar sifatini yuksalishi, ishlab chiqaruvchi daromadini oshishini ta’minlash mumkin. Biroq, samaradorlikga erishish uchun aniq ishlab chiqilgan bashorat ko‘rsatgichlari mavjud bo‘lsa tizim samaradorligini oshirish hamda aniq rejaga ega bo‘lamiz.

Shu maqsadda, Respublika aholisiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini istiqbolda rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarini 2025-2028 yillar uchun bashoratlashtirishda logarifmik, kvadratik modeldan foydalanish natijasida faoliyat yuritayotgan kommunal xizmat ko‘rsatish subyektlari sonini istiqbollashtirish qolaversa kvadratik hamda kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish dasturlari va konsepsiyalarini ishlab chiqishda muhim asos bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida tizimda mavjud statistik ma’lumotlar tahlili quyidagi beshta ko‘rsatkichni bir-biri bilan o‘zaro bog‘lash mumkinligini va bu bog‘lanishlarda korrelyatsiya mavjudligini ko‘rsatdi (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida kommunal xizmatlarni hajmi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlari[108]

Yillar	Uy-joy kommunal xizmatlar hajmi, *(mlrd. so‘m)* **(*Y*)**	Aholining soni, (*mln.kishi*) (x_1)	Aholini kvartira (uy)lar bilan ta’minlanish soni, (*birlikda)* (x_2)	Aholining umumiy daromadlar hajmi, *(mlrd.so‘m)* (x_3)	Aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar xajmi, *(mlrd.so‘m)* (x_4)	Tadbirkorlik faoliyatining xizmatlarda ulushi *(mlrd.so‘m)* (x_5)
2014	368,8	28,0	5512030	50436,5	27126,8	15214,1
2015	409,5	29,1	5571042	66670,5	35196,3	19556,5
2016	465,4	29,5	5629349	82153,6	44386,0	24841,8
2017	590,1	29,9	5718187	101661,2	55872,8	31409,1
2018	729,1	30,4	5804059	117888,9	68032,1	40187,9
2019	890,6	31,0	5796860	158699,8	78530,4	47269,6
2020	1808,7	31,5	5940490	185036,5	97050,0	61346,2
2021	3649,6	32,1	5924275	220811,8	118811,0	69212,7
2022	4673,3	32,6	6074552	282762,5	150889,8	84433,4
2023	5933,6	33,2	6337713	346461,5	193697,8	103106,6
2024	6457,9	33,9	6528816	401501,5	218853,5	112743,5

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini ekonometrik tahlil qilishda biz quyidagi gipotezalarga asoslandik. H_0: tanlangan omillar koeffitsientlarining kamida bittasi noldan farqli.

H_1: tanlangan omillar koeffitsientlarining barchasi nolga teng.

Yuqoridagi omillar o‘rtasida korrelatsion bog‘anishni baholash maqsadida biz quyidagi korrelyatsiya matritsasini oldik.

3.3.2-jadval

	ln Y	*lnX1*	*lnX2*	*lnX3*	*lnX4*	*lnX5*
ln Y	1					
lnX1	0,957891	1				
lnX2	0,962269	0,993373	1			
lnX3	0,963054	0,997238	0,996795	1		
lnX4	0,96273	0,996483	0,996726	0,998413	1	
lnX5	0,923206	0,95669	0,9423	0,95419	0,96076	1

[108] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида ҳисобланган.

Matritsadan ko‘rish mumkinki, barcha omillar o‘zaro kuchli statistik bog‘langan (korrelyatsiya 0,7 dan yuqori), ya’ni multikollinearlik holati mavjud ekanligini aks ettiradi.

Ekonometrik tahlil natijasiga ko‘ra erksiz o‘zgaruvchiga tanlangan omillardan faqat bitta erkli o‘zgaruvchining ta’siri statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagi jadvaldan quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$\mathbf{lnY=1,63*lnX_5-10,31}\ (3.1);$$

Agar tadbirkorlik subektlarning xizmatlardagi ulushi 1 foizga o‘ssa, aholiga kommunal xizmatlar hajmi 1,63 % ga o‘sadi. Qolgan omillar 90% ishonchlilik darajasida statistik ahamiyatga ega emas. Shunday qilib, bizda H_1 gipotezani rad qilib H_0 gipotezani qabul qilishga yetarlicha asos bor.

Biz chiziqli trendlash usulidan foydalanib aholiga kommunal xizmatlar hajmini bashorat ko‘rsatkichlarini chiziqli o‘sib boradi deb qabul qildik va ushbu formula orqali bashorat natijalarini hisobladik.

$$\mathbf{y=669,04*t\ -1540,9}\ (3.2);$$

Y-kommunal xizmatlar hajmi, t esa vaqt.



3.3.3-rasm. Aholiga uy-joy kommunal xizmatlari hajmining bashorat ko‘rsatkichlari[109] (mlrd.so‘m)

[109] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

Ushbu bashorat ko‘rsatkichi kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyatini samarali faoliyat ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Xususan, davlat ahamiyatiga molik dasturlarni amalga oshirishda, Prezidentimiz tamonida qabul qilingan Qaror, Farmonlarda keltirilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirlik tamonidan aholiga sifatli, arzon va qulay kommunal xizmatlarni yetkizib berishda shuningdek, kommunal xizmatlarni ishlab chiqaruvchi subyektlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

III BOB bo‘yicha xulosa

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini tashkil etishda innovatsion va klasterli yondashuvni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi xulosaga kelindi:

1. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda xarajatlarni tejash imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Jumladan, olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida faoliyat ko‘rsatadigan korxonalarda “Simplex” xarajatlarni optimallashtirish usulini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda xarajatlarni tejash kommunal xizmatlar ishlab chiqarish bosqichidan uni iste’molchiga yetib borguncha jarayonlarni o‘z ichiga oladigan optimal qo‘llaniladigan usul ekanligi asoslandi.

2. Samarqand viloyatda klaster tizimini tashkil qilish elektr-energiya, gaz, oqova-suv ta’minoti kommunal xizmatlarni yetkazib beruvchilar, obodonlashtirish departamenti, chiqindilarni tashish va qayta ishlash bo‘limi, viloyat hokimiyati, viloyat uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi, iqtisodiyot va sanoat bo‘limi, investitsiya qo‘mitasi, XUMSh va oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorligini tashkil etish orqali zarur qonun va me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularni faoliyati bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish klaster tizimiga bosqichma-bosqish o‘tish, shuningdek, klasterlarni barpo etish loyihasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun hududiy davlat organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va aholiga

kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi ayrim vakolatlarni amalga oshiruvchi nazorat organlardan tashkil topgan kuzatuv Kengashini tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini zamonaviy-innovatsion shakllarini samaradorligini oshirish bo‘yicha izlanishlar davomida kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, kommunal infratuzilma ob’ektlarining energiya samaradorligini oshirish va modernizatsiya qilish, “aqlli turar-joy”, “xavfsiz turar-joy” loyihasi bo‘yicha takliflar, shuningdek, mamlakatimiz aholisiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasining 2021-2026 yillar davomidagi o‘zgarish qonuniyatlari aniqlangan hamda ushbu ko‘rsatgichlar asosida sohaning yaqin kelajakdagi o‘zgarishlar yo‘nalishlarini baholash bo‘yicha bashorat ko‘rsatgichlar ishlab chiqilgan.

IV BOB. UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

4.1. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati

Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra “Raqamli iqtisodiyot” konsepsiyasining shakllanishi amerikalik olim N. Negropontega bog‘liq. N. Negropontening fikricha, raqamli iqtisodiyot yangi iqtisodiy tizim sifatida raqamli mahsulotlarning fizik vaznga ega emasligi va ularning hajmi axborot o‘lchami bilan almashtirilganligi, mahsulot egallagan maydonning bir necha baravar kichik ekanligi elektron tovarlarni ishlab chiqarish uchun resurs xarajatlarining past ekanligi, internet tarmog‘i orqali mahsulotlarning global darajada juda tez harakatlanishi kabi afzalliklarga ega degan fikrlarni ilgari suradi. D.Tapskott birinchi bo‘lib, yangi texnologiyalar va raqamli biznes strategiyalari qanday qilib biznes jarayonlarini o‘zgartirish bilan birgalikda turli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish, korxonaning yangi tuzilmasini shakllantirish va samarali biznes qoidalarini belgilash usuli bo‘lishini aniqladi. Raqamlashtirishning eng muhim natijalaridan biri sifatida D.Tapskott firmaning institutsional nazariyasiga asoslanib, tranzaksiya xarajatlarining, jumladan, ma’lumot izlash va shartnoma tuzish xarajatlarining sezilarli kamayishi va natijada mol yetkazib bilan iste’molchi o‘rtasida vositachilarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatiladigan xizmat ko‘rsatishning yangi shakllarining paydo bo‘lish imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatiga innovatsion, raqamli texnologiyalar, malakali kadrlar mehnatini joriy etish hamda huquqiy asosini takomillashtirish orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, mamlakat iqitisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirishga erishishimiz mumkin. Bizga ma’lumki raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida birinchi jabxalardan biri bo‘lib xizmat ko‘rsatish (servis) sohasi hisoblanadi. Dastavval raqamli iqtisodiyot “buyumlar interneti”, “mediya internet” dasturiy ta’minoti

orqali aholiga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini amaliyotga tadbiq eta boshlagan. Bu jarayonlarda raqamli texnologiyalar samaradorligi, kam xarajatligi, tizim shaffovligi, ochiq faoliyati sababli ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchilarda katta qiziqish uyg‘otgan. Bu holat o‘z navbatida ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarini yangi iqtisodiy tartiblarga o‘tish jarayonini jadallashtirib, insonlar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining ichki va tashqi jarayonlarini keskin o‘zgartirdi, tizimda korrupsiya holatlarini keskin oldini oldi hamda samarasini oshishini vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdorligining o‘sishiga xizmat qilishi hamda ijtimoiy boylik ishlab chiqarishning moddiy tarkibiy qismida qo‘shilgan qiymat yaratishi lozim va bu axborotlashgan jamiyat iqtisodiyotida uning birinchi iqtisodiy mazmuniga aylanadi. Bu borada mamlakatimiz olimlari tamonidan “raqamli iqtisodiyot yoki boshqacha qilib aytganda veb-iqtisodiyot zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashkil qilinadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimini ifodalaydi”[110] degan fikrlar keltirilgan. Demak, raqamli iqtisodiyot moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohadida o‘zining vertikal iqtisodiy o‘sishi bilan ajralib turadi.

Hozirgi davrda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga “Taraqqiyot” modeli asosida o‘tib bormoqda. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy sohani zamonaviy ko‘rinishga keltirish, raqamlashtirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasi jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda (4.1.1-jadval).

Qo‘yida keltirilgan jadval ma’lumotlarini tahlil qilar ekanmiz 2019-yilda axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi 6 377,8 mld. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 17 738,7 mld. so‘mni tashkil etgan. Shundan, AKT

[110] .B.Boboqulov “Kommunal xizmat ko‘rsatishda xarajatlarni optimallashtirish” Innovatsion iqtisodiyot / Инновационная экономика / The Innovation Economy №2. 2023.

(axborot kommunikatsiya texnologiyalri) yetakchi bo‘lib 2019-yilda 5 849,0 mld. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 12 298,8 mld. so‘m o‘sish dinamikasini erishdi.

4.1.1-jadval.

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi *(mld.so‘m)*[111]

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	**6 377,8**	**7 934,0**	**8 701,4**	**11 121,8**	**17 738,7**
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	5 849,0	7 059,0	7 508,4	9 399,3	12 298,8
AKT ishlab chiqarish	238,3	307,3	283,7	551,2	777,1
AKT savdosi	281,6	240,4	299,0	261,8	381,4
AKT xizmatlari	5 329,1	6 511,3	6 925,7	8 586,3	11 140,3
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	518,7	767,7	928,3	1 120,6	1 511,3
Elektron tijorat	10,1	107,3	264,7	602,0	3 928,6

Shundan, eng past ko‘rsatkichni elektron tijorat sohasi ko‘rsatgan uning yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatdagi hajmi 2019-yilda 10,1 mld. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 3 928,6 mld. so‘m o‘sish tendensiyasiga erishgan. Ammo, elektron tijorat sohasining ulushi kamligini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri sohani yangi tashkil etilgani hamda hozirgi davrda e’tibor berilyotganligi sabab bo‘lmoqda. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi 2019-yilga

[111] http: //https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot

nisbatan 2023-yilda qariyib uch barobar o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizcha, bunday o‘sish tendensiyasiga erishda mamlakatimiz tamonidan yaratilgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy shart-sahoitlar omili asosida natijadorlikga erishildi. Shu bilan birgalikda davlatimizda raqamli hukumat, raqamli tibbiyot, internet banking, raqamli ta’lim, elektron tijorat, elektron biznes faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha shart-sharoitlar yaratilib amaliy natija olinmoqda. Bu esa yaqin vaqtlar ichida YaIM mahsulotda raqamli iqtisodiyotning ulushing yanada ortishiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatining yuksalishiga olib keladi.

Tadqiqotlarimiz davomida raqamli iqtisodiyot 2019-yil hal qiluvchi bosqichga kirishganini ko‘rishimiz hamda sayyoramiz aholisining yarmi internetga ulanganligini fikrimiz tasdig‘idir. Ma’lumotlarga ko‘ra McKinsey global institutining (MGI) tahlillariga ko‘ra, yaqin 20 yil ichida dunyoning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining 50%gacha bo‘lgan qismi raqamlashtiriladi, bu jarayon ko‘lami bo‘yicha XVIII–XIX asrlarda ro‘y bergan sanoat inqilobi bilan taqqoslanishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va o‘sish dinamikasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko‘p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot manbai esa shu qadar salmoqli bo‘ladi. Shu bois, ishtirokchilar soni ko‘p va axborot texnologiya xizmatlari keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur’atlarda rivojlanadi.

Hozirgi davrda xizmat ko‘rsatish sohasining ko‘plab jabxalarida raqamli xizmatlarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, yetkizib berish, “online” savdo, elektron biznes, elektron tijorat, media, ta’lim, kommunal xizmatlar, tibbiyot, davlat xizmatlari, bank xizmatlari va boshqa sohalarni raqamlahtirilishi soha faoliyatini natijadorligiga, xizmatlar sifatini yuksalishiga, tizim shaffovligini oshirishiga, korrupsiya holatlarini bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Ammo, xizmat ko‘rsatish sohasi to‘laqolli raqamlashtirilmaganli soha faoliyatidan to‘laqolli foydalanishga to‘siq bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida transport xizmatlari, maishiy xizmatlar (sartaroshxona,

aftomobil ta’mirlash, oziq-ovqat), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar, me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarini raqamlashtirish xizmat ko‘rsatish sohasini to‘laqolli samaradorligini ortishiga olib keladi. Ushbu xizmat ko‘rsatish sohasini suniy intelekt, blokcheyn, buyumlar internet, 5G aloqa tizimi, 3D prrentirlari, virtual reallik, uchuvchisiz qurilma kabi dasturiy va texnik vositalarni qo‘llash orqali sohani raqamlashtirish xizmt ko‘rsatish natijasini yuksaltirishimiz, qayta tiklanmas resurslardan samarali foydalanib insonlarning cheksiz ehtiyojini qondirish hamda harajatlarni tejab iqtisodiy o‘sishga erishishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan xizmat ko‘rsatish sohalarini raqamlashtirish hozirgi davrning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “…zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish”[112] deb ta’kidlaganliklari, ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab bermoqda. Buning uchun xizmat ko‘rsatish sohasiga raqamli texnologiyalarni mamlakatimiz hududiga olib keluvchi korxonalarni davlat tamonidan moliyaviy, huquqiy, bojxona xizmatlari tamonidan qo‘llab quvvatlash, shuningdek, raqamli texnologiya vositalarni ishlab chiqaruvchi investorlar uchun shart-sharoitlar yaratib berish, raqamli texnologiya asoslangan korxonalarni mamlakatimizda faoliyatini tashkil etish, raqamli texnologiya dasturlari, tovarlarini ishlab chiqaruvchilarga soliq to‘lash imtiyozlarini berish, mavjud kadrlarni raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda malakasini ortirish, raqamli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha oliy dargohlarda malakali, zamon standartlariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash, hamda davlat xususiy sherikchilik doirasida raqamli xizmat ko‘rsatish subyektlari faoliyatini shakllantirsh kabi maqsadlarni amaliyotga joriy etish orqali

112 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tamonidan 2023-yil 24-may qabul qilinganning “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-162-son Qarori. www.lex.uz

xizmat ko‘rsatish samaradorligiga va davlatimiz iqtisodiyotini vertikal o‘sishiga erishishimiz mumkin.

Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish orqali quyidagi ijobiy avzalliklarga ega bo‘lishi mumkin:

– xizmat ko‘rsatish jarayoni uchun to‘lovlarni amalga oshirish xarajatlarini kamayishiga;

– ko‘rsatiladigan xizmatlar haqida batafsil va tezroq ma’lumotlar olish imkoniyatlari vujudga kelishiga;

– mamlakatimizda ishlab chiqariladigan moddiy va nomoddiy tovarlarning jahon bozoriga chiqishi;

– fidbek (iste’molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtirilishiga;

– xizmat ko‘rsatish jarayonida tezroq, sifatliroq, qulayroq muhitni shakllanishi;

– xufyona iqtisodiyotni rivojlanishini oldini olishga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish maqsadida quyidagi xulosa va takliflarga keldik:

Birinchidan, uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish xajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida raqamli texnika-texnologiyalar (blokcheyn texnologiyasi, bulutli texnologiyasi, su’niy intelekt, 3D texnologiyasi, 5G aloqa tizimi, buyumlar interneti)dan samarali foydalanish hamda xizmat ko‘rsatish sohasini raqamli texnologiyalar bilan diversifikatsiya qilish va buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;

Ikkinchidan, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida malakali kadrlar tayyorlash, sohada o‘quv faoliyati darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, xizmat ko‘rsatish mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xizmat ko‘rsatish tizimiga mutaxassislarni raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan jalb qilish orqali sohani rivojlantirish;

Uchinchidan, raqamli xizmatlar va xizmatlar uchun elektron to‘lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to‘lovlarni qabul qilish, va qayta ishlash

imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasini takomillashtirish;

To‘rtinchidan, elektron tijoratning rivojida muhim rol o‘ynovchi pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash, shuningdek, pochta va logistika xizmatlarini amaliyotga joriy etish;

Beshinchidan, raqamli xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatyotgan subyektlar faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy tamondan qo‘llab-quvvatlash, elektron tijorat yuritish sohasi qonunchilik bazasini takomillashtirish.

Ushbu taklif va tavsiyalarning hayotga tadbiq etilishi mamlakat iqtisodiyotining rivojiga, YaIMda xizmatlar ulushining ortishiga, aholi turmush farovonligini yuksalishiga, qayta tiklanmas tabiy resurslarni tejashga, jaxon bozoriga tez sur’atlarda chiqishga hamda Prezidentimiz belgilab bergan 2030 yilga borib YaIMda raqamli iqtisodiyotning ulushi 30 % yetkazish darajasiga erishishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda jaxonda yuz berayotgan globallashuv natijasida mamlakatlar ijtimiy-iqtisodiy sohalarini rivojlanish tendensiyalari o‘z navbatida raqamli texnologiyalarni keng tadbiq etishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu borada dunyo yetakchi mamlakatlarining YaIMda raqamli iqtisodiyotning ulushining oshib borishi bilan ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, AQSHda YaIMda raqamli iqtisodiyotning ulushi 12 %, Xitoyda 11 %, Hindistonda 4 %, Rossiya Fedaratsiyasida 3,5 % tashkil etadishi bilan ham ko‘rishimiz mumkin[113]. Bu borada mamlakatimiz ko‘rsatkichi 2,5 % tashkil etmoqda. Shunday ekan, mamlakaimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hozirgi vaqtda iqtisodiyotimizni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyev tamonidan qabul qilingan “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari

[113] http://www.worldbank.org/eca/russian/data/78i

to‘g‘risida”[114] Qarorida “….aholi va tadbirkorlik subyektlariga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, byurokratik tartibotlarni qisqartirish, shuningdek, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda hududlarni raqamli transformatsiya qilish” kabi ustuvor maqsadlarni qo‘yilgani davlatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, davlat boshqaruvi, ta’lim, tibbiyot va xizmat ko‘rsatish sohasi innovatsion faoliyatga asoslangan holda tez sur’atlarda raqamli iqtisodiyotga o‘tish kabi vazifalarni oldimizga qo‘ymoqda.

Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan islohotlarnin asosiy negizi bu davlat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush farovonligini oshirish, mehnat resurslari bandligini ta’minlash, inson kapitalini shakllantirish va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantishga qaratilgan. Ayniqsa hozirgi vaqtda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha strategiya jadal amalga oshirilib borilmoqda. Bu mamlakatimizni rivojlangan mamlakatlar qatoriga oliob chiqishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.

Bu borada “Raqamli O‘zbekistoin 2030” strategiyasida “…savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish”aniq maqsadlar belgilab berilgani davlatimiz drayveri bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohani rivojlantirishimizni taqozo etmoqda. Umuman raqamli iqtisodiyotni rivojlanish bosqichlariga etibor beradigan bo‘lsak xizmat ko‘rsatish sohani takomillashtirish natijasida vujudga kelgan desak fikrimiz xato bo‘lmaydi. Chunki, aholiga ko‘rsatiladiga xizmatlarni IT texnologiyalari bilan diversifikatsiya qilinishi natijasida xizmat ko‘rsatish hajmi va ko‘lami keng miqyosda oshishiga olib keldi. Keyinchalik boshqa sohalar ham raqamlashtirila boshladi va buning natijasida raqamli iqtisodiyot jadal sur’atlarda taraqqiy eta boshladi.

---

[114] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tamonidan 2023-yil 24-may qabul qilinganning “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-162-son Qarori. www.lex.uz

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, xizmat ko‘rsatish sohasida kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi alohida o;ringa egaki, bu sohasiz moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish, ijtimoiy soha, davlat boshqaruvini shakllanishida, rivojlanishida kommunal xizmatlarsiz rivojlana olmasligi ilmiy tasdiqlangan faktlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyevining “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari” to‘g‘risida Farmoni 2017 yil 18-aprelda (PF-5017-son) qabul qilingan. Bu Farmonda Respublika aholisining sifatli uy-joy kommunal xizmatlari bilan qamrab olinishni tubdan yaxshilash, uy-joy kommunal hizmat ko‘rsatish sohasida barcha tashkilotlarning o‘zoro hamkorligi uyg‘unlashgan texnologik zanjirini shakllantirish asosida uy-joy fondidan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko‘p xonadonli uylarning saqlanishi talablariga rioya etilishi ustidan texnik nazoratning samarali tizimini yaratish, shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarning ish sifatini oshirish va moliyaviy –iqtisodiy barqarorligini ta’minlash maqsadi qo‘yilganli, sohada dolzarb, o‘z muammosini yechmagan kamchiliklar borligini va uni bartaraf etishimiz lozimligini anglatmoqda.

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini raqamlashtirishda innovatsion faoliyatni o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda, bunday yechim joylashgan tekislik resurslar va energiya tejashni boshqarish tizimlarini shakllantirish hisoblanadi. Raqamli va innovatsion texnologiyalar transferi asosida uy-joy kommunal xizmatlarni resurs va energiya bilan ta'minlash elementlari shakllantirish mumkin (4.1.1-rasm).



4.1.1-rasm. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini raqamli va innovatsion asosda rivojlantirishda resurslar bilan ta'minlash mexanizmi

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimi subyektlari o'rtasida kommunal xizmatlarni o'z vaqtida sifatli amalga oshirish, sotish, ular uchun to'lovlarni raqamlashtirish hamda tizim faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

– kommunal xizmat ko'rsatish tizimini raqamlashtirishda davlatning rolini kuchaytirish va oshirish;

– uy-joy mulkdorlari shirkatlari, boshqaruv tashkilotlari va kommunal xizmat resurslarni yetkazib beruvchi korxonalarning raqamli ko'rinishga o'tish jarayoniga tayyorlash;

– kommunal xizmat ko'rsatish bozorini baholash uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash;

– kommunal xizmat ko'rsatish tizimida "Aqlli shahar", "Xavfsiz shahar" milliy loyihasini amalga oshirish;

– aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida nazorat axborot muhitini shakllantirish;

– kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida blokcheyn texnologiyalari va aqlli robot tizimlarini joriy etish;

– qayta tiklanadigan energiya man’balaridan foydalanish holati va istiqbollarini tahlil qilish;

– kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini issiqlik bilan ta’minlash, favqulodda vaziyatlarda qarorlarni qo‘llab-quvvatlashning aqlli tizimlarini rivojlantirish;

– shahar kommunal xizmatlarining monitoring va nazorat qilishning yagona axborot-tahlil tizimini shakllantirishni keng miqyosda amaliyotga joriy etish.

4.2. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini raqamli texnologiyalar asosida diversifikatsiyalash

Hozirgi globallashuv davrida dunyo mamlakatlari raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonini ildamlik bilan amalga oshirib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy sohada yuqori samaradorlikni ta’minlab bermoqda. Xusussan, AQSHda yalpi ichki mahsulotida raqamli iqtisodiyotning ulushi 3 trln, Xitoyda 1,7 trln, Buyuk Britaniyada 0,95 trln dollorni tashkil etishi[115] sohaga qaratilgan alohida e’tibor va rivojlantirish uchun kapitallarni to‘g‘ri yo‘naltirilganini anglatadi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “…ma’lumotlarning taqsimlangan reestri texnologiyalari, «sun’iy aql», superkompyuterlar imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, kripto-aktivlar bo‘yicha faoliyat jahonning ko‘plab mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.”[116]deb ta’kidlagani raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirishni toqazo etmoqda. Jahon tajribasidan ma’lumki raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish servis sohasida keng miqyosda amalga oshiriladi. Xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli

[115] www.statictika.com

[116] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son Qarori. 03.07.2018. www.lex.uz

texnologiyalarning o‘rni beqiyos bo‘lib xizmat ko‘rsatish sifati, raqabobatbardoshligi, tezkorligi va samaradorligi bilan ahamiyatlidir.

Aholi turmush darajasini yuksaltirish, farovonligini oshirishda xizmatlar tarkibidagi kommunal xizmatlarni o‘rni beqiyosdir. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish, xizmat sifatini yuksaltirish, korrupsiyani oldini olish, tizim shaffovligini ta’minlashda raqamli texnologiyalarning o‘rni beqiyosligini ko‘rsatib kelmoqda. Birgina elektr-energiya kommunal xizmatlari ko‘rsatish jarayonida “aqlli hisoblagich”larni o‘rnatilishi iste’molchilarda mavjud qarzdorliklarni keskin kamaytirdi.

Shuningdek, raqamlashtirish jarayoni uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga ijobiy tasir ko‘rsatadi, bu esa kommunal xizmat ko‘rsatish obyektlarida avariya holatlarini nolga kamaytirish imkonini beradi. Raqamli boshqaruv texnologiyalari va shaharning tezkor kommunal xizmatlarni markazlashtirish, uy-joy kommunal xizmatlarini yaxshilashga imkon beradi. Shuningdek, mamlakatimizda uy-joy kommunal xizmatlarni yaxlit yagona bir tizimga jamlashtirish imkonini beradi.

Xususan, resurslarni tejaydigan raqamli texnologiyalarni joriy etish hozirgi davrning asosiy talab va ehtiyojlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishda energiya tejashga ustuvor ahamiyat berilmoqda, bu xizmat ko‘rsatuvchi hamda ist’emolchilar uchun ham manfaatli hisoblanadi. Shu munosabat bilan Prezidentimizning 2018-yil 23-oktabrdagi “Elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash to‘g‘risida”[117]gi Qaroriga muvofiq, 2021-yilgacha 7 milliondan ortiq iste’molchilarning barchasi hamda elektr-energiyasini ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va taqsimlovchi korxonalar yagona elektr-energiyasini hisobga olish va nazorat qiliishning avtomatlashtirilgan tizimiga to‘liq o‘tkazildi. Shu maqsadda Andijonda 220 mingdan ziyod, Namanganda 570 mingdan ziyod, Farg‘onada 330

[117] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3981-son Qarori. 23.10.2018. www.lex.uz

mingdan ziyod aholi xonadonlariga zamonaviy elektr hisoblagichlar o‘rtanatildi[118]. Shuningdek, issiqlik, suv va gaz ta’minoti kommunal xizmatlarini samaradorligini oshirish uchun ko‘p qavatli binolarni zamonaviy “online” dasturi asosida ishlovchi “aqlli” hisoblagichlar bilan ta’minlash jarayonlari jadal suratlarda amalga oshirilib kelinmoqda.

Ammo, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi bazi kommunal xizmatlarda raqamli xizmatlarni joriy etilmagani xizmat ko‘rsatish samarasini kamaytirmoqda[119]. Ayniqsa, xususiy uy-joy mulkdorlar shirkatlari faoliyatini raqamlashtirilmagani sohada qarzdorlik miqdorining ortishiga, podyezlarni ta’mirlash va zamonaviy jihozlash, ko‘p kvartirali uylarning tom hamda podval qismlari o‘z vaqtida rekonsturiksiya qilinmasligi hamda ko‘p qavatli uylar atrofidagi bolalar maydonchasi, aftomobil turar joylari, umumiy foydalanadigan yerlarga o‘z vaqtida xizmatlar ko‘rsatmasligiga olib kelmoqda. Shuningdek, bugungi kunda xususiy uy-joy mulkdorlar shirkatlarida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish darajasi pasayib borishinini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayon aholi tamonidan amalga oshiriladigan to‘lovlarga nisbatan narozilik kayfiyatini vujudga keltirmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida aholiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish, xususiy uy-joy mulkdorlar shirkatlari faoliyatini raqamlashtirish, xavfsizlikni ta’minlash maqsadida tom va podval qismlarida intellektual datchiklar asosida jihozlash, shirkatlar boshqaruv, moliyaviy faoliyatini raqamlashtirish hamda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga oid me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish[120], rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi hisobga olingan holda, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy

[118] www.stat.uz

[119] Умаров Олимжон. Раqамли технологиялар инновациялар ривожига кенг йўл очади. http://xs.uz/uzkr/post/olimzhon-umarov-raqamli-tekhnologiyalar-innovatsiyalar-rivozhiga-keng-jol-ochadi

[120] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Uy-joy joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5017-son Farmoni. 2017 yil 18 aprel. www.lex.uz

etish ishlarini amalga oshrish, kommunal xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish, intellektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun “aqlli uy” tajribasini joriy etish xususiy uy-joy mulkdorlar shirkatlar faoliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Uzoq yillardan buyon markazlashgan ichimlik suvi ta’minoti yetib bormagan yoki buni imkoni bo‘lmagan olis qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta’minlash muammosi hal etilmay kelayotgan edi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, mazkur muammo yirik markazlashgan ichimlik suv infratuzilmasini qurish bilan emas, balki alohida bir aholi punkti uchun mo‘ljallangan lokal ichimlik suv ta’minoti tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish yo‘li bilan yechimini topishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi axborot xizmati rahbari bilan ayni mavzu yuzasidan suhbatlashdik. 2021-yildan boshlab qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta’minlash maqsadida lokal ichimlik suv ta’minoti tizimlarini qurish loyihalari davlat ijtimoiy buyurtmalari asosida amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yiladi, – deydi A.Ahmedov. – Yaqin kelajakda 5 million nafarga yaqin aholi davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida ichimlik suvi bilan ta’minlanadi. Davlatimiz rahbarining 2020 yil 25 sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, markazlashgan ichimlik suvi ta’minoti yetib bormagan qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta’minlash bo‘yicha mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, barcha uchun toza ichimlik suvidan umumiy va teng huquqli foydalanish imkoniyatini ta’minlash o‘ta muhim sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik masala ekanligini e’tiborga olgan holda ushbu vazifa mazkur Farmon bilan Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi zimmasiga yuklatildi.

Xususan, vazirlik xar yili aholi soni 15 ming nafardan kam bo‘lmagan, markazlashgan ichimlik suvi ta’minoti yetib bormagan qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta’minlash bo‘yicha

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmalarini tanlov asosida beradi.

Tanlangan NNT vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan texnik topshiriqqa asosan loyihalashtirish, qurish va qurilishi yakunlangan ob’ektlarni ekspluatatsiya qilish jarayonlarini tashkil etadi.

O‘z navbatida, vazirlik loyihalarning samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi va monitoringini yuritadi hamda mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qiladi.

Davlat ijtimoiy buyurtmalar loyihalarini moliyalashtirish asosan davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi va ushbu maqsadlarda 2021-yilda vazirlikka alohida 14 milliard so‘m mablag‘ ajratiladi. Keyingi yillarda loyihalarini moliyalashtirish uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘lar va loyihalar soni tegishli tashkilotning asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko‘ra oshirib boriladi.

Farmonga muvofiq, 2021-yilda sinov tariqasida Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida loyihani amalga oshirish jarayonlari boshlanadi.

Ta’kidlash joizki, mazkur loyihalarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, joylardagi mahalla fuqarolar yig‘inlari va bevosita aholining faol ishtirokini talab etadi. Loyihani amalga oshirish uchun qishloq aholi punktini tanlab olish, qurilish-montaj ishlarini tashkil etish va kelgusida ob’ektdan foydalanish kabi masalalar bevosita aholi bilan kelishilgan holda, ularning roziligi bilan va bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Xususan, davlat ijtimoiy buyurtma loyihalari aholining kamida 85 foizi lokal ichimlik suvi ta’minoti tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish tashabbusi bilan qo‘llab-quvvatlanadigan taqdirda hamda uni amalga oshirish jarayoniga qisman moliyaviy hissa qo‘shishga tayyor bo‘lgan qishloq aholi punktlarida amalga oshirilishi boshlanadi.

Davlat ijtimoiy buyurtmalari loyihalari doirasida qurilayotgan ichimlik suvi tizimiga egalik hissini uyg‘otish maqsadida aholi tomonidan moliyaviy hissa qo‘shish orqali qurilishning bir qismini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bu esa aholining qurilish jarayoniga dahldor bo‘lishiga va qurilgan ob’ektga nisbatan mulkchilik hissini

shakllantirishga xizmat qiladi hamda qurilgan ob’ektga nisbatan munosabatini o‘zgartirib, ularni tizimdan ehtiyotkorlik bilan uzoq muddat davomida foydalanishga undaydi.

Ahamiyatlisi shundaki, qurilishi yakunlangan lokal ichimlik suv ta’minoti tizimi boshqarish va foydalanish uchun aholining umumiy mulki sifatida mahalla fuqarolar yig‘ini tasarrufiga o‘tkaziladi. Qishloq aholi punktlarida ichimlik suvi ta’minoti xizmatini ko‘rsatadigan hamda qurilgan ichimlik suvi ta’minoti tizimini boshqarish uchun aholi tomonidan nodavlat tashkiloti tashkil etiladi.

Joriy etilayotgan ushbu tizimda ichimlik suvi ta’minoti xizmatlari uchun narh (tarif)lar aholi bilan kelishilgan holda belgilanadi. Bunda, ichimlik suvni ishlab chiqarish va xonadonlarga yetkazish xarajatlari, kiritilgan sarmoya, amortizatsiya va boshqa xarajatlar inobatga olinadi.

Ushbu yo‘nalishda respublikadagi olis qishloqlarni xatlovdan o‘tkazish boshlandi. Oktabr-noyabr oylarida mutaxassislardan iborat ishchi guruh joylarga chiqqan holda mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda markazlashgan ichimlik suvi ta’minoti yetib bormagan qishloq aholi punktlarini 25 ta parametr asosida o‘rganib chiqdi.

Xatlov va o‘rganishlar natijasida 114 ta shahar va tumandagi suv ta’minoti va sanitariya holatini yaxshilashga muhtoj 1 ming 273 ta qishloq aholi punkti ro‘yxati shakllantirildi. Mazkur qishloqlarda 5 millionga yaqin aholi istiqomat qilayotgan bo‘lsa, ulardan 35 foizi ichimlik suvi bilan tashib yetkazib berish orqali ta’minlanmoqda, 65 foizi esa ichimlik suvni alternativ (soy, kachalka, quduq) manbalaridan iste’mol qilmoqda.

Davlat ijtimoiy buyurtmalari doirasida 2021-yilda Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida, 2022-yildan boshlab esa respublikaning boshqa hududlarida loyihalarni amalga oshirish hamda loyiha doirasida oqava suv xizmatlari bilan ta’minlanishi ham nazarda tutilgan.

Loyihalarning amalga oshirilishida respublikamiz hududlarida Shveysariya Konfederatsiyasi hamkorligida qishloq aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash tajribasi keng qo‘llaniladi.

Dastlab, mazkur loyihalarni sinov tariqasida amalga oshirish uchun Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida suv ta’minoti va sanitariya holatini yaxshilashga muhtoj qishloqlar ro‘yxatidan 2 tadan aholi punkti tanlab olinadi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi vodiy viloyatlarida qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta’minlash bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to‘g‘risida tanlov e’lon qildi.

O‘zbekistan Respublikasi iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarini axborotlashtirish sohasida axborot almashish, umumiy qabul qilingan me’yorlar va amaliyot bilan uyg‘unlashtirish xamda unifikatsiyalash yo‘nalishida rivojlanayotgan xalqaro xamkorlikda ishtirok etishga intilmokda.

O‘zbekistan gaz sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-xuquqiy va axborot asoslari asta-sekin sivilizatsiyalashganlik va umumiy xalqaro jarayonlarga integratsiyalashganlik belgilariga ega 6o‘lib bormoqda. Xozirgi vaqtda insonlarning qog‘ozdagi axborot bilan tarqoq xolda ishlashdan elektron xujjatlar bilan jamoaviy mehnat qilishga o‘tish jarayoni amalga oshirilmoqda. U, masalan, gaz sanoati korxonalarida asosiy, dastlabki, ta’minlovchi operatsiyalarni bajarish chog‘ida qarorlar qabul qilishda vaqtni tejash imkonini beradi. Bu yangi xaqiqat 6o‘lib, unda kompyuter va boshqa AKTlarining muqarrarligi, tezkorligi yozma xabarlarga xos bo‘lgan chuqurlik va mazmundorlik bilan uyg‘unlashadi.

Sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi, axborot tavsiflari to‘plamining kattalashishi boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshiriщda noaniqlik va xatarlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Bularning barchasi axborot tamoyiliga asoslangan tartibga solishni keng ko‘lamda qo‘llash uchun sharoit yaratdi.

O‘tgan asrning 80-90-yillari mobaynida jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida gaz sanoati korxonalari yakka tartibdagi hisoblash vositalari va lokal tarmoqlardan kompyuter bazasida boshqaruvning axborot tizimlarini yaratishga o‘tishni jadal suratlar

bilan amalga oshirishga majbur bo‘ldi. Korxonada boshqaruv jarayonlari axborot determinatsiyasining funksional chizmasi rasmda keltirilgan.

Boshqaruv funksiyasi

- *Sotuvlarni boshqarish*
- *Moliyaviy boshqarish*
- *Ishlab chikarishni boshqarish*

Resurslarning yuqori samaradorligi

- *Kadrlarni boshqarish*
- *Gazni yetkazib berishni boshqarish*



4.2.1-rasm. Korxonada boshqaruv jarayonlarni axborot determinatsiyasining funksnonal chizmasi

Iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarining globallashuvi va integratsiyalashuvi mintaqaviy gaz yetkazib berish majmui darajasida axborot tizimini shakllantirishni jadallashtirish zaruratini keltirib chiqardi va gaz yetkazib berish faoliyatining samaradorligini oshirishning yangi usul va vositalarini qidirishga undadi. Gaz yetkazib berish korxonalari va tashkilotlarida turli axborot tizimlari qo‘llaniladi. Shu bilan birga takidlash lozimki, mintaqaviy gaz yetkazib berish majmui darajasida ushbu axborot tizimlari yuqoridagi belgilarga ega.

Gaz sanoati korxonalarida boshqaruv tuzilmalarining axborot ta’minoti quyidagilarni o‘z ichiga oladi: gaz savoati korxonalari jarayonlari ishtirokchilari haqidagi ma’lumotlar; tezkor ma’lumot bazalari va x.k. Gaz sanoati korxonalarida boshqaruv axborot ta’minoti umumtizim va lokal ma’lumotlar bazalarida shakllanadigan va saqlanadigan kiruvchi va chiquvchi axborot massivlari tashkil qiladi. Umumtizim ma’lumot bazalari xujjatli va faktografik ma’lumotlar bazasi asosida integratsiyalashgan axborot maydoni ko‘rinishida shakllanishi kerak. Lokal ma’lumot bazalari bir foydalanuvchi yoki foydalanuvchilar guruxi ishlashi uchun zarur bo‘lgan axborotlarni o‘zida mujassam etadi.

Tabiiy gazni yetkazib berishda xar qanday boshqaruv texnologiyasining axborot xuquqiy asosini to‘liq anglash mintaqaviy gaz yetkazib berish majmui darajasida axborot tazimlarini loyixalashtirishga nisbatan yondashuvni qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu yerda ham loyixalashtirish bosqichidayoq “axborot oqimlarini” qayd etish tamoyili asos qilib olingan bank axborot tizimlari misol bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni, kompyuter axboroti bilan har qanday xarakat xujjatlashtirilishi va nazorat qilinishi kerak.

“Samarqand xududiy gaz ta’minoti” korxonasi vazifalari va vakolatlari doirasida yetkazib beriladigan gazning xajmi, gaz quvurlarining texnik xolati, ma’lumotlarga ishlov berish va gaz quvurlarining ishlash holati taxlili bo‘yicha axborotlar to‘planadi. Axborotlar xajmi, shakli va taqdim etish grafigi asosida to‘plangan axborotlar qayta ishlanadi. Qayta ishlangan axborotlar asosida boshqaruvda qarorlar qabul qilinadi.

Mintaqaviy gaz yetkazib berish majmui darajasida axborot tizimlarida axborot ta’minoti boshqaruvning taklif etilayotgan nazariy modeli iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarining barcha manfaatdor ishtirokchilari bilan aloqaning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish imkonini bergan xolda, qarorlar qabul qilish tartibotlarini soddalashtiradi hamda uning vaqti va jarayonlarini qisqartiradi, shuningdek, gazni yetkazib berishni jadallashtirishga, tizimning gaz sanoati axboroti bilan xalqaro almashuvga integratsiyalashuviga ko‘maklashadi.

Mintaqaviy gaz yetkazib berish majmui darajasida axborot tizimlarida boshqaruv muammolarini hal etishning umumiy chizmasi sifatida shaxar (tuman) gaz bo‘limining avtomatlashtirilgan axborot tizimi yordamida tashqi muxitdan kelib tushadigan ma’lumotlar asosida boshqaruvchi axborot oqimini yaratishni taklif etish mumkin. Gaz sanoati korxonalarida rekurrent jarayonining mohiyati orqaga qaytadigan izchilliklarga asoslanadi, bunda qarorlar qabul qilishning har bir keyingi algoritmi muayyan qoida bo‘yicha - avvalgi algoritm orqali ifodalanadi.

Mintakaviy gaz yetkazib berish majmui darajasida axborot tizimining mazmuni ushbu ishda korxonani boshqarish natijalariga yo‘naltirilgan doimiy axborot ta’minotini ta’minlovchi axborot operatsiyalari va strategik hisobga olish, rejalashtirish, nazorat va tahlil qilish usullarining majmui sifatida belgilangan. Mintaqaviy gaz yetkazib berish majmui darajasida axborot tizimidan foydalanish natijasida “Samarqand xududiy gaz ta’minoti” korxonasining iqtisodiy va ishlab chikarish faoliyati reja bilan boshqariladigan bo‘lib qoladi.

Mintaqaviy gaz yetkazib berish majmui darajasida axborot tizimlaridan foydalanishga nisbatan yangicha yondashuvlar zarur va biz ularni 4.2.1-jadvalda keltirdik.

4.2.1-jadval

Mintaqada ko‘p qavatli uy-joylarga gaz ta’minoti kommunal xizmatlarini yetkazib berish majmui darajasida boshqaruv axborot tazimlarining belgilari

№	Belgilar
1	Ko‘pincha mintaqaviy gaz yetkazib berish majmui darajasida axborot tizimini shaklantirishning mamlakatimiz gaz sanoati iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo‘lgan xususiyatlarni hisobga olmaydi
2	Ushbu tizimlar xarakati axborot-texnologik maydonida katta farqlar mavjud
3	Ushbu tizimlar mamlakatimizning ulkan axborot makonlarini, shu jumladan, axborot tizimlarini qurishdagi mnntaqaviy jixatlarni hisobga olmaydi

Kompyuter tarmog‘ini tashkil etishda topologiyani tanlash, ya’ni tarmoq qurilmalari bilan kabel infratuzilmasini ixchamlashtirish o‘ta muhim hisoblanadi. Tarmoqning ishonchli va samarali ishlashini, tarmoq ma’lumotlari oqimlarini qulay boshqarishni ta’minlovchi topologiyani tanlash zarur. Tarmoq uni tashkil etish qiymati va kuzatilishi bo‘yicha unchalik qimmat bo‘lmasligi, lekin ayni paytda uni yanada kengaytirish va yanada yuqori tezlikka ega bo‘lgan aloqa texnologiyalariga o‘tish uchun imkoniyat saqlanib qolgani ma’qul.

“O‘ztransgaz” AK va uning Unitar korxonalari mutaxassislari tomonidan tabiiy gaz hisobini yuritishni tartibga solish uchun “GazVilling” avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, lokal va global tarmok texnologiyasida ishlaydi.

“Samarqand xududiy gaz ta’minoti” korxonasi lokal tarmog‘iga ulangan foydalanuvchilarni jamoa bo‘lib, ma’lumotlarni qayta ishlash va ular o‘rtasida ma’lumotlar almashishga, shuningdek, tashkiliy iqtisodiy boshqarish tizimlarida yangi AKTlarini amalga oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga dastur, printer, modem va boshqa qurilmalardan birgalikda foydalanish, ya’ni kompyuter resurslarini tejash va ищda ko‘p qulayliklar yaratishga imkon beradi.

Global tarmoqning rivojlanishi va axborotlarni olish, qayta ishlash, ishlatishning yangi texnologiyalari paydo bshlishi bilan Internet tarmog‘ida turli shaxs va tashkilotlarning e’tibori qaratildi. Ko‘plab tashkilotlar o‘z lokal tarmoqlarini global tarmoqqa ulashga qaror qilishgan. Global tarmoqqa o‘tishning asosiy maqsadi masofadan turib, ma’lumotlarga ega bo‘lish va ma’lumotlar almashuvini tezkorlik bilan amalga oshirilishidir.

“Samarqand xududiy gaz ta’minoti” korxonasi global tarmog‘i yordamida “O‘zneftgaz” Xolding kompaniyasi, “O‘ztransgaz” aksionerlik kompaniyasi, Samarqand shaxar xokimiyati, viloyat xokimiyati, magistral gaz quvurlari boshqarmasi, “Vodiygazta’minot” korxonasi “Transgaztexnikbutlash”" korxonasi, shaxar, tumangaz korxonalari va tashkilotlari bilan axborotlar almashadilar. Samarqand shaxar va viloyat viloyat xokimiyati, “O‘zneftgaz” Xolding kompaniyasi, “O‘ztransgaz” aksionerlik kompaniyasi korxonalari berilgan maxsus parol yordamida Internet tarmog‘iga ulanib, gaz sanoati va gaz yetkazib berish holati, yuridik va jismoniy shaxslar qarzdorligi xaqida ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Mamlakatimizda sohadagi tarkibiy o‘zgarishlar jarayonida faoliyatni tashkil etishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini keng qo‘llash tavsiya etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi tizimdagi investitsiyalar jalb etilish darajasi, moddiy-

texnika, xodimlar hamda moliyaviy salohiyatni rag‘batlantiruvchi milliy innovatsion tizimining samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida baholanmoqda.



4.2.2-rasm. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish mexanizmi

Uy-joy kommunal sohasida ko‘p xonadonli uy-joy fondidan samarali foydalanish va tegishli kommunal xizmatlar ko‘rsatishni tartibga solishda hududiy nazorat tuzilmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tashkil etilishi taklif etilayotgan «uy-joy kommunal xizmatlari mahalliy klasteri» faoliyati soha xizmatlari iste’moli hamda iste’molga taqdim etilayotgan kommunal resurslarni ishlab chiqarish va taqsimoti jarayonidagi tabiiy monopoliyani hisobga olgan holda klasterning yadrosi hisoblangan, davlat- xususiy sherikchilik tamoyilida tashkil etilgan korxona tomonidan klasterning ta’minot tizimlari hamda xizmat ko‘rsatuvchi va pudratchilari tomonidan yetkazib berilgan resurslar va xizmatlarni iste’molchilarga mavjud talab asosida yetkazib berishga asoslanadi. «Uy-joy kommunal xizmatlari mahalliy klasteri» alohida hududlarda yashovchi iste’molchilarning ushbu yo‘nalishdagi barcha ehtiyojlarini qondirishni ko‘zda tutadi va u alohida hududlarda yashovchi iste’molchilarning ushbu yo‘nalishdagi barcha ehtiyojlarini qondirishni ko‘zda tutadi.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda raqamli kommunal xizmatlarni tashkil etishda “aqlli uy” tizimini keng miqyosda tadbiq etib kelmoqda. Chunki, “aqlli uy” tizimi resurslarni tejash, xafvsizlikni ta’minlash, qulay shart-sharoit yaratish, aholin turmush farovonligini yuksaltirishda samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Bizga ma’lumki dunyoda tabiy resurslar chegaralanganligi va qayta ishlab bo‘lmasligi ushbu “aqlli uy” tizimini keng miqyosda joriy etishni talab etmoqda.

Xulosa qilib aytganda aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga raqamli, resurs va energiya tejaydigan texnologiya hamda uskunalarni joriy etish, jumladan, uy-joy kommunal xo‘jalik ob’ektlarini zamonaviy “aqlli” hisobga olish-o‘lchash priborlari, “suniy intelekt” texnologiyasi bilan ta’minlash, qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish imkonini beradigan, shuningdek, xafvsizligini ta’minlaydigan texnologiyalarni joriy etish hamda ushbu texnologiyalarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va undan samarali foydalanish, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanishiga va natijada aholi turmush farovonligini yuksalishi, tizim samaradorligini ortishiga olib keladi.

4.3. Uy-joy kommunal xizmatlarni raqamlashtirishni davlat tamonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘llari

Jahon iqtisodiyotining bugungi taraqqiyotida xizmat ko‘rsatish sohalarining asosiylaridan biri kommunal xizmat, kommunal xizmat ko‘rsatishni axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib, uning sifatini oshirishni taqozo etadi. Raqamli transformatsiya sharoitida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishda klasterli axborot tizimini shakllantirishda va aholi punktlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy shakllarini qo‘llash darajasi, kommunal xo‘jaligi korxonalari xizmat ko‘rsatish sifatining yetarli emasligini e’tiborga olib, AKT dan foydalangan holda uning sifatini oshirish ushbu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz hududlarida kommunal xizmat ko‘rsatishni boshqarish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, ushbu sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi

imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa kambag‘allikni qiskartirish va aholi turmush darajasini oshirish maqsadida kommunal xizmatlar ko‘rsatishni boshqarishda, kommunal xizmatlarni modernizatsiya qilishda yangicha yondashuvlar, ularni yangi zamonaviy texnik talablarga moslashtirish, hududlarda kommunal xizmatlarni raqamlashtirish va AKTdan foydalanib meyorlar va sifat standartlariga muvofiqlashtirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi[121].

Raqamli transformatsiya sharoitida kommunal xizmat ko‘rsatish boshqaruv tizimini raqamlashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini AKTdan foydalanib oshirishga innovatsion yondashish asosida raqamli transformatsiya jarayonlarini hisobga olib, kommunal xizmatlarni boshqarish usullarini takomillashtirishda ilmiy tadqiqotlarga katta e’tibor qaratilmoqda.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 60 foiz dunyo aholisi Internetdan foydalanmaydi yoki foydalanish uchun mablag‘ yetarli bo‘lmagani sababli undan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Dunyo aholisining 15 foizigina keng polosali internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga egadir. Rivojlangan mamlakatlarda internet xizmatlaridan foydalanishning asosiy vositasi mobil telefonlar hisoblanib, dunyo aholisining 80 foizi ta’minlangan, birok, 2 mlrd. ga yaqin aholi hozirgacha mobil telefonlardan foydalanmaydi.

Hududlarida kommunal xizmatlar sohasining rivojlanishi AKT rivoji bilan munosabatda bo‘lib, o‘z o‘rnida barcha iqtisodiy tizimlarning raqamlashuviga va uning yangi turi bo‘lmish elektron (raqamli) to‘lov tizimining shaqllanishiga olib keladi. Elektron to‘lov tizimining nazorat mexanizmini ishlab chiqishda xorijlik olimlarning tadqiqotlariga nazar soladigan bo‘lsak, to‘lov tizimlarini shakllantirishga bevosita ta’sir

---

[121] Jo’rayev, F. D., & Qurbonaliyevna, X. M. (2025). KOMMUNAL XIZMAT KO ‘RSATISH SIFATINI OSHIRISHNING ELEKTRON BIZNES AXBOROT BAZASINI YARATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *3*(35), 253-259.

ko‘rsatadigan moliya bozori faoliyatining institutsional jihatlari rus olimi Ye.G.Xomenko tadqiqotida ko‘rib chiqilgan. U kommunal to‘lov tizimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayta ishlash samaradorligi va to‘lov operatsiyalari tezligi, kommunal to‘lov hisob- kitoblarning uzluksizligi har qanday to‘lov tizimining muhim xususiyatlaridan biridir, deb ta’kidlaydi.

Amerikalik mashhur olim M.Drabenstott dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri AQShda qishloqlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan beshta muammoni aniqladi, ammo ular boshqa ko‘plab holatlarga ham taalluqlidir:

1. Raqamli texnologiyalarga o‘tish.
2. Tadbirkorlarni rag‘batlantirish.
3. Yangi agrosanoat majmuidan foydalanish.
4. Inson kapitalini yaxshilash.
5. Qishloq muhitini qo‘llab-kuvvatlash[122].

Y.Benklerning “Raqamli iqtisodiyot”, D.Tepskott tomonidan kiritilgan “raqamli iqtisodiyot” deb nomlangan ilmiy ishlarida keltirilgan konsepsiyalarida ilgari surilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Masalan, xorijlik iqtisodchi-olim N.P.Grozdanovishning tadqiqotlarida “Aqlli qishloq”larning barqaror rivojlanish xususiyatlari yerdan unumli foydalanish, uy-joylardan maqsadli foydalanish, yurish va velosipedda harakatlanish joylarini yaratish, rekreatsiya maydonlarini saqlash va rivojlantirish, transport muhandisligi, boshqaruvning fuqarolarga qulay va iqtisodiy jihatdan samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanish uchun aqlli yechimlarning qo‘llanilishi va boshqa yo‘nalishlar tavsiflangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida

---

[122] Jo’rayev, F. D., & Qurbonaliyevna, X. M. (2025). KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISHNING ELEKTRON BIZNES AXBOROT BAZASINI YARATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *3*(35), 253-259.

“Raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi, yurtimiz “Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi” bo‘yicha 2019-yilda 8-pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak bu ham haqikat.”, deb ta’kidladilar. Shu sababli yuksak rivojlanishga erishish uchun axborot tizimlari va texnologiyalarini puxta o‘rganishimiz muhim. Bu esa biz uchun taraqqiy etishning qisqa vaqtda qo‘lga kiritish imkoniyatini beradi. Zero, hozirgi vaqtda butun yer yuzida ko‘plab sohalarda raqamli texnologiyalar jadal kirib bormoqda[123].

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni istiqbolda takomillashtirish maqsadida hukumatimiz tomonidan “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Dasturda raqamli iqtisodiyotni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari, tartibi, tarmoq va hududlarning darajalari, funksiyalari belgilangan.

Shu jumladan, kommunal xizmatlar ko‘rsatish obyektlari har qanday rivojlangan iqtisodiy tizimning ajralmas kismi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish davlat dasturida belgilangan strategik maqsadlardan biri bozor munosabatlari va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatliligini shakllantirish uchun iqtisodiyotni raqamlashtirish zaruriyatidir.

Hududlarda kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini oshirishda kommunal xizmat ko‘rsatish boshqaruv tizimini raqamlashtirish juda muhimdir. Shunki, kommunal xizmat ko‘rsatish boshqaruv tizimini raqamlashtirish - ortiqcha harajatlarning va sarflanadigan vaqtni oldini oladi, yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytiradi va ko‘rsatiladigan

---

[123] Jo’rayev, F. D., & Qurbonaliyevna, X. M. (2025). KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISHNING ELEKTRON BIZNES AXBOROT BAZASINI YARATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *3*(35), 253-259.

kommunal xizmatlarning sifatini yaxshilaydi. Raqamlashtirish kommunal xizmatlarni juda arzon ishlab chiqarilishi va juda osonlik bilan sotilishiga imkon beradi. Bundan tashkari, “Yangi xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti” endi iqtisodiy soha yoki katta hajmli faoliyatlar majmui chegaralari bilan bog‘liq bo‘lmagan xizmatlar konsepsiyasi bilan harakterlanishi mumkin. Shunki sanoat va xizmatlar o‘rtasidagi aloqani alohida tushunish yoki tahlil qilish mumkin emas. Shuningdek, kommunal xizmatlarni raqamlashtirish ularni ko‘rsatishni makonga bog‘liqligini kamaytiradi yoki yo‘qotadi[124].

Iqtisodiyotning raqamlashtirishga tayyorgarligini ifodalovshi dunyo reytinglari va indekslari quyidagilardan iborat (4.3.1-rasm):

- Biznes yuritish qulayligi reytingi;
- Raqamli raqobatbardoshlik reytingi;
- AKT rivojlanish indeksi;
- Tarmoqli dunyoga tayyorgarlik indeksi;
- Innovatsiyalarning global indeksi;
- Global kiberxavfsizlik indeksi;
- Raqamli taraqqiyot indeksi;
- Elektron hukumatning rivojlanish indeksi;
- Global raqobatbardoshlik indeksi;
- Inson taraqqiyoti indeksi.

Respublikamizning raqamlashtirish bo‘yicha bo‘lgan bu kabi ko‘rsatkish- indekslardan ma’lum darajada orqada kolayotganligi axborotlashtirish zarur unsurlar tizimining sekin rivojlanganligi va kiritilayotgan investitsiyalarning ozligi, meyoriy-huquqiy bazasining takomillashtirilmaganligi, mamlakat hamda biznesning axborot tizmilari va texnologiyalari texnologiyalarni qo‘llashda doimiy faol ishtirok etmasligi,

[124] Jo’rayev, F. D., & Qurbonaliyevna, X. M. (2025). KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISHNING ELEKTRON BIZNES AXBOROT BAZASINI YARATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *3*(35), 253-259.

internet tizimlari va texnologiyalaridan foydalanish bilimlarining yetarli darajada emasligi, hududlarda Internet resurslarining past darajada ishlashi hamda aholining ishonch darajasining kamligi bilan sharhlanadi.

Hududlarda kommunal xizmatlarni raqamlashtirishda AKTdan foydalanib tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv munosabatlarini istikbolli uslubiy vositalarini izlashni takozo etadi. Fikrimizcha, keltirilgan yetakshi kommunal xizmatlari sifatidagi elektr energiya, gaz, suv va issiqlik ta’minoti, chiqindini boshqarish xizmatlarni raqamlashtirilsa, aholi ehtiyoji va talabiga javob bera olish imkoniga ega bo‘lamiz (4.3.1-rasm).



4.3.1-rasm. Iqtisodiyotning raqamlashtirishga tayyorgarligini ifodalovshi dunyo reytinglari va indekslari

“Kommunal xizmatlar” atmasi tushunshasida bir qancha fikrlar mavjud bo‘lib, “kommunal xizmatlar–bu elektr energiyasi, sovuq suv ta’minoti, issiq suv ta’minoti, kanalizatsiya, shiqindilar, gaz ta’minoti hamda issiqlik ta’minoti bo‘yicha fuqarolarning yashash hududlarida

yashash sharoitlarini yanada yaxshilash xizmatidir", deb ta'rif beriladi. Raqamli kommunal xizmatlar - raqamli platformadan foydalanish samaradorligini baholash modelini ishlab chiqish asosida makro darajada zamonaviy raqamli texnalogiyalardan foydalanish bo'yicha uslubiy xizmat ko'rsatish apparatlari kengaytirilgan kommunal xizmatlardir[125]. Raqamli kommunal xizmatlar o'ziga xos ichki tuzilishdan iborat (4.3.2-rasm).



4.3.2-rasm. Raqamli kommunal xizmatlar

Kommunal xizmat ko'rsatishni boshqaruvining raqamli platformaga o'tkazilishi - bu kommunal xizmat ko'rsatishning biznes modeli bo'lib, aniq muvofiqlashtirilgan kommunal xizmatlarini taqdim etadi. Platforma iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchilarga ishonch reytingini tuzish, kontragentlarni topish, bitimlar tuzish va hisob-kitoblarni amalga oshirishda o'zaro aloqalarni tezlashtirishga imkon beradi. Raqamli iqtisodiyotni monitoring qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, strategiya va yo'l xaritalariga tuzatishlar kiritish maqsadida YeI mamlakatlari va Turkiya mamlakati uchun "raqamli

[125] Jo'rayev, F. D., & Qurbonaliyevna, X. M. (2025). KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISHNING ELEKTRON BIZNES AXBOROT BAZASINI YARATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *3*(35), 253-259.

iqtisodiyotni rivojlantirishning milliy indeksi” kompleks dasturi ishlab chiqilgan[126].

Aholining barcha qatlamlari turmush darajasi va jamiyatimizdagi ijtimoiy muhit muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan uy-joy kommunal sohasining samarali faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kommunal xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha zamonaviy bozorni shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Yaratilgan mustahkam me’yoriy-huquqiy bazaga muvofiq tarkibiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanishning mutlaqo yangi tizimini shakllantirish imkonini berdi. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 4 mingdan ziyod xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati 32,4 mingdan ortiq ko‘p xonadonli uylarga xizmat ko‘rsatmoqda. Uy-joylarni, avvalo, ipoteka krediti asosida qurish va rekonstruksiya qilish ko‘lami kengaymoqda. Bu o‘tgan davr mobaynida aholi nufusi muttasil o‘sib borishiga qaramasdan aholini uy-joy bilan ta’minlash darajasini kishi boshiga 1991-yildagi 12,4 kvadrat metr o‘rniga o‘rtacha 15,2 kvadrat metrga yetkazish imkonini berdi. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish maqsadida markazlashtirilgan davlat kapital qo‘yilmalarini yo‘naltirish va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali suv ta’minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta’minoti tizimlarini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, uy-joy kommunal sohasining bugungi holatini tahlil qilish asosida zudlik bilan hal etilishi lozim bo‘lgan qator muammolar mavjudligi aniqlandi[127].

Joylardagi ijro hokimiyati organlari xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari faoliyatini yetarlicha muvofiqlashtirmayapti. Ko‘p xonadonli uy-joy

---

[126] Jo’rayev, F. D., & Qurbonaliyevna, X. M. (2025). KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISHNING ELEKTRON BIZNES AXBOROT BAZASINI YARATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *3*(35), 253-259.

[127] https://president.uz/oz/lists/view/417

fondini boshqarish va undan foydalanish borasida kompleks yondashuvning yo‘qligi aholiga sifatli va kafolatli kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishga to‘siq bo‘lmoqda va uy-joy mulkdorlarining haqli e’tiroziga sabab bo‘lmoqda. Ko‘p xonadonli uy-joy fondini tegishli darajada saqlashni nazorat qilish tashkil etilmagan, ko‘p hollarda uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish va unda aholining xavfsiz yashashi bo‘yicha belgilangan talablar buzilishiga yo‘l qo‘yilmoqda. Bino va inshootlarni ta’mirlash-tiklash ishlarini bajarishga oid qoida va muddatlarga rioya etilmayapti, eski uylarni buzish bo‘yicha ishlar olib borilmayapti, ko‘p xonadonli uylarga tutash hududlarning holati sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena me’yorlariga to‘liq javob bermaydi. Aholi sifatli ichimlik suvi va markazlashtirilgan issiqlik ta’minoti bilan yetarli darajada ta’minlanmayapti. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik asosida ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko‘p xonadonli uylarni saqlash qoidalariga rioya etilishini texnik nazorat qilish bo‘yicha samarali tizimni shakllantirish, aholiga sifatli uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, shuningdek, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni va "O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi qarori qabul qilindi[128].

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi va uning tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, viloyatlar uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmalari va Toshkent shahar

[128] https://president.uz/oz/lists/view/417

uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bosh boshqarmasi hamda uning tuman (shahar) bo‘limlari tashkil etildi.

Quyidagilar davlat boshqaruv organi sifatida mazkur vazirlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi:

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida yagona davlat siyosati yuritish va idoralararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

– ko‘p xonadonli arzon uy-joylar qurish davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishini ta’minlash, bunday uy-joylarni, suv ta’minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta’minoti obyektlarini barpo etish bo‘yicha buyurtmachi vazifasini bajarish, eski va avariya holatidagi uylarni buzishni tashkil etish;

– uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash, undan foydalanish va ekspluatatsiya xarajatlarini belgilash talablariga, ko‘p xonadonli uylardan texnik foydalanish qoidalari va normalariga rioya etilishini nazorat qilish, ko‘p xonadonli uylarga tutash hududlarni sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga muvofiq holatda saqlash;

– aholi punktlarini rivojlantirish sxemalari va bosh rejalari bilan bog‘liq holda, suv ta’minoti hamda kanalizatsiya obyektlarini rivojlantirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning sifatli amalga oshirilishini tashkil etish, soha tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni ta’minlash;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga resurs va energiya tejaydigan texnologiya hamda uskunalarni joriy etish, jumladan, uy-joy kommunal xo‘jalik obyektlarini zamonaviy hisobga olish-o‘lchash priborlari bilan ta’minlash, qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish imkonini beradigan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan zamonaviy, sifatli qurilish materiallari va buyumlaridan keng foydalanish[129];

[129] https://president.uz/oz/lists/view/417

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga oid me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi hisobga olingan holda, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda suv ta’minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta’minoti bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga doir kompleks tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan tarif siyosatini shakllantirish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha takliflar kiritish, ularni, jumladan, xorijda o‘quv stajirovkalarini o‘tkazish orqali qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, idoraviy axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasini joriy etish.

Shuningdek, Vazirlik tarkibida Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida uning hududiy inspeksiyalari tashkil etildi. Quyidagilarni nazorat qilish Inspeksiyaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

– ko‘p xonadonli uy-joy fondi va unga tutash hududlar tozaligini tegishli ravishda saqlash hamda ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi, ko‘chmas mulk egalarining binolarni o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– umumiy foydalaniladigan joylar, fasadlar, uylar ichidagi muhandislik-kommunikatsiyalarni ta’mirlash-tiklash ishlarini tizimli amalga oshirish qoidalariga rioya etish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlarining tegishli kommunal xizmatlar ko‘rsatishda texnik tartibga solish sohasiga oid me’yoriy hujjatlar talablariga rioya etishi;

– ko‘chmas mulk egalarining ko‘p xonadonli uylarni kapital ta’mirlash uchun to‘planadigan mablag‘idan maqsadli foydalanish[130].

Shuni ta’kidlash kerakki, Farmonda vazirlik tarkibida Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘larini, birinchi navbatda, ko‘p xonadonli arzon uy-joy fondi, suv ta’minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta’minoti obyektlarini qurish, kapital hamda joriy ta’mirlash, maxsus texnika va uskunalar, mashina va mexanizmlar bilan ta’minlash hamda boshqa maqsadlarga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish uchun jalb etiladigan kreditlar, jumladan, xalqaro moliya institutlari va banklarning imtiyozli kreditlari, Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan solinadigan jarimalardan tushgan mablag‘lar, ichimlik suvi ta’minoti xizmatlari uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hududiy moliya organlari bilan kelishgan holda belgilaydigan maxsus ustamalar, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar Jamg‘arma manbalari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birga, xizmat ko‘rsatuvchi banklarda suv ta’minoti tashkilotlariga ichimlik suvi ta’minoti xizmatlari tariflariga maxsus ustama mablag‘larini to‘plash uchun maxsus hisobraqam ochishni va O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligining Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga mablag‘lar yo‘naltirishini ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, Farmonda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, viloyatlar hokimliklari uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmalari, Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bosh boshqarmasi huzurida «Ta’mirlash-

[130] https://president.uz/oz/lists/view/417

tiklash xizmati» davlat unitar korxonalari va ularning shahar va tuman filiallarini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Tashkil etiladigan ushbu unitar korxonalar zimmasiga xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari yoki turar joy va noturarjoy inshootlari mulkdorlari bilan shartnoma asosida ko‘p xonadonli uy-joy fondi va unga tutash hududlardan foydalanish hamda ularni saqlash bo‘yicha tizimli ishlarni samarali tashkil qilish, ko‘p xonadonli uy-joy fondini mavsumiy foydalanishga o‘z vaqtida va sifatli tayyorlash, ko‘p xonadonli uy-joy fondini kapital va joriy ta’mirlash hamda unga tutash hududlarni obodonlashtirish vazifalari yuklatilgan[131].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmon va qarori amalga oshirilishi:

Birinchidan – uy-joy kommunal xizmatining sifatini tubdan oshirish, maqbul narxlarni ta’minlash uchun uy-joy kommunal sohasini davlat tomonidan boshqarishning yagona tizimini shakllantirish maqsadida zarur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish.

Ikkinchidan – iste’molchilarga sifatli va kafolatli kommunal xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish va muhandislik infratuzilma obyektlarini boshqarish hamda ulardan foydalanish borasida samarali hamkorlik uchun respublika va mahalliy darajadagi barcha boshqaruv bo‘g‘inlarining mas’uliyatini oshirish.

Uchinchidan – arzon uy-joylar qurish, ko‘p xonadonli uylarni rekonstruksiya qilish, suv ta’minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta’minoti obyektlarini barpo etish hamda rekonstruksiya qilish sohasida maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish uchun mablag‘larni maqsadli va ishonchli yo‘naltirishni ta’minlaydigan kompleks tadbirlar ko‘rish.

To‘rtinchidan – ko‘p xonadonli uylarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, ko‘chmas mulk egalarining xonalarni o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishiga yo‘l qo‘ymaslik.

---

[131] https://president.uz/oz/lists/view/417

Beshinchidan – ko‘p xonadonli uy-joy fondidan sifatli foydalanish va ta’mirlash-tiklash ishlari o‘tkazilishini ta’minlash.

Oltinchidan – uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Yettinchidan – aholini zamonaviy va sifatli kommunal xizmatlar bilan ta’minlash darajasini oshirish imkonini beradi[132].

IV BOB bo‘yicha xulosa

Birinchidan, uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida raqamli texnika-texnologiyalar (blokcheyn texnologiyasi, bulutli texnologiyasi, su’niy intelekt, 3D texnologiyasi, 5G aloqa tizimi, buyumlar interneti)dan samarali foydalanish hamda xizmat ko‘rsatish sohasini raqamli texnologiyalar bilan diversifikatsiya qilish va buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasida malakali kadrlar tayyorlash, sohada o‘quv faoliyati darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, xizmat ko‘rsatish mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xizmat ko‘rsatish tizimiga mutaxassislarni raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan jalb qilish orqali sohani rivojlantirish.

Ikkinchidan, aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga raqamli, resurs va energiya tejaydigan texnologiya hamda uskunalarni joriy etish, jumladan, uy-joy kommunal xo‘jalik ob’ektlarini zamonaviy “aqlli” hisobga olish-o‘lchash priborlari, “suniy intelekt” texnologiyasi bilan ta’minlash, qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish imkonini beradigan, shuningdek, xafvsizligini ta’minlaydigan texnologiyalarni joriy etish hamda ushbu texnologiyalarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va undan samarali foydalanish, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanishiga va

[132] https://president.uz/oz/lists/view/417

natijada aholi turmush farovonligini yuksalishi, tizim samaradorligini ortishiga olib keladi.

Uchinchidan, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga oid me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi hisobga olingan holda, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha takliflar kiritish, ularni, jumladan, xorijda o‘quv stajirovkalarini o‘tkazish orqali qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, idoraviy axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasini joriy etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko’rsatishni samaradorligini oshirish bo’yicha monografik tadqiqotlarimiz davomida biz quyidagi ilmiy xulosa va takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi nazariyasining uzoq tarixiy davrga borib taqalishi hamda aholi farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etgani ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, “kommunal xizmat” va “kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligi” tushunchasining mohiyatini ochishda mavjud yondashuvlarga qo‘shimcha ravishda iste’molchi nuqtai nazaridan yondashish zarurligi asoslab berildi.

2. Aholiga kommunal xizmatlar ko‘rsatish infratuzulmasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, huquqiy asosini tahlil qilish orqali, kommunal xizmatlarni tasnifi o‘rganildi va kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi ko‘rsatkichlari aniqlandi. Shuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatishning huquqiy tartibga solishning ilmiy va uslubiy jihatlari asoslab berildi hamda qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning murakkab tizimini takomillashtirish taklifi ishlab chiqildi.

3. Aholiga kommunal xizmatlarning faoliyatida xorijiy tajribani tahlil qilish natijasida bir qator asosiy tendensiyalar aniqlanadi:

– kommunal infratuzilma ob’ektlarini boshqarish tizimini mahalliy hokimiyat organlari darajasiga o‘tkazish bilan markazsizlashtirish;

– suv ta’minoti kommunal xizmati, issiqlik ta’minoti kommunal xizmati, gaz ta’minoti kommunal xizmati va elektr-energiyasi ta’minoti kommunal xizmati sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalarni xususiylashtirish;

– potensial raqobatbardosh sektorlarda raqobatni rivojlantirish maqsadida ushbu bozorda faoliyat yurituvchi kompaniyalar faoliyatini taqsimlash (ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash) bo‘yicha aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishni tizimli isloh qilish;

– ta’riflarni tartibga solish tizimini takomillashtirish, uning asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning manfaatlarini hisobga olgan holda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun optimal sharoitlarni yaratishdir.

4. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirishni institutsional xususiyatlari tahlil qilindi. Tahlillar natijasida kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida islohotlarni uch bosqichga bo‘linishi, aholini kommunal xizmat turlari bilan ta’minlaganlik darajasi, shuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi institutsional o‘zgarish davrlari o‘rganilib zarur xulosalarga kelindi.

5. Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi muassasalarining moliyaviy resurslari va ularni tashkil topish manbalarini tahlil qilish orqali sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning moliyaviy manbalari aniqlandi va pul mablag‘lari aylanishini tahlil etish orqali tizimni rivojlantirish, modernizatsiya qilish, moliyaviy manbalarni raqamli ko‘rinishda nazorat qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

6. Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirishda soha infratuzulmasini modernizatsiyalash taklif qilindi, kommunal xizmatlari bozorida xizmatlarning narxini hisoblash tartibi, energetika kompaniyalari, muhandislik kompaniyalarining tender savdosida ishtirok etish shartlari, energiya xizmatining odatdagi ta’riflari va ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tuzilmalarini ishlab chiqish tavsiya etildi.

7. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda xarajatlarni tejash imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Jumladan, olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarda “Simpleks” xarajatlarni optimallashtirish usulini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda xarajatlarni tejash kommunal xizmatlar ishlab chiqarish bosqichidan uni iste’molchiga yetib borguncha jarayonlarni o‘z ichiga oladigan optimal qo‘llaniladigan usul ekanligi asoslandi.

8. Samarqand viloyatida klaster tizimini tashkil qilish elektr-energiya, gaz, oqova-suv ta’minoti kommunal xizmatlarni yetkazib beruvchilar, obodonlashtirish departamenti, chiqindilarni tashish va qayta ishlash bo‘limi, viloyat hokimiyati, viloyat uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi, iqtisodiyot va sanoat bo‘limi, investitsiya bo‘limi, XUMSh va oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorligini tashkil etish orqali zarur qonun va me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish hamda ularni faoliyati bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish klaster tizimiga bosqichma-bosqish o‘tish, shuningdek, klasterlarni barpo etish loyihasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun hududiy davlat tashkilotlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlari va aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi ayrim vakolatlarni amalga oshiruvchi nazorat tashkilotlaridan tashkil topgan kuzatuv Kengashini tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

9. Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini zamonaviy-innovatsion shakllari samaradorligini oshirish bo‘yicha izlanishlar davomida kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, kommunal infratuzilma ob’ektlarining energiya samaradorligini oshirish va modernizatsiya qilish, “aqlli turar-joy”, “xavfsiz turar-joy” loyihalari bo‘yicha takliflar, shuningdek, mamlakatimiz aholisiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasining 2021-2026 yillar davomidagi o‘zgarish qonuniyatlari aniqlangan hamda ushbu ko‘rsatkichlar asosida sohaning yaqin kelajakdagi o‘zgarishlar yo‘nalishlarini baholash bo‘yicha bashorat ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan.

10. Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida raqamli texnika-texnologiyalar (blokcheyn texnologiyasi, bulutli texnologiyasi, su’niy intelekt, 3D texnologiyasi, 5G aloqa tizimi, buyumlar interneti)dan samarali foydalanish hamda xizmat ko‘rsatish sohasini raqamli texnologiyalar bilan diversifikatsiya qilish va buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasida malakali kadrlar tayyorlash, sohada o‘quv faoliyati darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, xizmat ko‘rsatish

mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xizmat ko‘rsatish tizimiga mutaxassislarni raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan jalb qilish orqali sohani rivojlantirish.

11. Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga raqamli, resurs va energiya tejaydigan texnologiya hamda uskunalarni joriy etish, jumladan, uy-joy kommunal xo‘jalik ob’ektlarini zamonaviy “aqlli” hisobga olish-o‘lchash priborlari, “suniy intelekt” texnologiyasi bilan ta’minlash, qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish imkonini beradigan, shuningdek, xafvsizligini ta’minlaydigan texnologiyalarni joriy etish hamda ushbu texnologiyalarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va undan samarali foydalanish, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanishiga va natijada aholi turmush farovonligini yuksalishi, tizim samaradorligini ortishiga olib keladi.

12. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga oid me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi hisobga olingan holda, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha takliflar kiritish, ularni, jumladan, xorijda o‘quv stajirovkalarini o‘tkazish orqali qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, idoraviy axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. 46 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni. 1990-yil 31-oktabrda qabul qilingan.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 6-avgustda qabul qilingan.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2023-yil 14-fevralda qabul qilingan.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2012-yil 26-aprelda qabul qilingan.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi “O‘zbeksiton Respublaksini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil 6-son. www.lex.uz

